https://hstryres.uz/journal/index.php/makro
2026, № 4 (16)
ISSN-3030-3761

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:
Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжонова
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc)., доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Ғаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшкувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)., доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: Https://hstryres.uz/journal/
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university ofUzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web:Https://hstryres.uz/journal/
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	**Akbarov Ravshan Xalimovich** JADIDLAR MA'RIFATCHILIK FAOLIYATINI YOYISHDA "TARJIMON" GAZETASINING O'RNI	**4**
2	**Ахарова Амалия Искандеровна** ЭВОЛЮЦИЯ ФОРМАТОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЯПОНИИ: СТАНОВЛЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕГИОНАЛЬНОГО ДИАЛОГА	**14**
3	**Бахранов Шерзад Таштурсунович** ЎЗБЕКИСТОН ССР САБЗАВОТ-ПОЛИЗ ЭКИНЛАРИ ВА КАРТОШКА ИЛМИЙ – ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН	**27**
4	**Israilov Nodir Raximjonovich** XVI ASR FRANSUZ SHARQSHUNOSLARI ASARLARIDA AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING TADQIQ ETILISHI	**39**
5	**Kandaxarov Anvarjon Xasanovich** BUXORO XONLIGIDA JO'YBOR XOJALARINING IQTISODIY QUDRATI: SHAKLLANISH OMILLARI VA IJTIMOIY-SIYOSIY TA'SIRI	**45**
6	**Mamajonov Soyibjon Xalilovich** AMIR TEMUR VA TO'XTAMISHXON MUNOSABATLARI YOZEF FON XAMMER-PURGSHTAL TALQINIDA	**52**
7	**Mahkamova Zulxumor Murodjon qizi** TURKISTON ASSRNING SOLIQ SIYOSATI TARIXIDA KADRLAR TARKIBINING AKS ETISHI	**58**
8	**Mirzayeva Zaxra Xayritdinovna** KO'RGAZMA ORTIDAGI IMPERIYA: KAUFMAN DAVRIDA TURKISTONDA MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATINING NAMOYON BO'LISHI	**64**
9	**Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich** TOŞKENT VOHASINING QADIMGI VA RIVOJLANGAN ÖRTA ASRLAR DAVRI TARIXI VA MADANIYATIGA OID YOZMA MANBALAR XUSUSIDA	**71**
10	**Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda** QO'QON XONLIGIDA AHOLINING OMMAVIY ISHLARGA JALB ETILISHI TARIXSHUNOSLIGI	**85**
11	**Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda** QO'QON XONLIGI–XITOY O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR XORIJIY TADQIQOTCHILAR TALQINIDA	**90**
12	**Raxmankulova Matluba Bayxurazovna** XX ASR BOSHLARIDA G'ARBDA TEMURIYLAR KITOBAT SAN'ATINING O'RGANILISHI	**96**
13	**Razzokova Nigora Olimjon kizi** INCLUSIVE EDUCATION PRACTICES AND THEIR IMPACT ON LINGUISTICALLY DIVERSE LEARNERS IN MULTICULTURAL CLASSROOMS	**107**
14	**Sadirov Aziz Sirojiddinovich** MUSTAQILLIK ARAFASIDA QASHQADARYO VILOYATIDA YO'L TRANSPORT INFRATUZILMASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	**113**
15	**Сиддиков Равшан Бердимуратович** ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ХАЛҚАРОЛАШУВИ ТАРИХИГА ДОИР (1997-2016)	**120**

Akbarov R. X.
«Jahon tarixi» kafedrasi dotsenti
Farg‘ona davlat universiteti
ravshanakbarov04.@gmail.com

JADIDLAR MA’RIFATCHILIK FAOLIYATINI YOYISHDA “TARJIMON” GAZETASINING O‘RNI

ANNOTATSIYA

Maqolada Ismoil Gasprinskiyning gazeta nashr etish va ta’lim tizimi uchun qilgan sa’y-harakatlari, XIX asr ikkinchi yarmida Qrim va O‘rta Osiyodagi musulmonlar orasidagi ta’lim tizimining umumiy manzarasi, jadidlar tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy taklif va qarashlar, “Tarjimon” gazetasining ta’lim tizimini yaxshilash borasidagi xizmatlari haqida so‘z yuritiladi. Ma’lumki, I. Gasprinskiy faoliyatining katta qismi bevosita Turkiya bilan bog‘liq. Shuning uchun maqola tayyorlanishida gazeta materiallaridan tashqari turk tarixshunoslari tomonidan masalaga oid asarlaridan keng foydalanildi. Zero, I. Gasprinskiy haqida turk tarixchilari tomonidan qimmatli materiallarga boy tadqiqotlar e’lon qilingan.

Kalit so‘zlar: gazeta, diniy maktab, yangi usul maktabi, darslik, ta’lim, muallim, imtihon, ayollar huquqi, “osuda shahar” tushunchasi.

KIRISH

XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tarkibidagi musulmonlar xalqlar orasida jadidchilik deb nomlangan ma’rifatparvarlik harakati vujudga keldi. “Jadidlar” deyilganda aksariyat Rossiya imperiyasida yashovchi turkiy qavmlar yangilikni qabul qila oladigan va yangilik tarafdori bo‘lgan ma’rifatparvarlar nazarda tutilgan. Dastlab, “jadid” atamasining ma’nosini to‘g‘ri tushunib olish kerak. Bugungi kunda jadid atamasiga nisbatan asosan “yangilik”, “yangi usuldagi maktabni tashkil etuvchilar” tushuniladi. Aslida esa “jadid” so‘zi lug‘aviy jihatdan ancha boy ta’rifga ega bo‘lib, “eskining aksi”, “yangi” degan ma’nolarni bildiradi. Aynan shu so‘zning boshqacha shakli bo‘lgan “tajdid” so‘zi esa “yangilash”, “biror narsani eski holatiga qaytarish” ma’nosini bildirsa, ayni so‘zning o‘zagidan yasalgan “mujadid” esa (turkiy ifodasi “jadidchi”) “yangilovchi”, “biroor narsani eski holatiga qaytaruvchi” ma’nosini bildiradi. Shu sababli “jadid” tushunchasi ham eskining davri o‘tgan va buzilgan jihatlarini yangilash, hamda eski narsaning asl bir jihatlarini tiklash, ularni jonlantirish ma’nolarini ham bildiradi [15. 100]. Ma’lumki, jadidchilik ta’lim tizimini isloh qilish harakatidan boshlanib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida siyosiy harakatga aylangan. Dastlabki davrda rus hukumati jadidlar faoliyatiga taqiqlovchi nazar bilan qaramagan. Hatto, ushbu harakatni qo‘llab quvvatlagan [16.108]. Yangi usul maktablarini ochish va uni rivojlantirish uni targ‘ibotisiz amalga oshishi qiyin edi. Shuning uchun u gazeta nashr etish maqsadida juda katta g‘ayrat sarf qilgan. Ismoil Gaprinskiy gazetachilik faoliyatini boshlamasdan oldin 1881-yili “Tavriya” gazetasida ikki maqola e’lon qilgan va keyinchalik bu ikki maqolani umumlashtirib, “Russkoe musulmanstva” (“Rus musulmonlari”) nomli risolasini Oqmasjidda (rus hukumati qrimdagi

Oqmasjid shahrini nomini Simferopol deb o‘zgartirgan [8.6]) nashr qildirgan [18]. I.Gaspirali bu asari orqali butun umri davomida qiladigan ishlarini bir dastur sifatida ko‘rsatgan va turkiylarning taraqqiyotda ortda qolish sabablarini tadqiq qilib, umumiy turkiy til shartligi haqida xulosaga kelgan. Gasprinskiy bu asarining maqsadi Rossiya musulmonlarini taraqqiyotdan orqada qolish masalasini bahslashishni muammo uchun tadqiqotlarni boshlash edi. Gasprinskiy 1881-yildan “To‘ng‘ich”, “Shafaq” nomli qisqa muddatlarda yopilgan gazetalarini chiqargan. Bu gazetalarning ham asl maqsadi turkiy qavmlar ovozini yoyish edi. Gaprinskiy “Tarjimon” gazetasini chiqarishdan oldin Boqchasaroyda nashriyot qurgan va bu matbaa orqali turli asarlarni bosmadan chiqargan [7.104].

Gasprinskiyni turkiy xalqlar orasida mashhur qilgan ishi shubhasiz “Tarjimon” gazetasidir. Aslida “To‘ng‘ich” (1881), “Mirati Jadid” (1882) gazetalari ko‘proq broshyura shaklida nashr qilishga ruxsat berilgan. Chunki uning gazeta chiqarish haqidagi murojaatlari rad etilgan edi. Nihoyat, Sankt-Peterburgda turkiy tilda nashr etiladigan gazetaning ruscha ilovasi bo‘lishi sharti bilan 1883-yili ruxsat beriladi. “Tarjimon” gazetasi turkiy va rus tilida (ruschasi – “Perevodchik”) bo‘lib, ikki qismdan iborat edi [7.105].

Ismoil Gasprinskiy Peterburgga qilgan tashriflari bilan birga “Tarjimon” gazetasini chiqarish va bosmaxona tashkil etish uchun rus amaldorlaridan zarur ruxsatni olgan edi. Gazeta turkcha va ruscha ikki bo‘limdan iborat bo‘lishi kerak edi. Rossiya hukumatining bu ruxsatni berishida mahalliy musulmon xalqining Rossiyaga xayrixohlik his qilishini ta’minlash maqsadi bo‘lgan deb taxmin qilingan.

Shuningdek, Gasprinskiyning Boqchasaroy shahar hokimi bo‘lishi, rus zodagonlari bilan do‘stona munosabatlari, rus maktablarida ta’lim olgani kabi omillar gazeta chiqarish uchun ruxsat olishida katta rol o‘ynagan. “Tarjimon” gazetasi 1883-yil 10-aprelda nashr etila boshlagan. Gasprinskiy gazetaning tarqalishi uchun rejimga moslashib harakat qilishga majbur edi. Shu sababli, u o‘z g‘oyalarini yumshoq, yashirin tarzda tushuntirishi va Rossiya hukumatini g‘azablantirmaslikka harakat qilishi kerak edi. Ushbu siyosati tufayli “Tarjimon” gazetasi boshqa turkiy tildagi gazetalar orasida eng uzoq muddat nashr hayotida saqlanib qolishga erishdi [17.73-74].

Ismoil Gasprinskiy “Tarjimon” gazetasining o‘sha davr Rossiya hukumati bilan uyg‘un va muvozanatli munosabatda bo‘lib, uzoq vaqt nashr hayotida qolishini ta’minlagan. Agar u Rossiya hukumatiga qarshi va muxolif munosabatda bo‘lganda, qisqa vaqt ichida gazetaning yopilishiga sabab bo‘lishi mumkin edi. Ammo Gasprinskiy yaxshi muvozanat siyosatini olib borib, “Tarjimon” gazetasidan Rossiya turklari uzoq vaqt foydalanishini ta’minladi [13.400].

O‘zining nomini Istanbulda Shinosiy afandi chiqargan “Tarjumon-i ahvol”dan olgan gazeta Rossiyada nashr etilgan birinchi turk gazetasi bo‘lmasa-da, o‘ynagan roli jihatidan eng muhim ahamiyatga ega edi. 1883-yil 10-apreldan 1918-yilgacha (1903-yilgacha haftada bir marta, 1903-1912-yillar oralig‘ida ba’zan ikki, ba’zan uch marta, 1912-yil sentyabridan keyin har kuni) 35 yil nashr etilib, davom etgan “Tarjimon” gazetasi Qohiradan Qoshg‘argacha, Qozondan Hindistongacha tarqalgan [17.75].

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Ismoil Gasprinskiy turk-tatar olamida ta’lim berishning dastlabki usuli savtiya asosida ta’lim bergan maktablarning ilk tajribasini qo‘lladi. Uning 1883-yili chiqara boshlagan “Tarjimon” gazetasi bu usulni targ‘ib qilishda eng kuchli vosita bo‘ldi. U bu masalada doimiy ravishda “Tarjimon” gazetasida o‘z fikrlarini bildirgan va tegishli tavsiyalar berib borgan. Asosiy e’tiborini usuli jadid maktablar tarmog‘ini kengaytirishga qaratdi. Aslida xalqning o‘z ona tilida va dunyoviy fanlarni o‘qishi kerakligi, bu borada kerakli darsliklarni yozib, turkiy qavmlar orasida ilk “yangicha usul”ni qo‘llagan Qayum Nosiriy ish boshlaganda Ismoil Gasprinskiy hali dunyoga kelmagan edi. Faqat, Gasprinskiy 1883-yili chiqara boshlagan “Tarjimon” gazetasi vositasida bu harakatni butun Rossiyaga yoyadi [8.12].

Ismoil Gasprinskiy yashagan davrda Qrimda ta’lim tizimi faoliyati haqida shunday manzara mavjud edi: XIX asrda qrimlik tatarlar diniy ta’lim va ona tilidan bilim oladigan umumiy ta’lim tizimiga ega bo‘lmaganlar. Mavjud ta’lim tizimida ham tartib va nazorat ham mavjud emasdi. Har bir muallim qachon xohlasa o‘shandagina ta’lim berar, ta’lim tizimini tashkil etish uchun hech qanday umumiy ko‘rsatma va davlat tomonidan yoki vaqf mulkidan oylik maosh mavjud emasdi. Bunga boshlang‘ich savod chiqarish bo‘lgan o‘qish va husnixat uchun umumiy nazoratni qo‘shilsa, hech qanday yangi pedagogik usul ham qo‘llanilmasdi. Bu oddiy bilim bolalarga maktabga uch-to‘rt yil qatnaganlaridan keyingina nasib etardi [2]. Ismoil Gasprinskiyga ko‘ra ta’lim tizimining ahvoli, ehtiyojlari, rivojlanishi va tanazzuli haqida hech narsa ma’lum emas. Maktablar soni ortdimi yoki kamaydimi, ularda qancha bolalar yoki qizlar ta’lim olmoqda? Bular haqida ma’lumot yo‘q [2].

Rossiyada yashovchi musulmon aholi bolalari orasida ta’lim tizimi bilan bog‘lanish juda past darajada edi. Masalan, Farg‘ona viloyatida ta’lim beruvchi muassasalar soni juda ko‘p. Ular ikki guruhga bo‘linadi: oliy maktablar – madrasa, quyi maktablar – maktabxona. Maktabxonada o‘g‘il bolalardan tashqari, qizlar ham o‘qitiladi. Viloyatda 165 ta yuqori madrasa mavjud bo‘lib, ularda 5863 nafar talaba tahsil oladi. Maktabxonalar soni 1116 ta bo‘lib, ularda 11469 nafar bolalar va 2725 nafar qizlar ta’lim oladi. O‘sha davr viloyatda 655002 nafar aholi borligi inobatga olinsa, 27 kishidan bir nafari maktabga qatnaydi, xolos [3].

Ismoil Gasprinskiy ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan maktablar ahvolining umumiy manzarasini bilish maqsadida tizimni nazorat qiluvchi Diniy boshqarmaga quyidagi so‘rovnomani tashkillasjni taklif etadi: 1) Maktab yoki madrasa qachon ochilgan; 2) o‘z binosi bormi yoki ijaraga olinganmi; 3) qanday mablag‘lar hisobiga faoliyat olib boradi - vaqf yoki sarmoyalari bormi; 4) o‘quvchilar mudarris yoki muallimga oyiga yoki yiliga qancha haq to‘laydilar; 5) bir yilda necha oy ta’lim beriladi; 6) so‘nggi besh yilda o‘quvchilar soni ortdimi yoki kamaydimi; 7) madrasa yoki maktabda nimalar va qaysi qo‘llanmalar asosida o‘qitiladi; 8) joriy yilda madrasada nechta talaba tahsil olmoqda; 9) maktabda nechta o‘g‘il bola va nechta qiz bola o‘qiyapti; 10) mudarris yoki muallim yiliga qancha daromad yoki maosh oladi va qachondan beri xizmat qilmoqda; 11) maktabning doimiy binosi qachon qurilgan, ta’mirlashga muhtojmi, buning uchun

qanday mablag‘lar yoki rejalar mavjud [1]. Muallif ushbu so‘rovnoma orqali hududdagi ta’lim tizimi haqida umumiy manzarani hosil qilish va shu orqali hukumat nazarini ushbu masalaga qaratmoqchi bo‘lganligi ayon.

Ismoil Gasprinskiy “Tarjimon” gazetasining o‘sha davr Rossiya hukumati bilan uyg‘un va muvozanatli munosabatda bo‘lib, uzoq vaqt nashr hayotida qolishini ta’minlagan. Agar u Rossiya hukumatiga qarshi va muxolif munosabatda bo‘lganda, qisqa vaqt ichida gazetaning yopilishiga sabab bo‘lishi mumkin edi. Ammo Gasprinskiy yaxshi muvozanat siyosatini olib borib, “Tarjimon” gazetasidan Rossiya turklari uzoq vaqt foydalanishini ta’minladi [13.400].

Ismoil Gasprinskiy umumiy turk tili va barcha turklar tushunishi mumkin bo‘lgan umumiy til masalasiga juda ko‘p harakat sarflagan. Shuningdek, u o‘qish va yozishni osonlashtiradigan usul-i savtiya usulini qo‘llab-quvvatlagan va bu usul bilan ta’lim berish bo‘yicha ko‘p sa’y-harakatlar qilgan. “Tarjimon” gazetasida ham ta’lim bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. Ismoil G‘aspirali ta’lim-tarbiyaga oid quyidagi fikrlarni bildiradi: “Tarjimon” bilan afkori omma ancha targ‘ib qilinib, usul bilan qirq kun ichida mubtadiy bolaga turkcha o‘qish-yozishni o‘rgatish mumkinligi e’lon qilinib, Boqchasaroyning “Qaytmas og‘a” mahallasining xaroba maktab binosi biroz ta’mirlandi. Talabalardan Bakir afandi taklif etilib, usul-i savtiya va didaktika hamda pedagogikaning eng zarur jihatlari bu afandiga o‘rgatilib, “Birinchi muallim” tayyorlandi. Shunday qilib, o‘zim tartib bergan dastur bo‘yicha 1884-yilda “Birinchi maktab-i jadid”ni ochdim. O‘qiladigan alifbo yozganim “Xo‘ja-i Sibyon” edi. Ta’lim muddati uch yil; dastur - turkcha o‘qish va yozish, Qur’on qiroati, Ilmi hol, husnixat, sarf-i turkiy, xizni hisob, amal-i arba’a, Islom tarixi bilan geografiyadan, tarixdan va hifz-i sihhatdan juda sodda, juda qisqa ma’lumot berishdan iborat edi” [10.72]. Ushbu satrlardan “Tarjimon” gazetasida yangi usul bo‘lgan usuli savtiya bilan bola qirq kunda o‘qib-yozishni o‘rganishi mumkinligi, eski maktab qayta ta’mirlanib, bu yerga o‘qituvchi tayinlanib, ta’limga tayyorlanganligi, o‘qish muddati uch yil ekanligi, darslar turk tilida olib borilishi, Qur’on ta’limi, Islom tarixi, geografiya kabi fanlar o‘qitilganligi anglashiladi. Ismoil Gasprinskiy tomonidan yo‘lga qo‘yilgan yangi usul maktablarining afzalliklari tez orada o‘z samarasini bergan. Masalan, Qaytoq Og‘adagi ilk yangi usul maktabida imtihon o‘tkazildi. Ota-onalar ishtirokida 40 nafar o‘quvchi shariat va Qur’on ilmi, o‘qish, tatar tili grammatikasi va arifmetikadan imtihon topshirdilar. O‘quvchilar katta muvaffaqiyatga erishganliklarini ko‘rsata oldilar. Hatto uch nafar o‘quvchi ikki yilda maktabni tamomlaganliklari haqida guvohnoma oladilar [4].

Ismoil Gasprinskiyning “Tarjimon” gazetasi ta’lim-tarbiyaga bergan ahamiyati gazetaning ta’siri bilan usul-u savtiya muallimligini o‘rganish uchun Kavkazdan va Rossiyadan Bog‘chasaroyga talaba va mullalar kela boshladi. Birinchi namuna maktabi ham maktab, ham ma’lum darajada “Dorul-muallimin” vazifasini bajarardi. Kelgan mullalar bir-ikki oy maktabda mehmon bo‘lib, muallimlik shahodatnomasini olib, o‘z yurtlariga qaytishardi. Shu tariqa ma’rifat va yangilanish uchqunlari u yoq-bu yoqqa sachrardi [13.411]. Ushbu satrlar “Tarjimon” gazetasi yangi ta’lim usulini joriy etib, boshqa mamlakatlardan talabalar va o‘qituvchilarning kelishini ta’minlaganini va maktablar bu kelganlar

uchun ham ta’lim muassasasi, ham o‘qituvchilar tayyorlash markazi vazifasini o‘taganini ko‘rsatadi. Shu tariqa ta’limning yangi tushunchasi tarqalib, yangi talabalar va o‘qituvchilar tayyorlanadigan ta’lim islohoti qabul qilingan va keng yoyilgan muhit mavjudligini kuzatish mumkin.

Rossiya Xalq maorifi qonunchiligiga binoan barcha maktablar Tavriya Musulmon Ruhoniy Boshqarmasi ixtiyorida bo‘ladi. Jamoalar tomonidan saylangan va taklif etilgan xo‘jalarni shu boshqarma tasdiqlaydi. Maktablarga g‘amxo‘rlik qilish va ularni nazorat qilish mas’uliyati ham aynan uning zimmasiga юklatilgan. 1888-yil fevral oyi Simferopol shahrida uyezd qozilarining yillik yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan. Ushbu yig‘ilishda maktablardagi ta’lim va tartib-intizomni yaxshilash masalasi muhokama etilishi kerak edi. Ismoil Gasprinskiy bunday imkoniyatdan foydalanib, maktablarda zamonaviy usullarni joriy etishga doir o‘z takliflarini beradi. Unga ko‘ra: 1. Vaqf daromadi yetarli bo‘lmagan maktablarda ta’lim uchun xo‘jaga haftasiga 3-5 tiyin emas, balki har bir o‘quvchidan 15 tiyin to‘lanishi belgilansin; 2. Nasihat-targ‘ibot orqali maktablarga o‘qish yoshidagi barcha bolalarni jalb etish lozim; 3. Barcha o‘qituvchilarni o‘qish, yozish, ilmi hol va arifmetika asoslarini o‘rgatishga majbur qilish kerak; 4. Har yarim yilda uyezd qozilari orqali muallimlar Diniy Boshqarmaga o‘quvchilar soni haqida, ularning ko‘payishi va kamayishini ko‘rsatgan holda ma’lumot berishlari shart; 5. Uch yil o‘rniga olti oyda savodxon qilish maqsadida o‘qitishni yengillashtiruvchi yangi alifbolar va qo‘llanmalarni tuzish yoki sotib olish choralarini ko‘rish lozim; 6. Uyezd qozilariga maktablardagi ta’lim jarayonini, muallimlarning muvaffaqiyatlari va xulq-atvorini doimiy ravishda kuzatib borish vazifasi юklansin, shuningdek, ularga maktablar va muallimlarning moddiy ahvolini yaxshilash choralari haqida g‘amxo‘rlik qilish mas’uliyati topshirilsin [2].

Turkiy qavmlar orasida ayol maqomini yuksaltirish uchun harakat qilgan Gasprinskiyning eng katta xizmati ta’limda boshlab yuborgan zamonaviylashtirish harakati ekanligi, bu boradagi g‘oyalarini “Tarjimon” vositasida tarqatganligi ta’kidlangan. Ismoil Gasprinskiy ayolning ish hayotida faol rol o‘ynashi kerakligini o‘ylardi. Bu faoliyatlar bilan bog‘liq “Tarjimon” gazetasida muvaffaqiyatli ayollar haqidagi xabarlarga o‘rin berilib, muvaffaqiyatli ayollar maqtalgan [12.211]

“Tarjimon” gazetasida “Milliy maktab dastasi” (1910-yil 27-avgust / 1318-yil 12-ramazon, 35-son) deb nomlangan maqolada ham maorif boshqarmasi tomonidan maktablarda o‘qitilishi belgilangan kitoblar qatorida Xo‘jai Sibiyonning davomi bo‘lgan “Qiroati turkiy” ham o‘rin olgan. Gasprinskiy turkiy tilda yozish va o‘qishning ahamiyatini ko‘p o‘rinlarda ta’kidlaganidek, biz ko‘rib chiqayotgan ushbu asarning “ta’limot” qismida ham anglatgan. Madrasalarda mavjud bo‘lgan yodlashga asoslangan ta’lim-tarbiya tushunchasi G‘arbdan kelgan zamonaviy ta’lim tizimida yo‘qligini ko‘rgan Gasprinskiy, bu “ta’limot”da talabalar avval o‘z ona tillarida o‘qib-yozishlari va yodlashni faqat namoz suralari uchun qo‘llashlari kerakligini aytgan va misollar keltirgan. Ushbu yo‘riqnomada, shuningdek, o‘quvchilar ham, o‘qituvchi ham darsni qanday o‘tishlari kerakligi tasvirlangan. Darsda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday muammo ham ko‘rib chiqilib, o‘quvchilar va o‘qituvchilarga maslahatlar berilgan [14.79-86].

Ismoil Gasprinskiy “Tarjimon” gazetasida yodlash ta’limi o‘rniga g‘arb uslubidagi ona tilida o‘qitishning muhimligini, darslarni o‘tkazish bo‘yicha o‘qituvchi va o‘quvchilar qanday yo‘l tutishlari kerakligi haqidagi kitoblardan ham maqolalarga joy berish orqali “Tarjimon” gazetasining ta’lim-tarbiya masalalariga qanday yondashganini va ta’limga qanchalik ahamiyat berganini ko‘rish mumkin.

“Tarjimon”da o‘z imzosi bilan o‘quvchilarga ochiq-oydin ayta olmaganlarini bilvosita bayon etgan. Gasprinskiy yaratgan “osuda shahar”da ta’limga juda katta e’tibor beriladi. Sakkiz yoshdan o‘n ikki yoshgacha bo‘lgan barcha bolalar maktabga boradi. Boshlang‘ich ta’lim 4 yil davom etadi. O‘g‘il bolalar va qizlar alohida o‘qiydilar. O‘g‘il bolalar boshlang‘ich maktabda matematika va dinni o‘rganadilar. Keyin ular qishloq xo‘jaligi fani va unga oid fizika hamda kimyo mavzularini o‘qiydilar. Qishloq hayoti va yashash uchun zarur bo‘lgan hunar va kasb-korlarni amaliy tarzda o‘rganadilar. Qiz bolalar esa maktabda avvalo o‘qish va yozishni o‘rganadilar [7.109].

Rossiya turklarining uyg‘onishida juda muhim o‘rin tutgan Ismoil Gasprinskiy o‘z g‘oyalarini chor hukumati bilan ziddiyatga bormasdan, mo‘tadilroq tarzda ifodalagani ayrim tomonlar tomonidan tanqid qilinishiga sabab bo‘lgan. “Tarjimon” gazetasining birinchi sonida e’lon qilingan tuzumga qarshi ittifoqchi maqolalari keyingi davrlarda ham tanqidlarga uchradi. Ammo ko‘plab rus missionerlari tomonidan tanqid qilingan va hatto konservativ musulmonlar tomonidan ham tanqid qilingan Gasprinskiyning Rossiyada juda kuchli qo‘llanilgan senzura bilan kurasha olishi va “Tarjimon” gazetasini 35 yil davomida chiqarib, o‘z fikrlarini shu gazeta orqali turklarga yetkazish orqali Rossiya turklarining uyg‘onishiga ta’sir ko‘rsatishida, boshqarib bo‘lmaydigan his-tuyg‘ular bilan emas, balki ehtiyotkorlik bilan harakat qilishining ahamiyati katta edi.

Ismoil Gasprinskiy Rossiya turklarining o‘z kimligini saqlab qolishi faqat umumiy tilda so‘zlashuvchi ma’rifatli xalq orqali mumkin ekanligini himoya qildi. U turk xalqini ma’rifatli qilish va ular bir-biri bilan bemalol muloqot qila oladigan umumiy turkiy tilga ega bo‘lishi uchun butun umri davomida kurashdi, biroq siyosiy birlikni ta’minlash faoliyatidan to‘xtab qoldi. Bu yondashuvida uzoq muddatli sharoitlarda siyosiy birlikni ta’minlash imkonsizligining ta’sirini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Darhaqiqat, bu boradagi fikrlarini “Bizga taqiqlangan ba’zi fikrlar bor. Ularni bizdan keyingi avlodlarga qoldiraylik. Biz ma’naviy birlikni yarataylik, tillarni birlashtiraylik, siyosiy birlik haqida boshqalar o‘ylasin” so‘zlari bilan aniq ifodalagan [10.35]. Tarjimon gazetasi “Tilda, fikrda, ishda birlik” so‘zini shior qilib olgan. Gasprinskiy, bir jamoani millatga aylantiruvchi eng muhim omillardan biri til birligi va din birligi ekanligini va buni uzoq vaqt davomida saqlab qolish mumkinligini ta’kidlagan. Ulardan birortasining yo‘qligi holatida millatlarning buzilganini yoki inqiroz davriga kirganini ta’kidlagan [9.76]. Gasprinskiy turklarni yaxlit bir butun deb hisoblab, ularga tatar, ozarbayjon, boshqird, o‘zbek kabi nomlar berilishi to‘g‘ri emasligini himoya qilgan. Gasprinskiyning fikricha, Rossiya hukmronligi ostidagi musulmon turklar va dunyoning narigi chekkasidagi turklar uchun umumiy til ishlatilishi kerak edi. Qisqasi, u shunday tilni xohlardiki, bu til gapiriladigan va yoziladigan paytda

Istanbuldagi hammol va qayiqchi ham, Sharqiy Turkistondagi tuyakash va cho‘pon ham uni tushuna olishi kerak edi [10.29]. Gasprinskiy o‘z gazetasida Usmonli turk tiliga sodiq qolgan, ammo buni amalga oshirishda og‘ir bo‘lgan arabcha va forscha so‘zlardan foydalanmay, hamma tushunadigan tilda maqolalarini yozgan. Biroq rus inqilobidan keyin matbuot sohasida portlash yuz berdi va chop etilgan asarlar o‘z mahalliy shevalari bilan nashr qilindi [8.41].

1914-yil oxirida “Tarjimon” gazetasida qora sahifa ochildi. Ismoilbekning vafotidan so‘ng “Tarjimon” o‘z yo‘nalishini yo‘qotmagan bo‘lsa-da, Ismoilbekning maqolalaridan mahrum bo‘lgan. Gazetaning imtiyozli egasi Ismoilbeyning o‘g‘li Rifat Gasprinskiy, bosh muharriri esa Hasan Sabri Ayvazov bo‘lgan. 1914-yilda Birinchi jahon urushi boshlanishi bilan gazeta ustunlarini urush xabarlari to‘ldirdi. G‘aspiralining matbuot tarixida amalga oshirgan yana bir yangiligi shundan iboratki, u 1906-yilda o‘z tashabbusi va qizi Shafiqa xonim rahbarligida Rossiya turklarining birinchi ayollar jurnali bo‘lgan “Olami Nisvon” (1906) jurnalini nashr etdi. 1910-yilgacha nashr etilgan jurnal asosan ayollar va oila bilan bog‘liq mavzularga bag‘ishlangan. Jurnalda ayollarga mo‘ljallangan bola tarbiyasi, sog‘liqni saqlash, nikoh huquqi, ayollar huquqlari bilan bog‘liq maqolalar, shuningdek Rossiya va undan tashqaridagi ayollar hamda G‘arb dunyosi madaniyati haqidagi xabarlar chop etilgan.

1914-yilda vafot etgan Ismoil G‘aspiralining turk dunyosiga qo‘shgan eng muhim hissalaridan biri Rossiya turklarining talaba sifatida Turkiyaga borishlariga yo‘l ochishi bo‘ldi. Rossiya turklari orasida ko‘p o‘qiladigan “Tarjimon” gazetasi, Rossiya turklarida ham til, ham fikr jihatidan Turkiyaga bog‘liqlikning kuchayishiga sabab bo‘lgan. Bu davrda Turkiyadagi Tanzimot harakati Usul-u jadidchilar orasida ham xayrixohlik uyg‘otdi va Turkiyaga ta’lim olish uchun borganlar soni ko‘paydi. Darhaqiqat, G‘aspirali Ismoil beyning targ‘iboti va ta’siri ostida “jadidchilik” harakatini qabul qilgan va bu oqimning Qozon viloyatidagi eng g‘ayratli tarafdorlaridan biriga aylangan G‘ilmon Oxundning o‘g‘li Fotih Karimiy Turkiyaga ta’lim olish maqsadida kelganlarning boshida turadi [11.118].

“Tarjimon” vaqt o‘tishi bilan barcha turk yurtlarida va shu jumladan Istanbulda qiziqish bilan kutilgan gazetaga aylandi va bu holatni uzoq yillar davom ettirdi. Ba’zi paytlarda faqat Istanbulning o‘zida 5000 dan ortiq nusxada sotilgani ma’lum bo‘ladi. Tarjimon 1897–1898-yillarda Bolgariyada 200 ta, Dobrujadagi qrim turklari orasida esa 100 tagacha nusxa sotgan [8.47]. “Tarjimon” gazetasi 1912-yilda Turkiyadan tashqari Misr, Eron, Hindiston va hatto Marokashda ham sotilgan. Gasprinskiy gazetaning bosh muharriri sifatida ishlagan va nashrning eng mayda tafsilotlarigacha shaxsan o‘zi e’tibor qaratgan [7.112].

Ismoil Gasprinskiy o‘z gazetasida umuman Rossiya musulmonlari-turklarining zamonaviylashuvi zarurligi haqida so‘z yuritgan. “Tarjimon” orqali buni amalga oshirish yo‘llarini izlagan Gasprinskiy, oldiga chiqqan to‘siqlarni yengish uchun esa yana “Tarjimon”dan foydalangan. Uning fikricha, zamonaviylashuvning ustuvor yo‘nalishlari orasida ta’lim va til birligi muhim o‘rin egallaydi. Shu sababli “Tarjimon” gazetasida ta’lim va tildan foydalanish muammolariga keng o‘rin ajratilgan.

Qisqa vaqt ichida butun turk dunyosiga murojaat qilgan “Tarjimon” butun islom olamining dardlarini tushuntirib, ularga yo‘l ko‘rsatuvchi gazeta bo‘lishga intilgan. Nafaqat Rossiya hududlarida yashovchi turklar, balki Turkiya turklari yoki Turkiyada istiqomat qilayotgan Rossiya turklari tomonidan diqqat bilan kuzatiladigan gazeta, avvalo turklarning madaniy hayoti bilan bog‘liq masalalarga e’tibor qaratib, xalq ta’limi ustida to‘xtalgan. Gasprinskiy ushbu gazetada o‘zi asoschilari qatorida bo‘lgan yangi usuldagi ta’lim tizimini xalqqa tushuntirishga va yoshlarning bunday maktablarda ta’lim olishlarini ta’minlashga harakat qilgan.

Ismoil Gasprinskiy 1893-yili Turkistonga ilk kelishida shirvonlik Majid G‘anizoda hamrohlik qilgan. U shu safarida Shahrisabzga ham borgan. Majid G‘anizoda Samarqandda 40 kun mobaynida yangi usul maktabida dars beradi [5.191]. Safar taasurotlari haqida Ismoil Gasprinskiy Turkistonga ikkinchi marta 1908-yili keladi. Mana shu safaridan keyin Buxoro amiri va Xiva xoniga murojaat qiladi. Ushbu murojaatida g‘aflat uyqusidan uyg‘onish kerakligi, aks holda Turkiston mustamlakaga aylanishi mumkinligini ta’kidlagan [6].

XULOSA

Ismoil Gasrinskiyning harakatlari natijasi o‘laroq XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda ham yangi usul maktablari tarmog‘i kengaya boshladi. Musulmon xalqlarini ma’rifatli qilish yo‘lida faoliyat boshlagan Ismoil Gasprinskiyning harakati tez orada o‘z aks sadosini berib, o‘lkamizda ham bu usuldagi maktablar soni ko‘payib, butun boshli tizimga aylanib ulgurdi. Dastlabki jadidlar ta’lim tizimini isloh qilishda inqilobiy yo‘lni afzal ko‘rganlar. Buning mohiyati shuki, mavjud an’anaviy ta’lim tizimini butunlay sindirib, oldinga qo‘yilgan maqsad yangi, yosh avlod tomonidan amalga oshirilishi kerak. Chunki mavjud ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan shaxslar uchun yangi tizim maqbul emas.

Jadid matbuoti vujudga kelishida tatar ma’rifatparvarlari faoliyati katta rol o‘ynadi. Ayni paytda 1905-yil Rossiyada ba’zi demokratik erkinliklarning berilishi Turkistonda ham mahalliy matbuot rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Mahalliy matbuotning vujudga kelishida jadid – yoshlar asosiy mas’uliyatni zimmalariga oldilar. Ayni paytda matbuot yangi, yosh avlod adabiyotchilari uchun o‘z qalamlarini charxlovchi maydonga aylana oldi. Afsuski, mahalliy matbuotning rivojlanishi uch yilgina davom etdi. Stolipin reaksiyasining kuchayishi Turkistonda mahalliy matbuotning yanada rivojlanishiga to‘siq bo‘ldi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ismoil Gasprinskiy. Maktablar statistikasiga oid // Tarjimon. 1884. 31-dekabr.
2. Ismoil Gasprinskiy. Qrim maktablari // Tarjimon. 1888. 8-fevral.
3. Tarjimon. 1884. 8-mart.
4. Tarjimon. 1895. 21-may.
5. Қosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – 400 b.
6. Xonlara xitob // Tarjimon. 1906. 11-avgust.

7. Berrin KALSİN. İsmail Gaspıralı ve Tercüman gazetesi // Uluslararası Hakemli İletişim ve Edebiyat Araştırmaları dergisi. Cilt 2. Sayı 2. 2014. – S. 95-115.

8. Devlet N. İsmail Bey Gaspıralı (1851 – 1914). – Ankara: Başbakanlık basim evi, 1988. – 138 s.

9. Gaspıralı İ. İsmail Gaspıralı Seçilmiş Eserleri: III Dil-Edebiyat Seyahat Yazıları, Yay. Haz. Yavuz Akpınar, İstanbul: Ötüken Yayıncılık, 2008. – 257 s.

10. Ekinci Y. Gaspıralı İsmail. Ankara: Ocak Yayınları, - 1997. – 124 s.

11. Kurat A.N. Kazan Türklerinin ‘Medeni Uyanış’ Devri. – Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih – Coğrafya Fakülte Dergisi, C.XXIV, (3-4). 1966. – S. 110-145.

12. Selcan Sağlık Şahin. İsmail Gaspıralı, Türk kadını ve Alemi Nısvan Dergisi // Modern Türklük dergisi. İsmail Bey özel sayısı. Cilt 1. Sayı 4 (Aralık 2014). – S. 210-223.

13. Taybe Topsakal. Rusya Türklerinin ve Müslümanlarının Milli ve Medeni Bilinçlenmelerinde Tercüman Gazetesinin Rolü // Sosyal Bilimler Dergisi. 2018. Cilt 8. Sayı 2. – S. 400.

14. Özkaya Y. İsmail Gaspıralı’nın Kıraat-ı Türki Adlı Eseri. – Istanbul: Türkbilig, 2011. – S. 79-86.

15. Abdulaziz ARTIŞ. Kazanda cedidçilik hareketi ve Kursavı (XIX yuzyıl başları). // Bayburt Üniversitesi İlahiyat Fakültesi, Dergisi Yıl, 2017 Sayı, 6: 89-113.

16. İbrahim Koncak. Ceditçilik harekati ve Türkistan – Osmanlı devleti ilişkileri // Çankırı Karatekin Üniversitesi Uluslararası Avrasya Strateji dergisi 2 (1). – S. 105-114.

17. Devlet N. İsmail Gaspıralı: Unutturulan Türkçü İslamcı Modernist. - İstanbul: Başlık Yayın Grubu, 2011. – S. 73-75.

18. Русское мусульманство – мысли, заметки и наблюдения мусульманина. – Симферополь: Спиро, 1884. – 43 с.

Акбаров Р. Х.
Доцент кафедры «Всемирная история»
Ферганский государственный университет
ravshanakbarov04.@gmail.com

РОЛЬ ГАЗЕТЫ «ТАРДЖИМАН» В РАСПРОСТРАНЕНИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЖАДИДОВ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются усилия Исмаила Гаспринского по изданию газет и системе образования, общая картина системы образования среди мусульман в Крыму и Центральной Азии во второй половине XIX века, социальные предложения и взгляды, выдвинутые джадидами, а также заслуги газеты «Тарджиман» в совершенствовании системы образования. Как известно, значительная часть деятельности И. Гаспринского напрямую

связана с Турцией. Поэтому при подготовке статьи, помимо газетных материалов, широко использовались работы турецких историков по данной теме, так как богатые ценными материалами исследования об И. Гаспринском были опубликованы турецкими историками.

Ключевые слова: газета, религиозная школа, новометодная школа, учебник, образование, учитель, экзамен, права женщин, концепция «мирного города».

Akbarov R. Kh.
Associate professor at the department of «World History»
Fergana State University
ravshanakbarov04.@gmail.com

THE ROLE OF THE "TARCIMAN" NEWSPAPER IN THE DISSEMINATION OF JADID EDUCATIONAL ACTIVITIES

ABSTRACT

This article examines Ismail Gasprinsky's efforts in publishing newspapers and the education system, the overall picture of the Muslim education system in Crimea and Central Asia in the second half of the 19th century, the social proposals and views put forward by the Jadids, and the contributions of the "Tarciman" newspaper to improving the education system. As is well known, a significant portion of Gasprinsky's work is directly related to Turkey. Therefore, in preparing this article, in addition to newspaper materials, extensive use was made of the works of Turkish historians on this topic, as Turkish historians have published valuable research on Gasprinsky.

Keywords: newspaper, religious school, new method school, textbook, education, teacher, exam, women's rights, concept of "peaceful city".

Ахарова А. И.
Студентка 4-ого курса направления «Международные отношения»
DIPLOMAT UNIVERSITY
amaliya03.2006@gmail.com

ЭВОЛЮЦИЯ ФОРМАТОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЯПОНИИ: СТАНОВЛЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕГИОНАЛЬНОГО ДИАЛОГА

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются процессы институционализации, функциональной эволюции и стратегических перспектив многостороннего диалогового формата «Центральная Азия + Япония» с момента его учреждения в 2004 году до периода 2025-2026 годов. В частности, уделяется внимание трансформации японо-центральноазиатских связей от консультативно-гуманитарных инициатив к полноформатному инфраструктурному и экономическому партнерству. В работе рассматриваются ключевые вехи развития формата. Особый акцент сделан на итогах первого в истории Саммита глав государств в Токио (19-20 декабря 2025 г.) и принятии Токийской декларации. Делается вывод об окончательном оформлении формата как стабильного и регулярного органа стратегического планирования на евразийском пространстве.

Ключевые слова: диалог «Центральная Азия + Япония», многостороннее сотрудничество, региональная интеграция, институционализация, Токийская декларация 2025, «зеленая» экономика, Транскаспийский международный транспортный маршрут (ТМТМ), «мягкое партнерство», международная субъектность, евразийская безопасность.

ВВЕДЕНИЕ

Трансформация современной системы международных отношений сопровождается качественным изменением роли многосторонних диалоговых площадок, выступающих ключевым механизмом согласования интересов в условиях глобальной нестабильности. В данном контексте эволюция взаимодействия Японии и стран Центральной Азии демонстрирует уникальную модель перехода от фрагментарных связей к системному региональному партнерству. Появление новых независимых государств в Евразии в начале 1990-х годов поставило перед Токио задачу формирования долгосрочной стратегии в регионе, не имеющем с Японией общих границ. Отказавшись от концепции жесткой геополитической конкуренции, японская дипломатия сделала ставку на создание инклюзивной платформы, нацеленной на содействие внутрирегиональной связуемости и устойчивому развитию.

За более чем тридцатилетний период структура японо-центральноазиатских отношений прошла путь глубокой качественной трансформации. Ей на смену пришла скоординированная многосторонняя

кооперация, охватывающая вопросы энергетики, логистики, экологии и технологической модернизации. Центральным институтом этого процесса выступает диалог «Центральная Азия + Япония», учреждённый в 2004 году. Данный формат позволил сформировать гибкое пространство для коллективного обсуждения общих вызовов без создания обязывающих наднациональных структур, что в полной мере отвечает принципам многовекторной внешней политики центральноазиатских государств.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью осмысления институциональной динамики диалога «ЦА + Япония» как одного из наиболее устойчивых многосторонних механизмов в Евразии, позволяющего странам региона укреплять свою международную субъектность, а Японии - выступать в роли надежного стратегического и технологического партнера.

Цель работы состоит в раскрытии этапов институционализации и функциональной эволюции формата «Центральная Азия + Япония», анализе его адаптации к современным экономическим и геополитическим вызовам, а также в оценке политико-стратегических итогов первого в истории саммита на уровне глав государств в декабре 2025 года как новой точки отсчета в региональном сотрудничестве сторон.

ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Переход к региональному формату – учреждение диалога «ЦА+Япония» (2004-2010)

Этапом, отражающим поступательное развитие японо-центральноазиатских отношений и их переход от преимущественно двустороннего взаимодействия к многостороннему измерению, стало официальное учреждение диалога «Центральная Азия + Япония» в августе 2004 года, закреплённое в форме совместного заявления сторон. Принципиально важным являлось то, что данный механизм изначально не предполагал отказа от двустороннего сотрудничества, а, напротив, рассматривался как его логическое расширение и институциональное продолжение, призванное вывести взаимодействие за рамки классической модели «государство-государство» и придать ему устойчивое региональное измерение, отвечающее интересам всех участников.

В основе диалога были закреплены ключевые принципы, отражающие чувствительность Японии к политическим, историческим и суверенным особенностям региона: уважение самостоятельности государств Центральной Азии, поддержка развития внутрирегионального сотрудничества между странами региона, а также содействие стабильности, устойчивому социально-экономическому развитию и интеграции региона в более широкие международные процессы. Для государств Центральной Азии данные принципы имели существенное значение, поскольку позволяли участвовать в новом механизме без риска утраты внешнеполитической автономии или навязывания жёстких интеграционных обязательств. Для Японии такая модель означала возможность укреплять своё присутствие в регионе в форме «мягкого партнёрства», не вступая в прямую конкуренцию с другими

крупными внешними акторами. Концепция «мягкого партнерства» Японии базируется на принципах уважения суверенитета, отсутствии политического предопределения и отказе от создания жестких наднациональных органов. Это позволяет государствам ЦА сохранять многовекторность.

Япония сознательно позиционировала себя не как доминирующее государство или центр принятия решений, а как внешний партнёр и модератор диалога, готовый обеспечивать площадку для обсуждений, обмена опытом и координации инициатив. Для государств Центральной Азии данный подход оказался приемлемым, поскольку не нарушал баланс их многовекторной внешней политики, а для Японии создавал условия для долгосрочного присутствия в регионе, основанного не на силовом или экономическом давлении, а на доверии и институциональном взаимодействии.

Создание формата «ЦА + Япония» стало, с одной стороны, результатом накопленного к началу 2000-х годов значительного двустороннего опыта сотрудничества, а с другой - отражением осознания объективной необходимости перехода к более структурированному уровню взаимодействия. Различия в уровнях экономического развития, внешнеполитических ориентирах и внутренних приоритетах государств Центральной Азии делали невозможным применение унифицированных подходов, что потребовало гибкой модели, способной учитывать эти особенности, не сглаживая их искусственно, но при этом формируя пространство для совместных инициатив и согласованных решений. Для Японии такой формат позволял систематизировать разрозненные двусторонние проекты и повысить их стратегическую эффективность.

На данном этапе, принимая во внимание неоднородность внешнеполитических стратегий стран региона и стремясь избежать возможной конкуренции или напряжённости внутри механизма, особое внимание было уделено гуманитарному и образовательному направлениям [5], которые были осознанно выбраны в качестве нейтральной и объединяющей сферы сотрудничества. Для государств Центральной Азии образование и гуманитарное взаимодействие представляли собой инструмент модернизации, подготовки квалифицированных кадров и постепенного повышения качества государственного управления без прямого политического давления. Для Японии эти направления имели стратегическое значение как канал формирования позитивного имиджа, укрепления «мягкой силы» и подготовки специалистов, ориентированных на долгосрочное сотрудничество с японскими институтами и компаниями.

Приоритетными задачами в гуманитарной сфере стали подготовка кадров по японским и международным стандартам, формирование регионального слоя специалистов, обладающих навыками межкультурного взаимодействия, а также распространение японской модели управления, организации труда и внедрения технологий. Таким образом, гуманитарные инициативы выполняли не вспомогательную, а стратегическую функцию, выступая инструментом формирования доверия, долгосрочного влияния и общего

интеллектуального пространства региона. Именно через образование, академические обмены и подготовку управленческих кадров данный формат начал наполняться практическим содержанием, выходящим за рамки декларативной дипломатии.

Параллельно, в рамках деятельности Японского агентства международного сотрудничества (JICA), был усилен акцент на проекты развития, сельское хозяйство и устойчивое управление ресурсами [4], что отвечало как актуальным потребностям государств Центральной Азии, так и долгосрочным внешнеэкономическим интересам Японии. Для стран региона эти направления имели ключевое значение с точки зрения продовольственной безопасности, развития сельских территорий, занятости населения и управления водными ресурсами. Для японской стороны поддержка данных сфер способствовала стабильности, снижению социально-экономических рисков и формированию предсказуемой среды для будущего экономического взаимодействия.

Проекты JICA носили преимущественно прикладной характер, учитывали национальную специфику каждой страны, однако изначально проектировались с расчетом на региональной применимости накопленного опыта. Это способствовало формированию общих подходов к решению схожих социально-экономических задач, постепенно усиливая внутреннюю связность региона. Поддержка со стороны Японии не ограничивалась финансовыми ресурсами, а включала передачу технологий, обучение специалистов и институциональное консультирование, направленное на укрепление управленческого потенциала государств Центральной Азии. В результате экономика, сельское хозяйство и развитие человеческого капитала стали практической опорой диалога, дополняя его политические установки формата конкретным содержанием.

Особую роль в институциональном закреплении диалога сыграл визит министра иностранных дел Японии в страны Центральной Азии в 2004 году [10], который стал ключевым политическим катализатором запуска механизма. В ходе визита была подтверждена готовность японской стороны к системному и долгосрочному взаимодействию, чётко обозначены приоритеты - развитие, стабильность и поощрение сотрудничества между самими государствами региона, а также подчеркнута стратегическая заинтересованность Японии в долгосрочном присутствии. Для центральноазиатских государств визит стал сигналом серьёзности намерений Токио, а для Японии – возможностью закрепить своё участие в формировании региональной повестки.

В целом, именно в период 2004-2010 гг. диалог «Центральная Азия + Япония» приобрёл внутреннюю устойчивость и начал восприниматься не как временная дипломатическая инициатива, а как самостоятельный и воспроизводимый элемент региональной архитектуры. Он оказался выгодным для государств Центральной Азии как инструмент расширения внешних связей и привлечения ресурсов развития, а для Японии - как

долгосрочная платформа укрепления политического, гуманитарного и экономического присутствия в стратегически значимом регионе Евразии.

Институционализация и инфраструктурный вектор диалога: адаптация к внешним вызовам (2010-2020)

“Физиология” бўлими “Суғориладиган шароитларда атроф – муҳитнинг ноқулай омилларига чидамлилигини ошириш вазифаси билан боғлиқ ҳолда сабзавот, полиз ва картошка экинларининг ўзгаришини физиологик ва биокимёвий асослаш” номли катта лойиҳа устида иш олиб борган, лойиҳанинг биринчи бўлимида “Қовуннинг касал ва соғ физиологияси” номли мавзу устида, “Қовундан юқори ҳосил олишда агротехник тадбирларнинг физиологик тахлили” номли мавзуда, учинчи бўлим “Қовуннинг сифатли ва чидамлилигини оширишда агротехник тадбирларнинг физиологик асосномаси”, тўртинчи бўлим “Фусариум солмаси билан боғлиқ ҳолда полиз ўсмиликларининг сувга бўлган эхтиёжини физиологик асослари” номли мавзуларда тадиыотлар олиб борилган. Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, илмий – тадқиқот институтларининг натижаларини тарғибот-ташвиқот қилишда алоҳида бўлимлар ишлаб турган. Бу бўлимда ҳам биринчи мавзу “Илмий – оммабоп ва нашриёт ахборот ишлари” мавзусида, иккинчи бўлим “Илмий – техник маълумот, патент фонди ва ахборот-маълумот фондини тўлдиришни ташкил этиш” номли мавзуда, учинчи бўлим “Илмий – техник тарғибот, курс тадбирлари, семинарлар, радио ва телевидения, ихтиро ва рационализаторлик” номли мавзулар доирасида ишлар қилинган [22].

ХУЛОСА

Институт олимлари нафақат халқаро кўргазмаларда, балки Республика бўйича ҳар йили ташкил этиладиган кўргазмаларда ҳам мунтазам иштирок этиб келдилар. Бу кўргазмаларга давлат бошқарув органларининг раҳбарлари, турли ташкилот ходимлари ҳам иштирок этдилар. Мустақилликнинг қўлга киритилиши билан интитут ўз фалиятини тўхтатиб қолмади, балки яна илмий ютуқларни қўлга киритди. Сурхондарё илмий-тажриба станцияси Ўзбекистон мустақилликни қўлга киритиши билан филиал Бутуниттифоқ сабзавот экинлари станцияси ва уруғчилик илмий-тадқиқот институти Ўрта Осиё лабораторияси тажриба станцияси таркибига қўшиб юборилди. 1992 йилдан институт Ўзбекистон сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик илмий – тадқиқот институти деб номланди. Институтнинг сабзавотчиликни ривожланиши сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик борасидаги илмий ютуқлари республика аҳоли шахсий томорқа хўжалигида ва фақат маҳаллий истеъмол учун маҳсулот берадиган тармоқдан - халқ хўжалигида муҳим ўрин эгаллаган, тез суръатлар билан ўсиб бораётган, шаҳар ва саноат марказлари аҳолисини резавор сабзавот, полиз, картошка маҳсулотлари ва қайта ишлаш саноатини хом ашё билан таъинловчи ривожланган йирик айланишига хисса қўшмоқда.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБАЛАР ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик илмий-тадқиқот институтининг 90 йиллик фаолиятига бағишланади. – Тошкент. Baktris press, 2023. - 1 б.
2. Сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик илмий-тадқиқот институтининг 90 йиллик фаолиятига бағиш-ланади. – Тошкент. Baktris press, 2023. - 102 б.
3. Ўз МА Р-90, рўйҳат -10, йиғма жилд – 4962, - 76 варақ.
4. Ўз МА Р-90, рўйҳат -10, йиғма жилд – 4962, - 217 варақ.
5. Хўжаев И., Оғажонов Б. Сара уруғ-ҳосил бўлиқ // Совет Ўзбекистони. 1985 йил 21 май.
6. Узбекский научно-исследовательский институт овоще-бахчевых культур и картофеля. – Ташкент. Упр. Пропаганда и внедрения достижений науки, техники и передового опыта МСХ УзССР, 1983. – с. 7.
7. Ўз МА. Р-90, рўйҳат – 10, йиғма жилд – 5046, - 83 варақ.
8. Узбекский научно-исследовательский институт овоще-бахчевых культур и картофеля. – Ташкент. Упр. Пропаганда и внедрения достижений науки, техники и передового опыта МСХ УзССР, 1983. – с. 8.
9. Сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик илмий-тадқиқот институтининг 90 йиллик фаолиятига бағишланади. – Тошкент. Baktris press, 2023. - 8 б.
10. Узбекский научно-исследовательский институт овоще-бахчевых культур и картофеля. – Ташкент. Упр. Пропаганда и внедрения достижений науки, техники и передового опыта МСХ УзССР, 1983. – с. 9.
11. Ўз МА. Р-90, рўйҳат – 10, йиғма жилд – 5046, - 85 варақ.
12. Ўз МА. Р-90, рўйҳат – 10, йиғма жилд – 5046, - 87 варақ.
13. Сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик илмий-тадқиқот институтининг 90 йиллик фаолиятига бағишланади. – Тошкент. Baktris press, 2023. - 102 б.
14. Каримов Й., Каримов А. Кўчат сара бўлсин // Совет Ўзбекистони. 1972 йил 15 март.
15. Сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик илмий-тадқиқот институтининг 90 йиллик фаолиятига бағишланади. – Тошкент. Baktris press, 2023. - 6 б.
16. Сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик илмий-тадқиқот институтининг 90 йиллик фаолиятига бағишланади. – Тошкент. Baktris press, 2023. - 7 б.
17. Ўз МА. Р-90, рўйҳат – 10, йиғма жилд – 5046, - 88 варақ.
18. Ўз МА. Р-90, рўйҳат – 10, йиғма жилд – 5046, - 91 варақ.
19. Ўз МА Р-90, рўйҳат -10, йиғма жилд – 4452, - 198 варақ.
20. Боқиев А. Сабзавотчиликни ривожлантириш муаммолари // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -№2, 1986. - 23 бет.
21. Ўз МА. Р-90, рўйҳат – 10, йиғма жилд – 5046, - 98 варақ.
22. Ўз МА. Р-90, рўйҳат – 10, йиғма жилд – 5046, - 99 варақ.

Бахранов Ш. Т.
PhD., преподаватель кафедры «Военно-патриотическое, духовно-просветительское воспитание и социальная работа с молодежью»
Университет Общественной безопасности Республики Узбекистан
Sherofkun82@mail.ru

ИЗ ИСТОРИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО ИНСТИТУТА ОВОЩЕБАХЧЕВЫХ КУЛЬТУР И КАРТОФЕЛЯ В УЗБЕКСКОЙ ССР

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается история деятельности Научно-исследовательского института овощебахчевых культур и картофеля в Узбекской ССР, его роль в развитии сельскохозяйственной науки и овощеводства республики в советский период. Особое внимание уделяется основным направлениям научно-исследовательской работы института, связанным с селекцией и семеноводством овощных, бахчевых культур и картофеля, совершенствованием агротехнических методов их возделывания, повышением урожайности и качества сельскохозяйственной продукции. Анализируются основные этапы становления и развития института, организация опытно-исследовательской работы, внедрение научных разработок в производство, а также взаимодействие научного учреждения с колхозами и совхозами Узбекской ССР. На основе исторических материалов раскрывается значение деятельности института в решении актуальных для республики задач продовольственного обеспечения, рационального использования орошаемых земель и развития специализированных отраслей сельского хозяйства. Делается вывод о значительном вкладе института в формирование научной базы овощеводства, бахчеводства и картофелеводства Узбекистана и подготовку научных кадров в данной области.

Ключевые слова. Узбекская ССР, овощеводство, бахчеводство, картофелеводство, научно-исследовательский институт, сельскохозяйственная наука, селекция, семеноводство, агротехника, советский период.

Bahranov Sh. T.
PhD., lecturer at the department of «Military-patriotic, spiritual and educational education and social work with youth
University of public safety of the Republic of Uzbekistan
Sherofкun82@mail.ru

FROM THE HISTORY OF THE ACTIVITIES OF THE SCIENTIFIC-RESEARCH INSTITUTE OF VEGETABLE, POLISH, AND CARTOON CROPS IN THE UZBEK SSR

ABSTRACT

The article examines the history of the Research Institute of Vegetable, Melon, and Potato Crops in the Uzbek SSR and its role in the development of agricultural science and vegetable growing in the republic during the Soviet period. Particular attention is paid to the main directions of the institute's research work related to the breeding and seed production of vegetable, melon, and potato crops, the improvement of agrotechnical methods for their cultivation, and increasing the yield and quality of agricultural products. The main stages of the institute's establishment and development, the organization of experimental research work, the implementation of scientific developments into production, and the interaction of the scientific institution with the collective and state farms of the Uzbek SSR are analyzed. Based on historical materials, the significance of the institute's activities in addressing urgent tasks for the republic regarding food security, the rational use of irrigated lands, and the development of specialized agricultural sectors is revealed. It is concluded that the institute has made a significant contribution to the formation of the scientific base of vegetable, melon, and potato growing in Uzbekistan and the training of scientific personnel in this field.

***Keywords*:** Uzbek SSR, vegetable growing, melon growing, potato growing, research institute, agricultural science, breeding, seed production, agrotechnics, Soviet period.

Israilov N. R.
«O‘zbekiston tarixi» kafedrasi katta o‘qituvchisi
Farg‘ona davlat universiteti
nodirtemur90@gmail.com

XVI ASR FRANSUZ SHARQSHUNOSLARI ASARLARIDA AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING TADQIQ ETILISHI

ANNOTATSIYA

Maqolada XVI asr fransuz sharqshunoslari tomonidan Amir Temur tarixining o‘rganilishi omillari tadqiq qilingan. Mazkur vaqtda Germaniyada Gabsburgalar sulolasining kuchayib ketishi Fransiya va Usmonli turklar davlatlari uchun jiddiy xavfni keltirib chiqargan. Natijada, ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar yuzaga kelgan. Fransuz diplomatlari Konstontinopolga XVI asrning 30-yillaridan boshlab tashrif buyurishni boshlashgan. Elchilar mazkur diplomatik missiyalari mobaynida Usmonli turklar davlatidagi tolerantlik siyosatidan hayratda qolishgan. Chunki, ushbu davrda Fransiyada diniy mojarolar avjida edi. Katolik va protestantlar o‘rtasidagi kurashni to‘xtatish maqsadida Fransiya hukumati moziyning buyuk hukmdorlari hususan, Amir Temurning davlatchilik faoliyatini tadqiq etishni sharqshunoslarga vazifa qilib qo‘ygan. Sohibqironning tolerantlik siyosati fransuz orientalistlari tomonidan o‘tmishdagi hukmdorlar faoliyati bilan qiyosiy tarzda tahlil qilinib, o‘z asarlarida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Kir II, Doro I, Aleksandr Makedonskiy, Yuliy Sezar, Neron, Amir Temur, Sulton Boyazid, Fransisk I, Jan Boden, Lui Le Rua, College de France, “Fransuz–Usmonli” ittifoqi, Jan de la Foret, “universalizm”.

KIRISH

XV asr boshlarida Fransiyada Amir Temur faoliyatini o‘rganishning asosiy sabablari “Yuz yillik urush”, “G‘arbiy bo‘linish” hamda Usmonli turklarning g‘arbga tahdidi bo‘lsa, XVI asrdan boshlab esa qirollarning mutlaq monarxiyaga erishish istagi hamda mamlakatda yuzaga kelgan katoliklar va protestantlar o‘rtasidagi diniy taffovutlar natijasidir.

XV asrning ikkinchi yarmida fransuzlarning Italiyaga bostirib kirishi XVI asrdan boshlab Fransiyada Uyg‘onish davri tamadduni rivojlanishiga asosiy sabablardan biri bo‘ldi. Qirol Fransisk I (1515–1547) davridan boshlab mamlakatda aholi savodxonligini oshirish masalasiga alohida e’tibor berildi. Bunga, XVI asr boshlarida mamlakatda avj olgan diniy nizolar, fransuz qirolining mutlaq boshqaruvga intilishi hamda Gabsburg monarxiyasining Fransiyaga ta’sirini misol qilib keltirish mumkin.

Fransiya XVI asrga o‘zining hududiy birlashuvi yakunlagan holda kirib kelgan. Burgundiya gersogligi, Provans va Bretan grafliklari qirollik tarkibiga qo‘shib olingandan so‘ng aholi soni jihatdan G‘arbiy Yevropadagi eng katta davlatga aylanib, mamlakat aholisi 15 mln kishiga yetdi [8]. Mazkur masalalarni to‘g‘ri anglagan holda Fransiyada lotin tili monopoliyasini yo‘q qilish maqsadida qirol

Fransisk I 1530-yilda fransuz tilini milliy til deb e’lon qilgan [9]. Shuningdek, Fransiyada Rim papasining ta’sirini kuchsizlantirish hamda tashqi siyosatda Osiyo davlatlari bilan hamkorlik qilish maqsadida Fransiya qiroli asosiy e’tiborini kadrlar tayyorlash masalasiga qaratgan. Shu nuqtai nazardan Fransisk I 1530-yilda qirollik kolleji (College de France)ni tashkil etdi [7:24]. Mazkur dargohda ana shu davr siyosiy muhitidan kelib chiqqan holda moziyning hamda zamonasining buyuk hukmdorlari faoliyati tarixini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

1520-yilda Karl V ning Muqaddas Rim imperiyasi imperatori etib saylanishi, Fransiya tashqi siyosatda navbatdagi muammoga aylangan. Gabsburglar sulolasiga tayangan holda Karl V G‘arbiy Yevropada Fransiyani geografik jihatdan absolyut boshqaruvi bilan o‘rab olishga intilgan. Muqaddas Rim imperiyasi imperatorining ta’sir doirasi Yaqin Sharq mintaqasiga ham yetib borgan bo‘lib, bundan Usmonlilar imperiyasi ham aziyat cheka boshlagan. Shuningdek, XVI asrning 30-yillariga kelib Fransiya-Italiya munosabatlarning keskinlashuvi, qirol Fransisk I ning Usmonli imperiyasi sultoni Sulaymon I bilan “Fransuz–Usmonli”* ittifoqini tuzishga olib keldi. Mazkur diplomatik kelishuvdan o‘z navbatida Usmonlilar imperiyasi ham manfaatdor bo‘lib, Shimoliy Afrika va Gabsburglar imperiyasi masalasida Fransiyaning yordamiga tayanar edi. Xristian va musulmon yurt vakillarining birlashuvi Fransiyada jiddiy tanqidlarga uchragan. Biroq ikki davlat o‘rtasida birlashgan harbiy ekspeditsiyalardagi muvaffaqiyatlar davlatlarning harbiy hamda iqtisodiy sohalarini o‘sishiga sabab bo‘lgan. Elchilar almashinuvining jadallashishi esa Fransiyada Sharq tillari va madaniyatini tadqiq etish qirol homiyligi va nazoratiga o‘tishiga olib kelgan. Natijada XVI asr o‘rtalariga kelib qirollik kollejida arab tilini o‘rganish yo‘lga qo‘yilgan.

Fransiyada Sharq qo‘lyozmalarini to‘plash va o‘rganish 1536-yilda Jan de la Foret boshchiligidagi fransuz elchilarining Konstantinopolga yuborilishi natijasida alohida bosqichga chiqqan. Mazkur diplomatik missiya tarkibida tarjimonlik vazifasini bajaragan Giyom Postelga qirollik kutubxonasi uchun qiziqarli qo‘lyozmalarni to‘plash vazifasi ham yuklatilgan. Fransuz sharqshunosi manbalarni izlash bilan birgalikda, Usmonlilar imperiyasidagi ijtimoiy hayotni o‘rgangan. Fransiyada katoliklar va protestantlar o‘rtasida kurash kechayotgan bir davrda Kichik Osiyoda nasroniylar, musulmonlar va yahudiylarning bir hukmronlik ostida, uyg‘unlikda, istiqomat qilayotganliklarini kuzatgan Giyom Postel qarashlarida “universalizm”* tushunchasi paydo bo‘lgan. Dastlab, XVI asrning birinchi yarmida mazkur g‘oya Fransiyada yuqori natijaga erishmagan

*Izoh: Franko–Usmonli ittifoqi – 1536-yilda Fransiya qiroli Frensis I hamda Usmonli imperiyasi sultoni Sulaymon I o‘rtasida tuzilgan bo‘lib, G‘arbiy Yevropa va Yaqin Sharq mintaqasida gabsburglar sulolasi boshqaruvini tugatish asosiy maqsad etib belgilangan. Mazkur ittifoq ikki yarim asr davom etgan bo‘lib, XIX asr boshlarida o‘z kuchini yo‘qotgan. Qarang: Mattingly G. Renaissance diplomacy. – Boston: Houghton Mifflin Company, 1955. – P. 179-180.

*Izoh: Universalizm – individualizmga qarama-qarshi bo‘lgan axloqiy dunyoqarash bo‘lib, olamni bir butun deb hisoblaydigan fikrlash shakli.

bo‘lsa-da, diniy urushlar davrida universalizm tushunchasini jamiyatga yetkazib berish olimlarning asosiy vazifalaridan biriga aylangan.

XVI asrning ikkinchi yarmiga kelib Fransiyada diniy urushlar* davrida universalizm tushunchasini jamoatchilikka yoyishda Jan Boden (1530-1596)ning xizmatlari katta. Fransuz huquqshunosi tomonidan 1576-yilda nashr etilgan “Respublikaning olti kitobi” [1] nomli asarida universalizm, suverentet, ommaviy huquq kabi masalalar yoritilgan. Mazkur asar Jan Boden olib borgan tadqiqotlarning eng yuqorisi hisoblanib, mamlakatda katta shon-shuhrat keltirgan. Tadqiqotning ikkinchi kitob V bobida Solon qonuni, Yuliy Sezar va Neron kabi Rim imperatorlari faoliyatida zolimlik masalasi, Gerkules afsonasining ahamiyati haqida mulohaza yuritish bilan birgalikda, Amir Temur va Sulton Boyazid munosabatlari haqida so‘z yuritilgan [1: 253-255]. Tadqiqotda Sohibqironning Usmonli turklarga nisbatan olib borgan siyosatini to‘g‘ri tahlil etish zarurligi, adolatni ta’minlash maqsadida Amir Temur tomonidan Usmonlilar saltanati harbiy qudratining sindirilishi, Konstantinopolning Sulton Boyazid bosqinchilik siyosatidan qutqarilishiga sabab bo‘lganligi ta’kidlanadi [1: 255]. Shuningdek, mazkur tadqiqotdan Amir Temurning hukmronligi ostida yashagan turli millatlarga nisbatan olib borgan diniy bag‘rikenglik siyosati masalasiga ham e’tibor qaratilgan.

XVI asrda sharqshunos Lui Le Rua (1510–1577) Fransiyada Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini keng tahlil etgan. Fransuz tarixshunosi tomonidan 1576-yilda chop etilgan “Olamdagi narsalarning turliligi va o‘zgaruvchanlik to‘g‘risida” [3] nomli asari, Fransiyadagi siyosiy, diniy inqirozlar yuz bergan davrda nashr etilganligini inobatga olsak, unda orientalist fransuz hukumati va xalqiga o‘tmishning bir nechta nomdor hukmdorlari faoliyatini qiyosiy o‘rgangan holda, mamlakat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan g‘oyalarni andoza sifatida qo‘llash mumkinligiga to‘xtalgan. Misol uchun muallif, XV asr tarixini talqin etishni Sohibqiron davrini yoritish bilan boshlash kerakligini ta’kidlagan [3: 97-a]. Asarda Nin, Sesostris*, Kir II, Doro I, Aleksandr Makedonskiy, Arshak, Gannibal, Yuliz Sezar, Konstantin, Atilla, Buyuk Karl kabi hukmdorlar boshqaruv tizimini yoritgan holda Amir Temur faoliyatini chuqurroq tadqiq etgan. Masalan, Sohibqironning “Yetti yillik” yurishlari dinamikasidan o‘rin olgan Misr uchun yurishni muallif, geografik jihatdan ham alohida o‘rgangan. Sohibqiron tomonidan Suriya hududlari zabt etilgach, to‘qnashuvda omon qolgan ko‘plab fuqarolar Shimoliy Afrika hududlariga qochganligi, biroq, Amir Temur Misr va Sudan hududlariga yurishni davom ettira olmaganligiga qumli cho‘llar va suv tanqisligi muammosi sabab bo‘lganligini ta’kidlaganligi e’tiborga molikdir [1: 97-a]. Muallif Amir Temur va Misr hukmdori o‘rtasida bo‘lib o‘tgan to‘qnashuv jarayonlariga to‘xtalmagan. Lui Le Rua uchun asosiy vazifa Sohibqironning Shimoliy Afrika hududlari tomon o‘z yurishini davom ettirmaganligi sababini o‘rganish, ijtimoiy-

*Izoh: 1562–1598-yillarda Fransiyada katoliklar va protestantlar o‘rtasidagi fuqarolar urushi. Qarang: Всемирная история. / Отв. Редакторы: Е.М.Жуков, Е.С.Варга, В.П.Волгин, М.Я.Гефтер. – Москва: Государственное издательство политической литературы, 1958. Т IV. – С. 225-229.

*Izoh: Sesostris – qadimgi Misrning afsonaviy shohlaridan biri. Qarang: Всемирная история. / Отв. ред.: С.Л.Утченко, Д.П. Каллистова, А.И. Павловский, В.В. Струве. – Москва: Государственное издательство политической литературы, 1956. Т II. – С. 195-196.

iqtisodiy holatlarni tahlil qilish edi. Bundan ko‘zlangan maqsad, Fransiyani Yaqin Sharq mintaqasi uchun bo‘lajak urushga tayyorlashda nazariy bilimlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etganligini taxmin qilish mumkin.

Shuningdek, Lui Le Rua tomonidan Amir Temur tarixini yoritishdan ko‘zlangan yana bir masala – XVI asrning ikkinchi yarmida Fransiyada davom etayotgan fuqarolar urushini to‘xtishda Sohibqironning diniy sohaga bo‘lgan munosabatni o‘rganish bo‘lgan. Unda muallif, Amir Temurning mazkur sohadagi ishtirokini moziyning buyuk hukmdorlari faoliyati bilan qiyosiy tahlil etgan holda o‘rganib, andoza sifatida jamiyatga qo‘llash mumkunligiga murojaat etgan deyish mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunga, muallifning: “Atilla diniy irodasi tufayli va Rim papasining iltimosiga ko‘ra, Rimga bormagan bo‘lsa, Amir Temur ham ibodatxonalarni buzilishiga yo‘l qo‘ymagani hamda Arabistonni payg‘ambari tug‘ilgan joy ekanligidan kelib chiqib u yerga hujum qilmaganligi” kabi fikrlarini misol qilib keltirish mumkin [3: 109-a].

XVI asrning so‘ngi yillarida Fransiyada temurshunoslik masalasiga xususan, Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini o‘rganishga alohida urg‘u berildi. Bunga birinchi navbatda uzoq yillardan buyon mamlakatda davom etayotgan diniy mojarolar asos bo‘lsa, Sharq mamlakatlarini egallashga bo‘lgan urinish muammoning ikkinchi sabablaridan biri bo‘lgan. Ayniqsa, fransuz zodagonlarining doimo qirol e’tiborida bo‘lishga intilishlari, Sharq masalasida, xususan, Yaqin Sharq masalasida ulkan bilimga ega bo‘lishlarini talab etardi. Shu tufaylik yuqori tabaqa vakillari o‘z oilasidan ayrim shaxslarni Yaqin Sharq mintaqasida joylashgan davlatlar faoliyati hamda tarixini o‘rganishga yuborishlari XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab avj ola boshlagan. Fransiyaning qudratli arxiyepiskopi oilasidan bo‘lgan, faoliyatining asosiy qismida bir nechta cherkovlar yepiskopi hamda qirol Genrix IV ning maslahatchilaridan biri bo‘lgan [10] Jan du Bek (1540–1610) ana shunday shaxslardan biri bo‘lgan. Fransuz yozuvchisi Yaqin Sharq mintaqasiga sayohati davomida Amir Temur tarixi arab tilida yoritilgan bir asarga duch kelgan [2: 2]. Biroq Jan du Bek arab tilini bilmasligi natijasida italyan tilidan xabardor mahalliy fuqaroga murojaat etgan va tarjimon mazkur asarni lotin tiliga qisman tarjima qilib bergan [2: 2]. So‘ng Jan du Bek tomonidan asar qayta tahrirlanib, 1595-yilda “Buyuk Tamerlanning tarixi” nomli tadqiqot sifatida nashr etilgan [2]. Ushbu tadqiqotning e’tiborli tomoni shundaki, Fransiya tarixida birinchi marta Amir Temur nomi ostida asarning nashr etilganligidir. Chunki, XVI asrga qadar faqatgina Sohibqiron faoliyati qamrab olingan alohida asar yozilmagan edi.

XULOSA

XVI asrda Fransiyada diniy urushlarning avj olishi hamda fransuz qirollarining mutlaq monarxiyaga intilishlari mamlakatda o‘tmishning buyuk hukmdorlari faoliyatini o‘rganish ehtiyojini keltirib chiqardi. Shu bois, fransuz sharqshunoslari asosiy e’tiborni Amir Temurning ma’rifatparvar monarx sifatidagi faoliyatini tadqiq etishga qaratdilar.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bodin I. Les Six livres de la République. – Paris: Chez Iacques du Puys, Libraire Iuré, à la Samaritaine, 1577. – 759 p
2. Du bec J. Histoire du grand Tamerlan. – 520 p.
3. Louis Le Roy. De la vicissitude ou variete des choses en l’unnivers, et concurrence des armes et des lettres par les premieres et plus illustres nations du monde, depuis le temps où àcommencé la ciuilité, & memoire humaine iusques à present. – Paris: Chez Pierre l’Huilier, rue S. Iacques à l’Oliuier, 1576 – 118 p
4. Mattingly G. Renaissance diplomacy. – Boston: Houghton Mifflin Company, 1955. – P. 179-180.
5. Всемирная история. / Отв. ред.: С.Л.Утченко, Д.П.Каллистова, А.И.Павловский, В.В.Струве. – Москва: Государственное издательство политической литературы, 1956. Т II. – С. 195-196.
6. Всемирная история. / Отв. Редакторы: Е.М.Жуков, Е.С.Варга, В.П.Волгин, М.Я.Гефтер. – Москва: Государственное издательство политической литературы, 1958. Т IV. – С. 225-229.
7. Расулова Д.Б. XVII – XX аср бошидаги француззабон тадқиқотларда Ўзбекистон тарихи масалалари: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. Самарқанд: СамДУ, 2019. – 155 б.
8. https://www.france.promotour.info/histoire/histoire-16.php
9. https://en.wikipedia.org/wiki/Francis_I_of_France
10. https://ru.frwiki.wiki/wiki/Jean_du_Bec-Crespin#Sources

Исраилов Н. Р.
Старший преподаватель кафедры «История Узбекистана»
Ферганский государственный университет
nodirtemur90@gmail.com

ИССЛЕДОВАНИЕ ЖИЗНИ И ГОСУДАРСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АМИРА ТЕМУРА В ТРУДАХ ФРАНЦУЗСКИХ ВОСТОКОВЕДОВ XVI ВЕКА

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются факторы, обусловившие изучение истории Амира Темура французскими востоковедами XVI века. В рассматриваемый период усиление династии Габсбургов в Германии создало серьёзную угрозу как для Франции, так и для Османской империи. В результате между двумя государствами были установлены дипломатические отношения. Французские дипломаты начали посещать Константинополь с 30-х годов XVI века. В ходе своих дипломатических миссий послы были поражены политикой религиозной терпимости, проводившейся в Османском государстве. Это объяснялось тем, что в самой Франции в то время религиозные конфликты достигли особой остроты. С целью прекращения противостояния между католиками и протестантами французское правительство поручило востоковедам изучить государственную деятельность великих правителей

прошлого, в частности Амира Темура. Политика толерантности, проводимая Сахибкираном, была проанализирована французскими ориенталистами в сравнении с деятельностью других правителей прошлого и получила отражение в их научных трудах.

Ключевые слова: Кир II, Дарий I, Александр Македонский, Юлий Цезарь, Нерон, Амир Темур, Султан Баязид I, Франциск I, Жан Боден, Луи Ле Руа, Коллеж де Франс, Франко-Османский союз, Жан де Ла Форе, универсализм.

Israilov N.R.
Senior lecturer at the department of «History of Uzbekistan»
Fergana State University
nodirtemur90@gmail.com

SOCIO-POLITICAL LIFE OF THE FERGANA VALLEY IN THE 17TH CENTURY AS REFLECTED IN HISTORICAL SOURCES

ABSTRACT

The article examines the factors that contributed to the study of Amir Temur's history by French Orientalists of the sixteenth century. During this period, the growing power of the Habsburg dynasty in Germany posed a serious threat to both France and the Ottoman Empire. As a result, diplomatic relations were established between the two states. French diplomats began visiting Constantinople in the 1530s. During their diplomatic missions, these envoys were impressed by the policy of religious tolerance practiced in the Ottoman state. This was particularly noteworthy because France was experiencing intense religious conflicts at the time. In an effort to put an end to the struggle between Catholics and Protestants, the French government encouraged Oriental scholars to study the statecraft and political activities of great rulers of the past, especially Amir Temur. The policy of tolerance pursued by Sahibqiran (Amir Temur) was analyzed by French Orientalists through a comparative study of other historical rulers, and the results of these investigations were reflected in their scholarly works.

Keywords: Cyrus II, Darius I, Alexander the Great, Julius Caesar, Nero, Amir Temur, Sultan Bayezid I, Francis I of France, Jean Bodin, Louis Le Roy, Collège de France, Franco–Ottoman Alliance, Jean de La Forêt, "universalism".

Kandaxarov A. X.
«O‘zbekiston tarixi» kafedrasi dotsenti, PhD
O’zbekiston Milliy universiteti
anvar0303_82@mail.ru

BUXORO XONLIGIDA JO‘YBOR XOJALARINING IQTISODIY QUDRATI: SHAKLLANISH OMILLARI VA IJTIMOIY-SIYOSIY TA’SIRI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XVI–XVIII asrlarda Buxoro xonligida Jo‘ybor xojalarining iqtisodiy qudrati shakllanishining asosiy omillari hamda uning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda «Matlab ut-tolibin», «Manoqibi Sa’diya», shayboniy va ashtarxoniy hukmdorlarining farmonlari hamda boshqa tarixiy manbalar asosida Jo‘ybor xojalarining yer-mulklari, vaqflari, savdo faoliyati, soliq imtiyozlari, suyurg‘ollari va davlat hokimiyati bilan munosabatlari yoritilgan. Shuningdek, ularning iqtisodiy imkoniyatlari siyosiy ta’sir doirasini kengaytirgani, mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash hamda hukmdorlar legitimligini mustahkamlashda muhim o‘rin tutgani asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Jo‘ybor xojalari, Buxoro xonligi, naqshbandiya, shayboniylar, ashtarxoniylar, iqtisodiy qudrat, vaqf, suyurg‘ol, yer-mulk, savdo, tasavvuf.

KIRISH

Naqshbandiya tariqati Xo‘ja Ahror faoliyati sabab XV-XVI asrlardan boshlab davlat mafkurasiga aylandi. O‘sha vaqtdan beri ko‘plab hukmdorlar nafaqat Naqshbandiya tariqatining, qolaversa, Yassaviya tariqatining ham izdoshlari bo‘lgan. Mohiyatan, barcha hukmdorlar, barcha davlat tuzilmalari davlat mafkurasi sifatida o‘zini muayyan so‘fiylik birodarligi, asosan, Naqshbandiya ta’limoti izdoshi deb tan olgan, chunki u eng ommabop va eng rivojlangan tariqat bo‘lgan. Bundan tashqari, uning mafkurasi davlat mafkurasiga juda mos kelgan, ya’ni bu mafkura mohiyatan davlat tuzilmasiga qo‘shilib ketgan va davlat mafkurasi sifatida tan olingan. Markaziy Osiyodagi ko‘plab davlat tuzilmalari hukmdorlari – xonlar Naqshbandiya tariqati izdoshlari bo‘lishgan [5].

XVI-XVIII asrlar ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-siyosiy hayotini Jo‘ybor xojalarisiz tasavvur qilish qiyin. Movarounnahrda hukmronlik qilgan ikki sulola – Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida bu xonadon vakillari mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdilar.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Jo‘ybor xojalari moddiy farovonligining asosiy manbalari avloddan-avlodga o‘tib boradigan merosiy mol-mulklar tashkil qilgan. Shuningdek, ular mol-mulkining asosiy manbasini xonlar, sultonlar va badavlat shaxslar tomonidan tortiq qilib turiladigan yer-suv va qimmatbaho hadyalar tashkil qilgan. Jumladan, biror-bir yirik voqea, masalan, yangi hukmdorning taxtga o‘tirishi yoki yangi yurtlar zabt etilganidan keyin amir va sultonlar bilan bir qatorda naqshbandiya-xojagon

tariqatining yo‘lboshchilari ham taqdirlanganlar. Abdullaxon 1552 yili shayboniy Qilich qora sultonni mag‘lubiyatga uchratib Nasafni egallaydi. O‘shanda mazkur viloyatdan xoja Muhammad Islomga Mudin qishlog‘i tortiq qilinadi [1; 27].

Shayboniylarning 1512 yili G‘ijduvonda Eron qizilboshlilari ustidan qozongan g‘alabasi munosabati bilan shayboniy Ubaydullaxon(1533-1539) xoja Muhammad Islomga Sumitonga tutash qishloqlardan 200 jufti gov (taxm. 1660 gektar) yer va o‘nlab qullarni tortiq qilgan. Abdullaxon 1584-1585 yillarda Badaxshon va Kulob uchun qattiq kurash olib boradi. G‘alabadan keyin xoja Sa’dga ko‘rsatgan xizmatlari uchun 1586 yilning 11 iyunida yuborgan maktubidan ma’lum bo‘lishicha, butun Badaxshonni tortiq qilgan. Jumladan bu haqda “Matlab ut-tolibin” da quyidagicha keltiriladi: “Sohibqiron Abdullox Bahodirxon (raximaxullox) Badaxshon viloyatini zabt etganida hazrat eshon (xoja Sa’d)ga maktub yullab tiladikim, agar sayr tariqasida ushbu viloyatga qadam ranjida qilsalar, dinu dunyoning sarafrozligiga bois bulurlar. Hazrat eshon oliynishon xonning xoxishiga kura, Badaxshon viloyatiga junadi. Mamlakatlarni zabt etuvchi podshox Badaxshon viloyatini hazrat eshonga niyoz kildi, biroq hazrat bu mulkdan ikki yuz jufti gov ekinzordan boshqa hech narsa olmadi”[2; 149.]. Badriddin Kashmiriy ma’lumotlariga qaraganda esa eshon har xolda anchagina yer-suv, ya’ni Badaxshondagi Arxang saroy viloyati va Ko‘lobdagi Vaxshni o‘z tasarrufiga kiritib olgan[1; 28.].

Jo‘ybor xojalarining mamlakatdagi nufuzi mislsiz tarzda oshishi, tabiiyki mamlakatdagi boshqa ruhoniylar, ayniqsa, boshqa tariqatga mansub shayxlarning obru-e’tibori va mavqeini ancha cheklagan. Xususan, Muxammad Tolib Jo‘ybor xojalariga raqib bo‘lgan shayxlar haqida kamroq yozsa-da, shunga qaramay, “Matlab ut-tolibin”da bu haqda ayrim ma’lumotlarni ham aytib o‘tadi. Masalan, Badaxshon zabt qilinmasidan oldin bu o‘lkada kubroviya tariqati pirlaridan shayx Xusayn Xorazmiyning halifalaridan biri shayx Halilullox degan ulamo yuqori mavqega ega bo‘lgan. Biroq Abdulloxxon bilan muloqot paytida u “sarkashligi” tufayli xonning g‘azabini qo‘zg‘atadi. Shunda Xoja Sa’d Abdullaxondan shafqat so‘rab, shayx Xalilulloxni barcha tobelari bilan Buxoroga yuborilishiga erishadi[2; 150.]. Tarixiy manbalarda va ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, XVIII asrlardan boshlab Buxorodagi tariqatlar o‘rtasida ba’zi ixtiloflar bo‘lganligi, bu ixtiloflar ayniqsa naqshbandiya va yassaviya tariqatlari o‘rtasida yaqqol ko‘zga tashlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, bu borada M.Ismoilovning tadqiqotlarida Xalifa Xudoydodning “Bahr ul-ulum” asari shu sababli yuzaga kelgan va unda Yassaviya tariqatining afzalliklari bayon etilganligini ta’kidlab o‘tadi [3; 11].

O‘z vaqtida Tojiddin Hasanning to‘ng‘ich o‘g‘li xoja Yusufga (1595-1632) ashtarxoniylardan Imomqulixon (1611-1642), Nodir Muhammadxon (1642-1645) va Abdulazizxon bir nechtadan qishloqlarni tortiq qilganlar. Jo‘ybor xojalarining hazinasiga tushadigan naqt pul, qimmatbaho buyumlar va boshqa mol-mulklarning hisobi bo‘lmagan [1; 28.].

“Matlab ut-Tolibin” da keltirilishicha, Jo‘ybor xojalariga nafaqat Movarounnahr va Xurosonda, balki boshqa ko‘plab mamlakatlarda ham yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatishib, turli-tuman qimmatbaho hadyalar tortiq qilib

turishgan. Xususan, XVII asrning 20-yillarida Imomqulixon va xoji Abdurahim oralariga sovuqchilik tushganligi sababli 1628 yilda Xoja Movarounnahrni tark etishga majbur bo‘ladi va hajga yo‘l oladi. Ammo yo‘lda avval Balx, so‘ngra Hindiston safariga chiqadi. Hind diyorida uni Boburiylardan Jahongir (1605-1627) katta hurmat va ehtirom bilan kutib oladi. Jo‘nab ketishi oldidan esa eshonga qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kamar va hanjar, qimmatbaho kiyim-kechak va 50 ming rupiya naqt pul in’om qiladi. Jahongirning rafiqasi Nurjahon begim, Osafxon va Abulhasan kabi oliy amaldorlarning har biri xojaga 10 ming rupiyadan naqt pul tortiq qilishiadi. Shuningdek, Qoshg‘ar, Eron va boshqa mamlakatlarning hukmdorlari ham jo‘yboriylarga katta-katta hadyalar yuborib turishgan. Masalan, 1563 yil Jo‘yborga Yorkand xoni Abdurashidxonning (1533-1567) elchisi qimmatbaho gazmollar, kiyim-kechak, noyob buyumlar va 20 ming tanga naqt pul bilan kelib xojalarning mulozimlariga topshirishgan [2; 92]. Xojalar Oyuqxon va Abdulkarimxon (1560-1591) kabi boshqa Qoshg‘ar xonlaridan ham qimmatbaho hadyalar olib turganlar.

Xonlar Jo‘ybor xojalarini yer-suv, naqd pul va qimmatbaho hadyalar bilan taqdirlash bilan chegaralanmasdan, ular bilan qavm-qarndoshlikka ham intilganlar. Xususan, Imomqulixon taxtga o‘tirgach, singlisini Tojiddin Hasanga turmushga beradi va unga suyurg‘ol sifatida Buxorodagi Pirmast, Hisordagi Denov hazoralarini, 20 ming xoniy naqd pul, bir ncha qator tuya va ot, farroshxona, bovurchixona (oshxona) va boshqa qimmatbaho buyumlar taqdim qiladi. Vali Muhammadning opasi Tojiddin Muhammadning ukasi Abdixojaning rafiqasi bo‘lgan. Abdixojaning o‘limidan (1607) so‘ng xon singlisini Abduraximxojaga, ya’ni Abdixojaning akasiga beradi. Ushanda Abdiraximxojaga suyurg‘ol sifatida bir necha qishloqlar beriladi. Abdulazizxon ham xojalar bilan qarindoshlik rishtalarini bog‘lagan. U qizini Yusufxojaning o‘g‘li Yoqubxojaga beradi hamda unga yillik daromadi 20 ming xoniy bo‘lgan Suyunchi qishlog‘ini suyurg‘ol qilib beradi [1; 29].

Movarounnahr va Xurosonning serunum yaylovlarida boqilib turgan behisob podalar va yer-suvlardan tashqari Jo‘ybor xojalari O‘rta Osiyoning katta shaharlarida joylashgan va o‘zlariga tegishli ko‘plab hunarmandchilik do‘konlari, savdo rastalari, timlar, tegirmonlar, hammom va karvonsaroylardan keladigan katta daromad hisobiga ham o‘z boyliklarini orttirib borganlar. Jo‘ybor xojalarining ta’sir doirasi mahalliy savdo-sotiq va hunarmandchilik korxonalari, iqtisodiyotning mazkur sohalariga bog‘liq bo‘lgan kishilarni o‘z ta’sir doirasiga olgan. Bundan tashqari, manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib aytganda, xojalar xalqaro savdo-sotiq ishlarida ham faol ishtirok etganlar. Xususan, ularning Jonmumuhammad va Yormuhammad singari maxsus vakillari bo‘lib, ular xoja Sa’d va xoja Tojiddin Hasanlarga qarashli savdo karvonlariga bosh bo‘lib, Qozon, Moskva, Bulg‘or kabi va boshqa Rossiyaning o‘lkalariga hamda Qoshg‘arga qatnaganlar. Shuningdek, katta shahar va qishloqlarda xojalarning maxsus vakillari bo‘lib, ular yangi yer-suv va boshqa mol-mulklar sotib olish bilan shug‘ullanganlar. Muhammad Tolibning ma’lumotlarida keltirilishicha, uning otasi Tojiddin Hasan o‘z sarkorlariga biror bir yerda yer-suv va mulkning sotilishidan behabar qolmasliklarini qattiq tayinlagan [2; 141].

Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Xoja Islomning nafaqat tariqat sohasida, balki, mamlakat tashqarisidagi xalqaro savdo-sotiq va hamkorlik ishlarida ham o‘ziga hos yuqori nufuzi bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “Manoqibi Sa’diya” asarida quyidagi voqea keltiriladi: “Janobi Mavlono Jonmuhammad tarxondan ushbu voqeani eshitganman. Uning akasi Mavlono Yormuhammad tarxon bunday degan ekan: “Kunlarning birida Onhazrat meni xizmat bilan Bulg‘or shahri tarafga borishga amr etdilar. Otlanib o‘sha tarafga ketdim va xizmatni bajo keltirdim. Zarurat yuzasidan ularning podshohlarini ko‘rish lozim edi. Ul zamonda bul viloyat hokimi o‘rus bo‘lub, kufr ahlidan edi. U o‘z tilida so‘radi: “Kimning odamisan va qaerdansan?” til biluvchilar va tilmochlar javob berib dedilarki, “Buxorodan va falon azizning odamlari”. U hazrat Eshonning nomlarini eshitgach, menga ta’zim qilib yuqoriga taklif qildi. Majlis tugagandan so‘ng u bir necha vazn baliq va bir qancha sotiladigan buyumlarni keltirishni tayinladi. O‘sha yerda bo‘lsak har kuni xonning oldida hozir bo‘lishimga hukm berdi. Men har kuni uning oldiga borardim, biz uchun qo‘y go‘shti yoki hamirdan tayyorlangan ovqat olib kelishardi. Ular yeydigan go‘sht halol emas edi. Qaytayotganimda u murojaat qilib Hazrat Eshon uchun sovg‘alar ulashdi va menga jo‘nashga ruxsat berdi” [4; 35].

Jo‘ybor xojalari o‘zlarining butun mamlakat bo‘ylab yoyilgan behisob yer-suv va mol-mulklarini ko‘plab o‘zlariga tegishli amaldorlar yordamida boshqargan. Xususan, “Matlab ut-tolibin”da keltirilishicha, ularning yer-mulklari sarkorlar tomonidan boshqarilgan va xojalarning o‘z shaxsiy devonlari, daftardorlari, ya’ni barcha mol-mulkni nazorat qilib turuvchi moliyaviy idoralari ham bo‘lib, bu idoralarda qirqdan ortiq mansabdorlar – qushbegi, miroxur, miri shikor, mushrif, qozi bakavul, hazinachi daftardor, mirzolar kabi va boshqa mansabdorlar faolit yuritgan [2; 142].

Jo‘ybor xojalari iqtisodiy qudratining ortishida yangi yer maydonlarini xo‘jalik aylanmasiga kiritish, ya’ni avval foydalanilmagan yerlarni o‘zlashtirish siyosati muhim omillardan biri bo‘lgan. Manbalarda qayd etilishicha, 1557–1579 yillar davomida mazkur maqsadni amalga oshirish doirasida Somonchuq, Ashpona, Sevinchi qalon kabi Buxoro atrofidagi qishloqlar, shuningdek, Chorjo‘y, Marv va Vaxsh hududlarida irrigatsiya inshootlari barpo etilgan, yangi kanallar qazilib, qishloq xo‘jaligi uchun yaroqli yer maydonlari kengaytirilgan. Abdulloxon II ga nisbat berilgan “Ravzat ar-rizvon” asarida keltirilgan farmonlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur jarayonlarda xojalar faoliyati markaziy hokimiyat va mahalliy boshqaruv vakillari tomonidan keng qo‘llab-quvvatlangan. Jumladan, “U (Alloh) biron-bir narsaga muhtoj emas. Abdulg‘ozi Abdullo Bahodirxon so‘zimiz. Hisor, Denov, Qubodiyon viloyatlarining arboblari, qalang‘orlari va raiyat, Shahri safoda istiqomat qiluvchi aymoqlar ushbu farmonni olish bilan, oliyhazrat Qutbiddin xoja Kalonxoja, ul zotning umri ziyon bo‘lsin, mulkida kanal qazilib, miroblik ajratilgan, uning vakillari hususan mazkur ishlarni, mazkur farmonni buzmasliklari va bu ishda biron-bir nuqsonga yo‘l qo‘ymasliklari zarur. 993-yil jumadi ul-avval oyida bitildi” [1; 31].

Davlat hokimiyatining bu kabi tashabbuslarga amaliy yordam ko‘rsatgani irrigatsiya va yer o‘zlashtirish ishlarining tizimli xarakter kasb etganidan dalolat beradi. Abdulloxon II ning 1585 yilda Hisor, Denov va Qubodiyon hokimlariga

yuborgan farmoni mazkur siyosatning amaliy ifodasi sifatida e’tirof etiladi. Jo‘ybor xojalari ko‘plab mol-mulklarga ega bo‘lishi va iqtisodiy qudratining oshishiga ularning turli soliqlar va majburiyatlardan ozod qilinishining ham ma’lum darajada ta’siri bo‘lgan. Ularga shayboniy va ashtarxoniylarning ko‘plab xukmdorlari farmonlari asosida berilgan imtiyozlarni misol qilib keltirish mumkin. Masalan, “U (Alloh) biron-bir narsaga muhtoj emas. Abulg‘ozi Abdulla Bahodirxon so‘zimiz. Ushbu xalqpanoh xonadoniga nasb qilingan barcha baxtu iqbol oliy hazratlarining (xoja Kalonning) ezgu niyatlari va madadlari tufayliga amalga oshdi. Shu farmon berilgani maqsad shulkim, shu ondan boshlab ma’lum bo‘ladiki, Marvi shijoixon viloyatida joylashgan mulk va suyurg‘ol tarkibidagi qishloqlar, naxrlar, ekinzorlar oliy darajali, ilohiyatan haqiqat yo‘li posbonlari qavmining sardori, ulug‘ valiylarning zurriyodi, din va oliyjanoblik mevasi, donishmandlarning istiqboliga yetkazuvchi xoja Kalonga merosiy mulkdir. Bizning ravshan fikrimiz ul oliy hazratlarining ekinzorlari va boshqa mulklari to‘g‘risida qayg‘urish bilan band ekan, buyuramizki, mazkur qishloqlar, naxrlar va ekinzorlarni ul oliy hazratlarining mulk va suyurg‘ollari deb e’lon qilib, molu jihot, muqarrar, ixrojot, mirobona, ko‘k, tarx, sobun va boshqa soliqlar borasida ul zotni bezovta qilmasinlar, undan biron narsa talab qilinmasin, ul hazratning mulklari merosiy deb tan olinib, uni darubast deb hisoblansin. Ul zotning yer-mulki qayta o‘lchanmasin va u qilingan boshqa biron-bir narsa talab qilinmasin. Hijriy 980 yil rabi’ II oyida bitildi. Kotib: xonadoni oliylari xonning sodiq xizmatkori va unga yaxshilik istovchi Haydar Muhammad munshiy, uni Ollohning o‘zi kechirsin” [1; 31].

Mazkur farmon mazmuni tahlili XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Buxoro xonligida tasavvuf vakillari, xususan Jo‘ybor xojalari iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotda yuqori mavqega ega bo‘lganini yaqqol namoyon etadi. Farmonda xoja Kalonga tegishli yer-mulklarning merosiy huquq asosida e’tirof etilishi, ularning davlat soliqlari va turli majburiyatlardan ozod qilinishi davlat hokimiyati tomonidan tasavvuf elitasiga berilgan keng imtiyozlarni ko‘rsatadi. Bu holat tasavvuf namoyandalarining faqat diniy sohada emas, balki iqtisodiy munosabatlarda ham mustaqil va ta’sirchan kuch sifatida shakllanganini anglatadi.

Farmonda mahalliy hokimlar, amirlar va mansabdorlarga xoja mulklariga daxl qilmaslik, raiyatlarni ko‘chirmaslik va qo‘shimcha talablar qo‘ymaslik haqida qat’iy ko‘rsatmalar berilgani markaziy hokimiyat tasavvuf vakillari manfaatlarini huquqiy jihatdan himoya qilganini ko‘rsatadi. Bu esa davlat va diniy elita o‘rtasida o‘zaro manfaatli munosabatlar shakllanganini, ya’ni tasavvuf namoyandalari hokimiyatning ma’naviy tayanchi sifatida e’tirof etilganini anglatadi. Shu bilan birga, farmonda xoja Kalon shaxsiga nisbatan yuqori ehtirom va ramziy ta’riflarning qo‘llanishi tasavvuf shayxlarining karizmatik nufuzi davlat siyosatida muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Bunday uslubdagi hujjatlar hukmdorning diniy legitimligini mustahkamlashga xizmat qilgan bo‘lib, siyosiy hokimiyatning ma’naviy asosini kuchaytirishga qaratilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda shayboniylar va ashtarxoniylar davrida mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida din ulamolarining o‘rni va nufuzi yuqori

darajaga ko‘tarilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu ayniqsa XVI asrning 50-60-yillarida Jo‘ybor xojalaning faoliyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu holat xojalar bilan Abdullaxon o‘rtasida o‘rnatilgan mustahkam munosabatlar natijasida Buxoro xonligidagi mavjud siyosiy vaziyatdan kelib chiqib amalga oshirilgan. Aks holda Abdullaxonning mamlakat barqarorlikni mustahkamlash va xonlik hududlarini kengaytirish uchun olib borgan kurashlarida ma’lum to‘siqlarga uchrab, harakatlari besamar ketishi ham mumkin edi. Jo‘ybor xojalarining ikki yirik vakili yordamida Abdullaxon o‘z siyosiy mavqeini mustahkamlashga muvaffaq bo‘ldi. Bu kurashlardan o‘z navbatida Jo‘ybor xojalarining ham manfaatlari bor edi. Chunki ularning butun mamlakat bo‘ylab joylashgan turli-tuman mol-mulklarining dahlsizligi ko‘p jihatdan Abdullaxon siyosatiga ham bog‘liq bo‘lib, bu mulklarning dahlsizligi hukmdor farmoni bilan qonuniylashtirilib olinardi.

Umuman olganda Juybor xojalari ma’lum davlat idora uslubiga o‘xshash boshqaruv idorasini tuzgan ediki, bu o‘z o‘rnida ularning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi kuch-qudrati va mavqeidan dalolat beradi. Zamona hukmdorlari esa ularning bu mavqelaridan o‘z siyosiy maqsadlari yo‘lida ham foydalanish, mamlakat va hokimiyat tayanchi sifatida ular bilan murosa qilishga majbur edilar.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. Toshkent, O‘qituvchi, 1994.
2. Muhammad Tolib ibn Tojiddin Hasanxoja al-Husayniy as-Siddiqiy. Matlab ut-Tolibin. O‘zbek tiliga tarjima va izohlar muallifi G‘ulom Karimiy va Erkin Mirkomilovlar. Toshkent, Movarounnahr, 2016.
3. Ismoilov M. Shayx Xudoydodning “Bahr al-ulum” asari Markaziy Osiyoda tasavvuf tarixiga oid muhim manba (XVIII asrning ikkinchi yarmi). Tarix fan.nom.diss...avtoref. – Toshkent, 2006.
4. Husayin as-Saraxsiy. Manoqibi Sa’diya. Xo‘ja Islom maqomotlari. Forschadan X.To‘raev tarjimasi. Buxoro, 2002.
5. Karimov E. Naqshbandiya tariqati. https://www.uzanalytics.com /tarix/10360/

Кандахаров А. Х.
PhD, доцент кафедры «История Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
anvar0303_82@mail.ru

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ МОГУЩЕСТВО ДЖУЙБАРСКИХ ХОДЖЕЙ В БУХАРСКОМ ХАНСТВЕ: ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ И ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются основные факторы формирования экономического могущества джуйбарских ходжей в XVI–XVIII веках и их влияние на общественно-политическую жизнь Бухарского ханства. На основе

исторических источников, включая «Матлаб ут-толибин», «Манокиб-и Са'дия», ханские грамоты и другие письменные материалы, проанализированы земельные владения, вакфное имущество, торговая деятельность, налоговые привилегии, сюргалы и взаимоотношения джуйбарских ходжей с государственной властью. Сделан вывод о том, что экономическая мощь джуйбарских ходжей способствовала расширению их политического влияния, укреплению социальной стабильности и легитимации власти правителей Бухарского ханства.

Ключевые слова: Джуйбарские ходжи, Бухарское ханство, Накшбандия, Шейбаниды, Аштарханиды, экономическое могущество, вакф, сюргал, земельные владения, торговля, суфизм.

Kandakharov A. Kh.
PhD, associate professor at the department of «History of Uzbekistan»
National University of Uzbekistan
anvar0303_82@mail.ru

THE ECONOMIC POWER OF THE JUYBAR KHWAJAS IN THE BUKHARA KHANATE: FACTORS OF FORMATION AND SOCIO-POLITICAL INFLUENCE

ABSTRACT

This article examines the main factors behind the formation of the economic power of the Juybar Khwajas in the sixteenth to eighteenth centuries and evaluates its impact on the socio-political life of the Bukhara Khanate. Drawing on historical sources, including Matlab al-Talibin, Manaqib-i Sa'diyya, royal decrees, and other documentary evidence, the study analyzes their landed properties, waqf endowments, commercial activities, tax privileges, suyurghal grants, and relations with the ruling elite. The findings demonstrate that the economic strength of the Juybar Khwajas significantly expanded their political influence, contributed to social stability, and reinforced the legitimacy of the khans' authority within the Bukhara Khanate.

Keywords: Juybar Khwajas, Bukhara Khanate, Naqshbandiyya, Shaybanids, Ashtarkhanids, economic power, waqf, suyurghal, landownership, trade, Sufism.

Mamajonov S. X.
«Harbiy ta’lim» fakulteti
maxsus tayyorgarlik sikli o‘quv dotsenti
Farg‘ona davlat universiteti
mamazonovsoibzon28@gmail.com

AMIR TEMUR VA TO‘XTAMISHXON MUNOSABATLARI YOZEF FON XAMMER-PURGSHTAL TALQINIDA

ANNOTATSIYA

Maqolada XIX asrda yashagan nemis tarixchisi Yozef fon Xammer-Purgshtalning “Qipchoqdagi Oltin O‘rda tarixi, ya’ni: Rossiyadagi mo‘g‘ullar” asarida Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasidagi munosabatlarning boshlanish va rivojlanish davriga oid qayd etgan ma’lumotlari tadqiq etilgan. Shuningdek, nemis sharqshunosi tomonidan ikki hukmdor o‘rtasida sodir bo‘lgan “Qunduzcha jangi” bo‘yicha bildirgan munosabati temuriylar davri manbalar orqali tahlil etilgan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil va muammoviy xronologik metodlaridan foydalanilgan. Nemis orientalisti tomonidan Sohibqiron tashqi siyosatida Oltin O‘rda davlatining tutgan o‘rni va ro‘li masalasida bildirgan fikrlar manbalar asosida tadqiq etilib, xato va kamchiliklari yuzasidan mulohaza yuritilgan. Yozef Xammer tomonidan Amir Temurning “Qunduzcha jangi” mobaynidagi faoliyati to‘liq yoritilmaganligi manbalardagi ma’lumotlar orqali to‘xtalib o‘tilgan.

***Kalit so‘zlar*:** Amir Temur, To‘xtamishxon, Umarshayx Mirzo, Nizomiddin Shomiy, Ahmad Ibn Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy, Muiniddin Natanziy, Xondamir, Yozef Xammer, Oq O‘rda, Oltin O‘rda, “Dasht yurishi”, “Qunduzcha jangi”.

KIRISH

Amir Temur tarixini o‘rganishda Avstriya sharqshunoslik ilmiy maktabi jahonda o‘z o‘rniga egadir. Ayniqsa mazkur davlatda XIX asrdan boshlab Sharq tarixini o‘rganishga va sharqshunos olimlarning yetishib chiqishi yangi boshqichga chiqdi. Ana shunday sharqshunoslardan biri Yozef fon Xammer-Purgshtal (1774–1856) bo‘lib, sharq tarixiga oid ko‘plab asarlar yaratgan va tarjima qilgan [3; 1]. Orientalist “Qipchoqdagi Oltin O‘rda tarixi, ya’ni: Rossiyadagi mo‘g‘ullar” [2] nomli asarida, Chingizxon, Hulaguxon Chig‘atoyxon, kabi hukmdorlar qatorida Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasidagi munosabatlarga ham to‘xtalib o‘tgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Tadqiqotning sakkinchi kitob XXIX paragrafida To‘xtamishxon va Amir Temur munosabatlarning ilk ko‘rinishiga urg‘u berilgan. Jetaga beshinchi yurish bilan band bo‘lgan Amir Temur Oq O‘rda shaxzodasini kutib olish uchun Temurbek o‘zbekni yubordi va o‘zi ortga qaytib, huzuriga olib kelingan To‘xtamishxonni yuksak izzat-ikrom va cheksiz ehtirom bilan kutib oldi [2:331]. Amir Temur O‘rusxon va uning o‘g‘illari bilan bo‘lgan janglarda To‘xtamishxon bir necha martoba qo‘llab-quvvatlab unga katta qo‘shin berdi. Biroq mazkur

to‘qnashuvlarning barchasida To‘xtamishxon mag‘lubiyatga uchragan [2:331-333]. Darhaqiqat, Amir Temur huzuriga bo‘lajak Oltin O‘rda hukmdori 1376-yilda qochib kelgan bo‘lib, Sohibqiron To‘xtamishxonni Oq O‘rda yetakchilariga qarshi olib borgan barcha janglariga homiylik qilgan. Ikki hukmdor o‘rtasidagi munosabatlarning boshlanish davrini Yozef Xammer temuriylar davri manbalaridagi ma’lumotlarga monand yoritgani diqqatga sazovordir [5:106; 8:85]. Mazkur asarining XXXI paragrafida esa nemis sharqshunosi, To‘xtamishxonning mag‘lubiyatlari Amir Temurni tashvishga solib qo‘yganligini ta’kidlab, quydagi fikrlarni bildirgan. “To‘xtamish O‘rusxon va uning o‘g‘illari tomonidan shunchalik ko‘p marta mag‘lubiyatga uchraganki, uning himoyachisi Temur deb yozadi, – Yozef Xammer – To‘xtamish Qipchoqdagi taxtga loyiqmi-yo‘qmi**,** degan savolni o‘zi oldida qo‘yishi tabiiy edi. Shu sababli Temur, o‘ziga katta ishonch bildirgan O‘zbek Timur bilan maslahatlashdi. O‘zbek Timur avval O‘rusxon bilan birinchi jangda asir olinib, undan keyin Temur Malik huzuriga kelib afv etilgan va keyinchalik Temurga qochib kelgan edi [2:331-333]. Darhaqiqat O‘rung Temur nomi bilan qayd etilgan Oq O‘rdalik amirning Amir Temur huzuriga qochib kelganligi manbalarda bayon etilgan [5:103-106; 8:82-84; 4:194-198; 6:99-100; 7:89-92]. Sohibqiron O‘rung Temurdan Oq O‘rda xoni Temur Malikning salbiy jihatlari avj olganligini eshitgach, darhol To‘xtamishxonga yurish qilishni buyurgan. Voqealarni ijobiy tahlil qilgan Yozef Xammer, Amir Temurning To‘xtamishxonga nisbatan munosabatining burulish nuqtasi haqidagi vaziyatga to‘g‘ri baxo bergani diqqatga sazovordir.

Yozef Xammer mazkur asarining “To‘xtamish” nomli XXXIII paragrafida Sohibqironning Oltin O‘rda hukmdori bilan olib borgan kurashlarini yoritgan. Nemis orientalistining ta’kidlashicha, Oltin O‘rda hukmdorining 1389-yildagi Movarounnahrga qilgan hujumi bartaraf qilgan Amir Temur Sirdaryo bo‘yida raqib hujumlarini kutmay, dushmanni o‘z hududida izlab topish va g‘alabali lashkari bilan Qipchoqqa bostirib kirishni reja qilganligini bayon qiladi [2:343]. Shu tufayli Sohibqiron 1391-yilning 19-yanvarida Toshkendan “Dasht yurishi”ga yo‘lga chiqqan. Qorasomon mavzeiga 21-fevralda yetib kelgan Amir Temurning huzuriga To‘xtamishxon elchilari tashrif buyurishgan. Temur nutqida deb yozadi, – Yozef Xammer – elchilarga ularning xo‘jayinining nosho‘krligini ro‘kach qildi: u (Amir Temur – ta’kid bizniki, S.M) O‘rusxonga qarshi uni (To‘xtamishxon – ta’kid bizniki, S.M) himoya qilganini, Qipchoq taxtiga o‘tqazganini, ammo u esa o‘z homiysining uzoq yurishlarda yo‘qligidan foydalanib, xiyonatkorona tarzda uning yurtiga bostirib kirganini aytdi. Agar uning tavbasi va kechirim so‘rashi chin bo‘lsa, u holda vaziri Alibekni yuborsin, toki u lashkardagi ulug‘ amirlar bilan muzokara olib borsin, dedi. Elchilarni sovg‘alar bilan siylab yuborildi, yaxshi muomalada bo‘lindi, biroq bir vaqtning o‘zida diqqat bilan kuzatib borildi [2:345-346]. Sohibqironning “Dasht yurishi” boshlanishi davrida ikki hukmdor o‘rtasida sodir bo‘lgan voqealarni yoritishda manbalardagi ma’lumotlarni tahlil etib, o‘zining ijobiy munosabatini bildirgan Yozef Xammerning mazkur mulohazasi ilmiy jihatdan yuqori ahamiyatga egadir [5:157-158; 8:130-131; 4:147; 6:114; 7:127-128]. Nemis sharqshunosi “Dasht yurishi”ning tafsilotlari haqida o‘z so‘zini davom ettirib, 1391-yilning 21-fevralida Amir Temur qo‘shinlar Yassi, Qorajuq,

Sabron yo‘nalishida yo‘lga chiqqanligini ta’kidlagan. Sariq o‘zan, Ulug‘ tog‘ hududlarini bosib o‘tilgach, Amir Temur lashkari Tobol daryosi bo‘yiga yetib kelishgan. Yozef Xammerning ta’kidlashicha, mazkur daryodan kechib o‘tish mumkin bo‘lgan joylar dushman tomonidan buzib tashlangach, Sohibqiron o‘z askalariga daryoni shox-shabbalar bilan to‘ldirishni buyurgan [2:346-348]. Shu tariqa Turon lashkari o‘z yurishini davom ettirgan.

Shuningdek, Yozef Xammer Amir Temurning “Dasht yurishi” haqidagi o‘z mulohazasini davom ettirib, ikki tomon o‘rtasidagi yakunda sodir bolgan “Qunduzcha jangi” to‘g‘risida ham so‘z yuritgan. Nemis sharqshunosining fikricha, ushbu jangda To‘xtamishxonning qo‘shin soni Amir Temurning lashkari soniga nisbatan ko‘p bo‘lgan. Shu bois, o‘z qo‘shini ruhiyatini ko‘tarish maqsadida Sohibqiron bir tadbir uyushtirgan. Dushmanlarining ko‘z o‘ngida ulardan qo‘rqmasligini ko‘rsatish maqsadida Amir Temur o‘z asklariga chodirlarni tiklashni buyurgan. So‘ngra namoz o‘qib, sodir bo‘lajak to‘qnashuv uchun Allohdan madad so‘ragan. Mazkur vaziyatni ko‘rgan To‘xtamishxon va uning lashkari taajjublanishgan [2:351]. Darhaqiqat, temuriylar davri manbalarida Oltin O‘rda hukmdorining askalari soni juda ko‘p bo‘lganligi bayon etilgan. Ushbu jarayon yuzasidan muarrix Sharafiddin Ali Yazdiy quydagi ma’lumotlarni ham yozib qoldirgan. “Dashtdagi muholiflardan ancha cherik ettikim, oqillar aning xisobidan ojiz edilar” [8:138]. Shuningdek, Yozef Xammerning jangdan avval Sohibqiron raqibiga psixologik bosim qilganligi to‘g‘risidagi mulohazasi manbalardagi ma’lumotlar asosida qayd etilgan [5:165; 8:130-131; 7:135-136]. “Qunduzcha jangi” jarayonlari yuzasidan o‘z fikrini davom ettirgan nemis sharqshunosi, ushbu to‘qnashuv boshlanishidan avval, besh kun davomida muttasil kuchli yomg‘ir yog‘ganligi, bu esa ikki tomon askalarining jangni boshlashiga to‘sqinlik qilganligini ta’kidlaydi. So‘ngra bulutlar tarqab, to‘qnashuv vaqti kelganida Sohibqrion birinchi marta o‘z qoshinining besh bo‘linma tuzilishini yetti bo‘linmaga o‘zgartirdi, To‘xtamishxon esa o‘z lashkarini uch qismga bo‘lib yarim oy ko‘rinishida joylashtirgan [2:351]. Yozef Xammerning mazkur mulohazidan shuni ta’kidlash mumkinki, ob-havo sabab to‘qnashuvning kechikishi Sohibqironning manfaatiga hizmat qilgan. Ushbu vaziyatda vaqtdan unumli foydalangan Amir Temur To‘xtamishxon lashkarining joylashish tartibi haqidagi ma’lumotlarni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘lgan. Shu tufayli, Sohibqironni jang boshlanishidan biroz avval o‘zining harbiy taktikasini o‘zgartigan deb aytish mumkin. To‘xtamishxon ham to‘qnashuvga qadar Amir Temur o‘z lashkarini uch qismga bo‘lgan tarzda jangga kirishiga ishongan. Bizningcha, To‘xtamishxon Sohibqironning mazkur rejasidan xabardor bo‘lganda shunga munosib tayyorgarlik qilishi mumkin edi. Biroq, besh kun yoqqan kuchli yomg‘ir raqibini yakson qilish uchun Amir Temurga yetali bo‘lib, ushbu harbiy rejasi tufayli g‘alabaga erishishga muvaffaq bo‘lgan. Garchi Yozef Xammer jang tafsilotlarini aynan biz tahlil qilgan ko‘lamda bayon qilmagan bo‘lsa-da, Sohibqironning “Qunduzcha janggi” uchun tuzgan rejasi bo‘yicha bugungi kun uchun ilmiy ahamiyati yuqori mulohazalarni bildirgani muhimdir.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, Yozef Xammerning ushbu asarida Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasidagi munosabatlarning boshlanish va rivojlanish bosqichlari uchun ilmiy ahamiyati yuqori fikrlar o‘rin olgan. Ayniqsa, Amir Temur tomonidan Oq O‘rda shaxzodasining qo‘llab quvvatlashiga oid muhim fikrlarni ta’kidlagani XIX asr temurshunosligi uchun ulkan yutuqdir. Shuningdek, nemis sharqshunosi Amir Temurning “Dasht yurishi”ni boshlanishiga oid mulohazalari va mazkur yurishning tafsilotlarini haqidagi fikrlari ham temuriylar davri manbalaridagi ma’lumotlar asosida bayon qiliganligi ham e’tiborga molikdir. Yozef Xammer Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasidagi munosabatlaridagi eng asosiy to‘qnashuvlaridan biri bo‘lgan “Qunduzcha jangi” haqida so‘z yuritib, mazkur jangning boshlanishiga oid ijobiy ma’lumotlarni qayd etgan. Biroq nemis sharqshunosi, “Qunduzcha jangi”ning borishi va yakuni haqida asosiy ma’lumotlarni bayon etmagan. Garchi Yozef Xammer “Qunduzcha jangi”ni batafsil yoritmagan bo‘lsa-da, mazkur to‘qnashuv uchun Sohibqiron tomonidan qo‘llanilgan qo‘shinni “Yetti qism”ga bo‘lib hujum qilish taktikasini g‘alabaning kaliti bo‘lganligini ta’kidlagani XIX asr temurshunoslik davri uchum muhim yangiliklaridan biri bo‘lgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Geschichte der Ilchane, das ist der Mongolen in Persien: Band 1. – Darmstadt, druck und verlag von Carl Wilhkim Leske, 1842. – 435 p.

2. Xammer J. Geschichte der Golden Horde in Kiptschak das ist: der mongolen in Russland. – Pesth, C. A. Hartleben’s Verlag, 1840. – 683 p.

3. Xammer J. Geschichte des osmanischen Reiches:größtentheils aus bisher unbenützten Handschriften und Archiven. Von der Gründung des Osmanischen Reiches bis zur Eroberung Constantinopels, 1300 - 1453: Mit einer Karte. – Perth, Conrad Adolph Hartleben’s Verlag, 1834; 10 vol; Constantinopolis und der Bosporos, örtlich und geschichtlich beschrieben. – Pesth, Hartleben’s Verlag, 1822. – 626 p.

4. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи – Ғулом Каримий – Тошкент: Ўзбекистон. 2011. – 264 б.

5. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи – Ю.Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А.Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ.Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О.Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О.Бўриев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 528 б.

6. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / Пер. предис. примеч. и указатели Д.Ю.Юсуповой. – Ташкент: Фан, 1980. – 346 с.

7. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазраткулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Тошкент: Ўзбекистон. 2013. – 1272 б.

8. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Ҳ.Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б.

Мамаджонов С. Х.
Доцент учебного цикла
специальной подготовки «Военного факультета»
Ферганский государственный университет
mamazonovsoibzon28@gmail.com

ОТНОШЕНИЯ АМИРА ТЕМУРА И ТОХТАМЫШХАНА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЙОЗЕФА ФОН ХАММЕРА-ПУРГШТАЛЯ

АННОТАЦИЯ

В статье исследованы сведения, приведённые немецким историком XIX века Йозефом фон Хаммером-Пургшталем в его труде «История Золотой Орды в Кипчаке, или: Монголы в России», касающиеся периода начала и развития взаимоотношений между Амиром Темуром и Тохтамыш-ханом. Кроме того, проанализирована позиция немецкого востоковеда по вопросу «Кундузчинской битвы», произошедшей между двумя правителями, на основе источников эпохи Темуридов. В исследовании использованы методы сравнительного анализа и проблемно-хронологический метод. На основе источников изучены взгляды немецкого ориенталиста на место и роль государства Золотой Орды во внешней политике Сахибкирана, а также рассмотрены его ошибки и недостатки. Отмечается, что Йозеф Хаммер неполно осветил деятельность Амира Темура во время «Кундузчинской битвы», что было рассмотрено с опорой на сведения исторических источников.

Ключевые слова: Амир Темур, Тохтамыш-хан, Умаршейх Мирза, Низамуддин Шами, Ахмад Ибн Арабшах, Шарафиддин Али Язди, Муинуддин Натанзи, Хандамир, Йозеф Хаммер, Белая Орда, Золотая Орда «Степной поход», «Битва при Кундузе».

Mamajonov S. Kh.
Associate professor at the Special Training Cycle
«Faculty of Military Education»
Fergana State University
mamazonovsoibzon28@gmail.com

THE RELATIONS BETWEEN AMIR TEMUR AND TOKHTAMYSHKHAN IN THE INTERPRETATION OF JOSEPH VON HAMMER-PURGSTALL

ABSTRACT

The article examines the information recorded by the German historian of the 19th century, Joseph von Hammer-Purgstall, in his work "The History of the Golden Horde in Kipchak, or: The Mongols in Russia" concerning the period of the beginning and development of relations between Amir Temur and Tokhtamysh Khan. Furthermore, the German orientalist's views on the "Battle of Qunduzcha," which took place between the two rulers, are analyzed based on sources from the Timurid period. The study employs comparative analysis and problem-chronological methods. The opinions expressed by the German orientalist regarding the place and role of the Golden Horde state in Sahibqiran's foreign policy are examined on the basis of historical sources, and his errors and shortcomings are discussed. The article also highlights, through information from historical sources, that Joseph Hammer did not fully cover Amir Temur's activities during the "Battle of Qunduzcha".

Keywords: Amir Temur, Tokhtamysh Khan, Umarshaykh Mirza, Nizamuddin Shami, Ahmad Ibn Arabshah, Sharafiddin Ali Yazdi, Muinuddin Natanzi, Khandamir, Joseph Hammer, White Horde, Golden Horde, "The Steppe Campaign", "Battle of Kunduzcha".

Mahkamova Z. M.
«Arxivshunoslik va manbashunoslik» kafedrasi tadqiqotchisi
O‘zbekiston Milliy Universiteti
zulkhumor0101@gmail.com

TURKISTON ASSRNING SOLIQ SIYOSATI TARIXIDA KADRLAR TARKIBINING AKS ETISHI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Turkiston ASSR davrida soliq siyosatini amalga oshirishda faoliyat yuritgan soliq organlari kadrlar tarkibining tarixiy jihatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan.Tadqiqot natijasida Turkiston ASSRda soliq siyosatini amalga oshirishda kadrlar tarkibi muhim omil bo‘lgani, soliq organlari faoliyatining samaradorligi xodimlarning kasbiy tayyorgarligi va tarkibiy xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq ekani arxiv materiallari asosida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Turkiston ASSR, soliq siyosati, kadrlar tarkibi, soliq organlari, moliya xalq komissarligi, mahalliy kadrlar, arxiv hujjatlari, sovet boshqaruvi.

KIRISH

Turkiston ASSR davrida amalga oshirilgan soliq siyosati sovet davlat boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning amaliy natijalari ko‘p jihatdan soliq organlarida faoliyat yuritgan kadrlarning tarkibi va malakasiga bog‘liq bo‘lgan. Biroq bugungi kunga qadar mazkur davr soliq siyosati asosan iqtisodiy va huquqiy jihatlardan o‘rganilgan bo‘lsa-da, uni amalga oshirgan kadrlar tarkibi, ularning milliy, ijtimoiy va kasbiy xususiyatlari hamda soliq tizimidagi o‘rni yetarli darajada tadqiq etilmagan.

O‘zbekiston Milliy arxivi fondlarida saqlanayotgan hujjatlar ushbu masalani yangi manbalar asosida yoritish, soliq organlarining shakllanishi, kadrlar siyosati va mahalliy mutaxassislarni jalb etish jarayonini ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Shu sababli Turkiston ASSR soliq organlari kadrlar tarkibini arxiv manbalari asosida o‘rganish nafaqat sovet davri soliq siyosati tarixini yanada chuqurroq ochib berishga, balki davlat boshqaruvi va moliya tizimi tarixiga oid ilmiy tadqiqotlarni yangi ma’lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik va xolislik tamoyillariga tayanildi. Mavzuni yoritishda O‘zbekiston Milliy arxivi fondlarida saqlanayotgan arxiv hujjatlari, me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda tarixiy manbalarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy, tizimli tahlil, manbashunoslik va statistik tahlil metodlari qo‘llanildi. Mazkur metodlar Turkiston ASSR soliq organlari kadrlarining soni, milliy va ijtimoiy tarkibi, kasbiy tayyorgarligi hamda ularning soliq siyosatini amalga oshirishdagi o‘rnini kompleks ravishda o‘rganish imkonini berdi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Turkiston ASSR Moliya xalq komissarligida 3 ta boshqarmadan iborat bo‘lib, shulardan biri soliq boshqarmasi hisoblandi. Komissarlikda umumiy 321 ta xodim faoliyat yuritib, undan 32 tasi aynan soliq boshqarmasida ishlagan[1], xodimlarning 10 foizga yaqini shu boshqarmaga tegishli bo‘lgan. Xodimlar sonining nisbatan kamligi Turkiston ASSR davrida soliq tizimi hali shakllanish bosqichida bo‘lganini, mavjud kadrlar esa keng hududda soliq siyosatini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi.

Soliq boshqarmasi Moliya xalq komissarligi tarkibida bo‘lib, soliq boshqarmasida turli lavozimlardagi kadrlar faoliyat yuritib, soliq boshqarmasi to‘rtta asosiy bo‘limdan tashkil topgan: bular davlat daromadlar, bevosita soliq, bilvosita soliq va devonxona bo‘limlari tashkil etgan. Bu bo‘limlardagi lavozim va shtatlarga quyidagicha tashkil qiladi, boshqarma boshlig‘i - 1 ta, bevosita soliqlar bo‘lim boshlig‘i -1 ta, bo‘lim boshlig‘i - 2 ta, nazoratchi - 3 ta, tekshiruvchi - 1 ta, ya’ni umumiy 9 ta mutaxasis, devonxona tarkibida - 1 ta kotib, 1 ta jurnalist, 1 ta mashinnist - umumiy 3 ta xodim faoliyat olib borgan. Bundan ko‘rinib turibtiki, soliq boshqarmasida umumiy 22 xodim ishlagan[2]. Turkiston ASSR davrida soliq boshqarmasining tashkiliy tuzilmasi nisbatan ixcham, ammo aniq vazifalar taqsimoti asosida shakllantirilgani ko‘rinadi. Boshqarma tarkibida rahbarlik, nazorat va tekshiruv bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar hamda hujjatlar bilan ishlovchi devonxona xodimlari bo‘lib, ularning har biri soliq siyosatini amaliyotga joriy etishda muhim vazifani bajargan.

Soliq boshqarmasida jami 22 nafar xodim faoliyat yuritganligi o‘sha davr sharoitida soliq tizimi hali to‘liq kengayib ulgurmaganini, biroq davlat budjetini shakllantirish va moliyaviy siyosatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan asosiy boshqaruv apparati mavjud bo‘lganini anglatadi. Turkiston ASSRda soliq tizimining bosqichma-bosqich shakllanib, keyinchalik yanada takomillashib borganidan dalolat beradi.

Turkiston Avtanom Sovet Sotsialistik Respublikasida 1920-yillarda markaziy soliq boshqarmasining boshlig‘i sifatida V.N.Petlin, markaziy soliq boshqarmasining boshlig‘i o‘rinbosari sifatida A.A.Frey, bevosita soliq boshqarmasi boshlig‘i – V.I.Galavanov, bilvosita soliq bo‘limi boshlig‘i – P.N.Danilov, taftish bilvosita soliq – V.I. Yankovskiylar faoliyat olib brogan[3]. Mazkur lavozimlar va ularda faoliyat yuritgan shaxslar Turkiston ASSRda soliq tizimining markazlashgan holda boshqarilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, soliq boshqarmasida bevosita va bilvosita soliqlar bo‘yicha alohida bo‘limlarning mavjudligi o‘sha davrda soliq siyosati murakkab va ko‘p yo‘nalishli tizim sifatida shakllanganidan dalolat beradi. Bu esa davlat budjetini shakllantirish, iqtisodiy jarayonlarni nazorat qilish hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Turkiston ASSRda 6 oylik moliyaviy kursalar tashkil qilinadi. Bu kurslarda umumiy 100 ta talabgor qabul qilingan va 1923-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra qabul qilinganlarning 90 nafari mahalliy aholi vakillaridan iborat bo‘lgan. Shu yilda davlat tomonidan kurs uchun 58.706 rubl miqdorida mablag‘ ajratilgan.

Natijada, ushbu moliya kurslari orqali Turkiston ASSR moliya va soliq tizimi uchun zarur bo‘lgan mahalliy mutaxassislar tayyorlanib, davlat boshqaruvi apparatining kadrlar bilan ta’minlanishiga muhim hissa qo‘shilgan. Bu jarayon o‘z navbatida soliq siyosatini samarali amalga oshirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish hamda davlat budjetini shakllantirish tizimini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan.

Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, kursning oltinchi oyida mutaxassislik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilgan. Bu esa o‘quv jarayoni faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmaganini, balki amaliy tajriba bilan ham mustahkamlanganini ko‘rsatadi. Kurslarning asosan avgust-yanvar oylarida tashkil etilgani esa ta’lim jarayoni aniq reja asosida olib borilganini va qisqa muddat ichida soliq organlari uchun zarur bo‘lgan kadrlarni tayyorlashga qaratilganini anglatadi. Ya’ni bir yilda ikki marta kurslar kadrlar yetishmasligini bartaraf etish maqsad qilingan.

Natijada, ushbu kurslar orqali Turkiston ASSRda moliya va soliq tizimi uchun zarur bo‘lgan mahalliy mutaxassislar tayyorlanib, davlat boshqaruvi organlarining kadrlar bilan ta’minlanishiga muhim hissa qo‘shilgan. Bu jarayon soliq siyosatini amalga oshirish samaradorligini oshirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish hamda davlat budjetini shakllantirish va tizimni yanada mustahkamlashgan. Turkiston ASSRda tashkil etilgan moliyaviy kurslar puxta tartibga solingan va aniq talablar asosida olib borilganini ko‘rsatadi. Kursda o‘qish istagida bo‘lgan nomzodlar avvalo maxsus anketa to‘ldirishlari talab etilgan bo‘lib, ushbu anketa 34 banddan iborat bo‘lgan. Bu esa kursga qabul qilinayotgan shaxslar haqida batafsil ma’lumot yig‘ish, ularning ijtimoiy kelib chiqishi, saviyasi va tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida amalga oshirilganini anglatadi. Shunday tartib orqali kursga eng munosib nomzodlarni tanlab olishga e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, moliya kurslari asosiy uch yo‘nalish bo‘yicha tashkil etilgan bo‘lib, ular moliya, bank va sug‘urta yo‘nalishlaridan iborat bo‘lgan. Bu yo‘nalishlar o‘sha davr moliya tizimining muhim tarmoqlarini qamrab olgan bo‘lib, kursantlar ushbu sohalar bo‘yicha maxsus bilim va ko‘nikmalarni egallaganlar.

Natijada, bunday keng qamrovli o‘quv dasturi orqali Turkiston ASSR moliya tizimi uchun har tomonlama tayyorlangan mutaxassislar shakllantirilgan. Bu esa soliq va moliya organlarida ishlovchi kadrlarning bilim darajasini oshirish, moliyaviy boshqaruvni samarali tashkil etish hamda davlat budjeti tizimini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Arxiv hujjatlarining ma’lumotiga ko‘ra, moliyaviy kursalarda ko‘plab yo‘nalishlar mavjud bo‘lgan ya’ni turli xildagi Mana shu o‘quv kurslari haqida Arxiv hujjatlarida qator ma’lumotlar uchraydi. Ya’ni soliq kurslarini tamomlashda bitiruvchilarga maxsus sinov tashkil etilgan. Ular soliq sohasidagi lavozimlarni egallashga tayyor bo‘lib chiqqanlar. 1922-yillarda bu kursni bor yo‘g‘i 27 nafar kursant tamomlagan. Soliq boshqarmasi bergan ma’lumotlarga ko‘ra, bu bitiruvchilar kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondira olmagan. Shu yilda bilvosita soli bo‘limi uchun taftish-inspektor, uchta moliyaviy agent va bir nechta ish

yurituvchilar ishga joylanadi [4]. Bu ko‘rsatkich o‘sha davrda moliya va soliq organlari uchun zarur bo‘lgan kadrlar soniga nisbatan juda kam bo‘lgan.

Bazi holatlarda soliq boshqarmasida ham turli qisqartirishlar amalga oshirilgan. Misol uchun 1921-yil 19-sentyabrda ham mana shunday qisqartirish bo‘lib o‘tdi [5]. Bu holat o‘sha davrda soliq organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar ko‘payib borayotgani va mavjud xodimlar soni ularni to‘liq bajarish uchun yetarli bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Yangi lavozimlar joriy etish orqali soliq yig‘imlarini nazorat qilish, tekshiruv ishlarini kuchaytirish hamda hududiy soliq organlari faoliyatini yanada samarali tashkil etish maqsad qilingan. Bu jarayonlar Turkiston ASSRda soliq boshqarmasi faoliyati doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqilib, mavjud sharoit va ehtiyojlardan kelib chiqib takomillashtirib borilganini ko‘rsatadi. Bir tomondan yangi lavozimlar joriy etish orqali soliq tizimining imkoniyatlari kengaytirilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ayrim qisqartirishlar orqali boshqaruv tizimini ixchamlashtirishga harakat qilingan. Bu esa soliq boshqarmasi faoliyati o‘sha davr iqtisodiy va ma’muriy sharoitlariga mos ravishda shakllanganini anglatadi.

Soliq organlarida ishlovchi xodimlarga yiliga bir marta kiyim bosh ham taqdim etilgan. Arxiv hujjatlarida xodimlarga yiliga bir juft etik, bosh kiyim, qo‘lqop, brezent plash, shuba, valenok berilganligi aytib o‘tilgan[6]. Bu tadbir xodimlarga davlat tomonidan moddiy rag‘batlantirish sifatida xizmat qilgan.

Arxiv fondlarini kuzatish chog‘ida ba’zi bayonnomalarda ham keltiriladi. Ulardan biri 1923-yilda tuzilgan, Turk respublikadagi to‘g‘ri va egri soliqlar bo‘limlari hodmlarini mukofotlash to‘g‘risidagi hisoblanadi. Unga ko‘ra soliq boshqarmasi xodimlarining asosan faolligiga e’tibor qaratilganligi ko‘rsatiladi. Ya’ni, arxiv hujjatlarida hududlar kesimida tahlil qilinganda, Turkmaniston uchun 8 ta mukofot puli ajratilgani, lekin 5 tasi loyiq deb topilgani, Samarqand viloyatiga 12 ta ajratilib, 9 ta xodim mukofotlangani, Yettikent viloyatidan esa 8 ta ajratilib 6 tasi turli toifadagi mukofotlar bilan taqdirlangani qayd etiladi [7]. Arxiv hujjatlari va bayonnomalardan kelib chiqib, Turkiston ASSR soliq tizimida xodimlarni mukofotlash tizimi nafaqat rag‘batlantirish, balki boshqaruv samaradorligini oshirish, soliq yig‘imlarini sifatli tashkil etish va xodimlarning mas’uliyatini mustahkamlashga qaratilganini ko‘rsatadi. 1923-yildagi bayonnomaga ko‘ra, soliq boshqarmasi xodimlarini faollik, ish sifatiga, soliq yig‘imlarini to‘g‘ri amalga oshirish va ma’muriy vazifalarni bajarish darajasiga qarab turli kategoriyalarda mukofotlagan. Bu jarayon hududiy viloyatlar kesimida amalga oshirilgan bo‘lib, har bir viloyatdagi faol xodimlar aniq belgilangan mezonlar asosida taqdirlangan.

Turkmaniston viloyatida 8 ta mukofot ajratilgan bo‘lsa, shundan 5 tasi haqiqatan loyiq deb topilgan; Samarqand viloyatida 12 ta mukofot ajratilib, 9 nafar xodim turli kategoriyalarda taqdirlangan; Yettikent viloyatida 8 ta mukofotdan 6 tasi haqiqiy faol xodimlarga berilgan. Shu bilan birga, Amudaryo, Yettisuv, Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlarida ham xodimlar turli kategoriyalar bilan mukofotlangan. Turli kategoriyalar (1-y, 2-y, 3-y) bilan mukofotlash xodimlar ishining darajasini aniq belgilab, eng faol va samarali xodimlarni ajratishga imkon bergan.

Soliq boshqarmasi xodimlarini mukofotlash tizimi ham aniq tartibda tashkil etilgan. 1923-yilgi bayonnomalarga ko‘ra, xodimlarning faolligi va ish samaradorligi hududiy va kategoriyaga ajratilgan mukofotlar orqali rag‘batlantirilgan. Bu tizim xodimlarning mas’uliyatini oshirish, soliq yig‘imlarining sifatini nazorat qilish va moliya boshqaruvining samaradorligini kuchaytirish maqsadida ishlatilgan.

XULOSA

Turkiston ASSR moliya tizimi uchun asosiy masala kadrlar tayyorlash, xodimlarni rag‘batlantirish, nazorat va boshqaruv tizimini shakllantirish bo‘yicha tizimli choralar amalga oshirilgan davr bo‘lgan. Arxiv hujjatlari shuni ko‘rsatadiki, bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ma’muriy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shunday qilib, Turkiston ASSRda soliq boshqarmasi faoliyati davlat moliya siyosatini amaliyotga tatbiq etish, kadrlar bilan ta’minlash va hududiy nazoratni kuchaytirishda muhim rol o‘ynagan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zMA, R-37-fond, 1-ro‘yxat, 1648-yig‘majild, 41-varaq.
2. O‘zMA, R-37-fond, 1-ro‘yxat, 410-yig‘majild, 26-varaq.
3. O‘zMA, R-37-fond, 1-ro‘yxat, 381-yig‘majild, 26-varaq.
4. O‘zMA, R-37-fond, 1-ro‘yxat, 967-yig‘majild, 42-varaq.
5. O‘zMA, R-37-fond, 1-ro‘yxat, 915-yig‘majild, 54-varaq.
6. O‘ZMA, R-37-fond, 1-ro‘yxat, 795-yig’majild, 40-varaq.
7. O‘zMA, R-37-fond, 1-ro‘yxat, 915-ro‘yxat, 38-40-varaq.

Mahkamova Z. M.
Researcher at the department of «Archival and source studies»
National university of Uzbekistan
zulkhumor0101@gmail.com

THE REFLECTION OF PERSONNEL COMPOSITION IN THE HISTORY OF TAX POLICY OF THE TURKESTAN ASSR

ABSTRACT

This article is devoted to the analysis of the historical aspects of the personnel composition of the tax authorities responsible for implementing tax policy during the period of the Turkestan Autonomous Soviet Socialist Republic (Turkestan ASSR). Based on archival materials, the study demonstrates that the personnel composition was one of the key factors influencing the implementation of tax policy in the Turkestan ASSR, while the effectiveness of the tax authorities was directly dependent on the professional qualifications of their employees and the structural characteristics of the personnel.

Keywords: Turkestan ASSR, tax policy, personnel structure, tax authorities, People's Commissariat of Finance, local personnel, archival documents, Soviet administration, tax administration.

Махкамова З. М.
Исследователь кафедры «Архивоведения и источниковедения»
Национальный университет Узбекистана
zulkhumor0101@gmail.com

ОТРАЖЕНИЕ КАДРОВОГО СОСТАВА В ИСТОРИИ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРКЕСТАНСКОЙ АССР

АННОТАЦИЯ

Настоящая статья посвящена анализу исторических аспектов кадрового состава налоговых органов, осуществлявших реализацию налоговой политики в период Туркестанской АССР. По результатам исследования на основе архивных материалов обосновано, что кадровый состав являлся одним из ключевых факторов реализации налоговой политики в Туркестанской АССР, а эффективность деятельности налоговых органов находилась в непосредственной зависимости от профессиональной подготовки работников и особенностей их кадрового состава.

Ключевые слова: Туркестанская АССР, налоговая политика, кадровый состав, налоговые органы, Народный комиссариат финансов, местные кадры, архивные документы, советское управление, налоговое администрирование.

Mirzayeva Z. X.
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
akademik litseyi o‘qituvchisi
szrim1985@gmail.com

KO‘RGAZMA ORTIDAGI IMPERIYA: KAUFMAN DAVRIDA TURKISTONDA MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATINING NAMOYON BO‘LISHI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada K.P. fon Kaufman boshqaruvi davrida Turkiston general-gubernatorligida tashkil etilgan ko‘rgazma va yarmarkalar faoliyati Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Toshkent yarmarkasini ma’muriy yo‘l bilan tashkil etishga qaratilgan urinishlar hamda 1872-yilgi Moskva Politexnika ko‘rgazmasida Turkiston bo‘limining tashkil etilishi tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, maqolada Kaufman ma’muriyati tomonidan yaratilgan ilmiy va ko‘rgazma infratuzilmasi keyinchalik Turkistonda ko‘rgazma faoliyatining shakllanishiga zamin yaratgani ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Turkiston general-gubernatorligi, K.P. fon Kaufman, ko‘rgazmalar, yarmarkalar, Moskva Politexnika ko‘rgazmasi, Toshkent yarmarkasi, Rossiya imperiyasi, mustamlakachilik siyosati, iqtisodiy o‘zlashtirish, imperiyachilik mafkurasi.

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmida dunyoning yetakchi imperiyalari uchun ko‘rgazma va yarmarkalar nafaqat iqtisodiy taraqqiyot yutuqlarini namoyish etish, balki bosib olingan hududlarning tabiiy boyliklari, xo‘jalik salohiyati va madaniy xususiyatlarini imperiya manfaatlari nuqtai nazaridan talqin qilishga xizmat qiluvchi muhim siyosiy vositaga aylandi. Rossiya imperiyasi ham Turkistonni o‘z mustamlakachilik siyosatining muhim obyekti sifatida aynan ana shunday namoyish maydonlari orqali imperiya jamoatchiligiga taqdim etdi. Kaufman davrida tashkil etilgan ko‘rgazma va yarmarkalar o‘lkani iqtisodiy jihatdan o‘zlashtirish, uning resurslarini tizimli ravishda o‘rganish va metropoliya bozoriga yo‘naltirish bilan birga, Turkiston haqidagi imperiyaviy tasavvurni shakllantirish vazifasini ham bajardi. Binobarin, Kaufman davridagi ko‘rgazma va yarmarkalar tarixini o‘rganish ularning faqat iqtisodiy hayotdagi o‘rninigina aniqlab qolmaydi, balki imperiyaning Turkiston o‘lkasini o‘zlashtirish, uning resurslarini namoyish etish va mustamlakachilik siyosatini asoslashga xizmat qilgan murakkab siyosiy mexanizm sifatidagi mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Kaufman ma’muriyatining turli ko‘rgazmalarni tashkil etishga oid siyosati metropoliyaga yo‘naltirilgan loyihalar bilan cheklanmay, o‘lkaning o‘zida ham

keng axborot-ilmiy infratuzilmani vujudga keltirdi. 1870-yilda general-gubernator tashabbusi bilan Turkistonda ilk gazetalar rus tilidagi “Туркестанские ведомости” va mahalliy tilda “Turkiston viloyatining gazeti” nashr etila boshlandi. Uning dastlabki sonlaridan boshlab rasmiy xabarlardan tashqari, o‘lka tarixi, tabiati va madaniyatiga oid ko‘plab ilmiy va o‘lkashunoslik materiallari ham e’lon qilib borildi [1]. Bundan tashqari, 1868-yil 22-yanvarda Turkiston statistika qo‘mitasi tashkil etilib, u orqali o‘lka aholisi, xo‘jaligi va tabiiy resurslari haqidagi ma’lumotlarni muntazam to‘plab borish yo‘lga qo‘yildi.

1876-yilda Toshkentda Markaziy Osiyodagi birinchi muzeyning ochilishi Kaufman ma’muriyati tomonidan shakllantirilgan namoyish siyosatining mantiqiy davomi bo‘ldi. Agar 1872-yilgi Moskva Politexnika ko‘rgazmasida Turkiston imperiya markazida namoyish etilgan bo‘lsa, Toshkent muzeyi o‘lkaning tabiiy, iqtisodiy va madaniy salohiyatini mahalliy sharoitda tizimli ravishda namoyish etishga xizmat qiluvchi muassasa sifatida maydonga chiqdi.

A.I. Dobrosmislovning ma’lumotlariga ko‘ra, general-gubernatorning zimmasidagi eng muhim vazifalardan biri Turkistonda, xususan Toshkentda savdoni rivojlantirish edi. 1868-yil 16-mayda general-gubernatorning topshirig‘iga binoan shahar boshlig‘i tomonidan 19-maydan boshlab eski shaharning mahalliy qismidagi bozorni yopish va uning o‘rniga shaharning yangi, yevropacha qismida ikkita yarmarka ochish to‘g‘risida farmoyish berildi [2]. 1869-yilda polkovnik A.I. Gluxovskiy raisligida Yarmarka qo‘mitasi tashkil etildi. Mazkur chora Kaufman ma’muriyatining savdo faoliyatini an’anaviy bozor tizimidan ma’muriy jihatdan boshqariladigan yarmarka tizimiga yo‘naltirishga qaratilgan dastlabki urinishlaridan biri bo‘ldi.

Yangi yarmarka to‘liq davlat mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilib, uning yillik xarajati 14 500 rublni tashkil etgan. 1870–1879-yillar mobaynida yarmarkalar uchun davlat g‘aznasidan jami 509 793 rubl sarflangan bo‘lib, shundan 134 558 rubl yarmarka ma’muriyatini saqlashga, 33 677 rubl yarmarka uchun yer sotib olishga, 219 673 rubl yarmarka binolarini qurishga, 62 450 rubl shosse yo‘llari va ko‘priklar qurishga, 25 694 rubl binolar hamda shosselarni ta’mirlashga, 33 738 rubl esa turli boshqa ehtiyojlarga yo‘naltirildi [2]. Aslida, 1870-yilda birja binosi uchun qurilgan inshoot hech qachon o‘zining bevosita vazifasi bo‘yicha ishlatilmadi. U uzoq vaqt shahar teatri sifatida xizmat qildi, 1908-yilda esa vabo bilan kasallanganlar joylashtiriladigan binoga aylantirildi, keyinchalik esa shahar kasalxonasining yuqumli kasalliklar bo‘limi sifatida ham foydalanildi. Bu holat barpo etilgan infratuzilmani aniq ma’muriy rejadan kelib chiqqanligini ko‘rsatadi.

Ma’muriyat savdogarlarni jalb etish uchun soliq imtiyozlaridan ham foydalandi. Fon Kaufman yarmarka savdosini rivojlantirish maqsadida mahalliy va xorijiy savdogarlarni yarmarka davrida zakot solig‘idan ozod qildi va natijada g‘azna faqat 1871–1872-yillarda 100 ming rubl daromaddan mahrum bo‘ldi. Dastlabki loyihaga ko‘ra yiliga ikki marta – bahorgi va kuzgi yarmarkalar o‘tkazilishi mo‘ljallangan edi, biroq birinchi bahorgi yarmarkaga hech kim kelmagani sababli faqat kuzgi yarmarka bilan cheklanishga to‘g‘ri keldi. Birinchi kuzgi yarmarka yakunidayoq qo‘mita uning ham ommalashmasligiga amin bo‘ldi

va 1870-yil noyabrida o‘lka boshlig‘idan eski shahar savdogarlarini o‘z tovarlarini yarmarkaga majburiy ravishda olib kelishga majbur etish uchun ruxsat so‘radi. Ammo bu chora ham kutilgan natijani bermadi va yarmarka rivojlanmadi [2].

Yarmarkaning amaldagi ahvoli bilan rasmiy hisobotlar o‘rtasida jiddiy tafovut mavjud edi. Qo‘mita yuqori idoralarga yarmarkadagi savdo aylanmasi millionlab rubllarni tashkil etgani, tovarlarning kirib kelishi va olib chiqilishi nihoyatda katta bo‘lgani haqida hisobotlar taqdim etib bordi; ayrim yillarda yarmarkaga keltirilgan tovarlar qiymati 10 million rubldan ortiq deb ko‘rsatilgan. Holbuki, yarmarka binolari va savdo joylarini ijaraga berishdan g‘aznaga tushgan daromad dastlabki to‘rt yil davomida o‘rtacha yiliga atigi 2258 rublni, 1873-yilda esa 1717 rublni tashkil etgan. Yarmarkaning o‘tkazilish muddati ham har yili o‘zgartirib turilgan: 1870-yilda u 15-oktabrdan 12-noyabrgacha, 1871-yilda 16-oktabrdan 1-noyabrgacha, 1872-yilda esa 1-oktabrdan 1-noyabrgacha davom etgan [2]. Bu raqamlar hisobotlardagi millionlik aylanma bilan real moliyaviy natija o‘rtasidagi nomutanosiblikni yaqqol namoyon etadi.

1875-yil 1-yanvardan boshlab zakot solig‘i bekor qilinib, uning o‘rniga savdo guvohnomalari uchun yig‘im joriy etildi. Mahalliy savdogarlarning yarmarkaga majburan jalb etilayotganidan norozi bo‘lishidan cho‘chigan Yarmarka qo‘mitasi o‘lka boshlig‘i oldiga yarmarka ishtirokchilarini ushbu yangi soliqdan ozod etish to‘g‘risida iltimosnoma bilan chiqdi. General-gubernator bunday chorani mustaqil ravishda qo‘llashga jur’at etmay, masala yuzasidan G‘azna palatasi bilan yozishmalar olib bordi. G‘azna palatasi javobida mazkur soliqni bekor qilish qonunga zid ekanini ta’kidladi hamda savdogarlarni yarmarkaga majburan jalb etish masalasida o‘z nuqtayi nazarini quyidagicha bayon qildi: yarmarka va bozorlarga borishni istamagan shaxslarni bunga majburlab bo‘lmaydi, chunki Rossiyada savdo va sanoat erkin tabaqalarga mansub barcha shaxslar uchun erkin hisoblanadi, krepostnoy mehnat esa 1861-yil 19-fevraldagi Manifest bilan bekor qilingan [2]. Ushbu yozishmalar natijasida K.P. fon Kaufman 1876-yil 9-avgustda mahalliy savdogarlarning yangi shahardagi bozor va yarmarkalarda majburiy ishtirok etishi haqidagi tartibni bekor qildi.

Kaufman ma’muriyatining ko‘rgazma sohasidagi eng yirik amaliy tashabbusi 1872-yilda Moskvada o‘tkazilgan Politexnika ko‘rgazmasida (Политехническая выставка) Turkiston bo‘limining tashkil etilishi bo‘ldi. Ko‘rgazma Moskvada 1872-yil 30-may (11-iyun) dan 1 (13)-sentyabrgacha, Pyotr I tavalludining 200 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazildi. Bunda asosiy e’tibor imperiyaning sanoat, qishloq xo‘jaligi, harbiy hamda ilmiy-texnikaviy yutuqlarini namoyish etishga qaratildi [3]. Ko‘rgazma tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiyani sevuvchilar jamiyati tashabbusi bilan uyushtirilib, uning tarkibida yigirmadan ortiq bo‘lim faoliyat ko‘rsatdi. Turkiston bo‘limi ana shu bo‘limlar orasida alohida ajralib turdi.

Tadbir Kreml yaqinidagi Aleksandr bog‘i, Kreml qirg‘og‘i va boshqa hududlarda barpo etilgan saksondan ortiq vaqtinchalik pavilonlarni qamrab oldi. Unda 12 mingdan ortiq ishtirokchi, jumladan Avstriya-Vengriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa davlatlardan qariyb ikki ming vakil qatnashdi. Ko‘rgazma faoliyatini ta’minlash uchun maxsus bosmaxona tashkil etildi, kundalik

axborot gazetasi nashr qilindi hamda pavilonlarni yoritish maqsadida alohida gaz zavodi qurildi. Tadbir Romanovlar sulolasi vakillari homiyligida o‘tkazildi.

Muhim jihat shundaki, Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman 1871-yil kuzida ko‘rgazma qo‘mitasining faxriy a’zolaridan biri bo‘lishga taklif etildi. Bu unvon ko‘rgazmaga moliyaviy yoki ma’muriy ko‘mak bergan shaxslarga berilardi. Aynan general-gubernatorning faol qo‘llab-quvvatlashi tufayli 1872-yil martda Birinchi Kreml bog‘ida Turkiston kolleksiyalari uchun maxsus payvilyon qurilishi boshlandi [4]. Bu holat o‘lka mahsulotlarining metropoliya namoyishiga chiqarilishi general-gubernatorlik ma’muriyatining ongli va rejali siyosati mahsuli bo‘lganini yaqqol ko‘rsatadi. Turkiston bo‘limi ekspozitsiyasining asosini aynan Fedchenko ekspeditsiyalarida to‘plangan tabiiy-tarixiy va xo‘jalik kolleksiyalari tashkil etdi [4]. Bu esa ilmiy tadqiqot bilan ko‘rgazma amaliyoti o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni tasdiqlaydi.

Ushbu ko‘rgazma katta muvaffaqiyat qozonib, uni 750 ming kishi tomosha qildi. Bu 1870-yilgi Butunrossiya ko‘rgazmasiga tashrif buyurganlar sonidan ikki baravar ko‘p edi. Imperator Erkin iqtisodiy jamiyatida faoliyat yuritgan tabiatshunos va ipakchilik mutaxassisi V. Iversen tabiiy fanlar va tarix bo‘limlari orasida Kavkaz hamda Turkiston bo‘limlari tashrif buyuruvchilarda eng katta taassurot qoldirganini qayd etadi [5].

Turkiston bo‘limi payvilyoni ko‘rgazmaning me’moriy jihatdan eng e’tiborli inshootlaridan biri Sherdor madrasasining 2,5 barobar kichraytirilgan nusxasi bo‘ldi. Uning dizayni rassom D. Ivanov chizmalari asosida sharqona uslubda, ochiq-ko‘k va qizil ranglarda bezatilgan [6]. Bu o‘lkani “ekzotik”, “sharqona” va imperiyaning boshqa hududlaridan ajralib turadigan makon sifatida taqdim etish orqali unga nisbatan alohida qiziqish uyg‘otish ko‘zda tutilgan.

Pavilyonda Turkistonning tabiiy boyliklari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va hunarmandchilik namunalari keng namoyish etildi. Ekspozitsiyadan gilamlar, milliy matolar, jonli ipak qurtlari bilan birga pillachilik mahsulotlari, Turkiston asalarilari va asal namunalari, shuningdek Qizilqum, gilli cho‘l, daryo bo‘ylari, madaniy hududlar, tog‘ va bog‘ mintaqalariga oid o‘simliklardan tuzilgan gerbariylar o‘rin oldi. Bundan tashqari pavilyon yaqinida o‘rnatilgan qozoq kigiz uyi (kibitka) va boshqa etnografik buyumlar esa mahalliy aholining turmush tarzini aks ettiruvchi ekspozitsiyaning tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qilgan.

M.X. Zakirova 1872-yilgi Moskva Politexnika ko‘rgazmasidagi Turkiston bo‘limini o‘lka mahsulotini imperiya namoyishlariga chiqarishning ilk tajribasi sifatida talqin qilib, uni o‘lkaga rus kapitali kirib kelishiga turtki bergan muhim omil deb baholaydi [7]. Ya’ni ko‘rgazma-namoyish faoliyati boshidanoq o‘lkaning iqtisodiy “o‘zlashtirilishi” bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Umuman olganda, XIX asr ikkinchi yarmida butunjahon ko‘rgazmalari va yarmarkalari imperiyalar o‘z mustamlakalarini namoyish etish maydoniga aylangan edi. Bu jarayonni P. Grinhalg o‘zining ko‘rgazmalar tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotida batafsil ko‘rsatib bergan [8]. Rossiyaning Turkistonni namoyish etishi ham ana shu umumjahon miqyosidagi amaliyotning bir qismi edi.

1872-yilgi ko‘rgazmaning ahamiyati uning bir martalik tadbir bo‘lib qolmaganida yanada yaqqol namoyon bo‘ldi. Ko‘rgazma yopilgach, uning

eksponatlari Moskvadagi Amaliy bilimlar muzeyi (hozirgi Politexnika muzeyi) va Tarixiy muzeyning asosini tashkil etdi. Turkiston bo‘limi muzey tarkibida doimiy bo‘lim sifatida saqlanib qoldi va taxminan 1901-yilgacha faoliyat ko‘rsatdi [4]. Muzeyning Turkiston bo‘limi vaqt o‘tishi bilan yangi eksponatlar hisobiga boyib bordi. U 1876-yilda bevosita Kaufman tomonidan taqdim etilgan materiallar, 1879-yilda esa Markaziy Osiyodan keltirilgan yangi ashyolar bilan to‘ldirildi.

Turkiston kolleksiyalarining xalqaro ko‘rgazmalarga chiqarilishi o‘lkaning imperiya doirasidan tashqaridagi e’tiborga ham sazovor bo‘lganini ko‘rsatadi. 1873-yilda muzey Turkiston bo‘limining kolleksiyalari Vena Butunjahon ko‘rgazmasida, 1874-yilda esa pillachilik va asalarichilik bo‘yicha kolleksiyalar Londonda namoyish etildi [6]. Ayni shu yillarda, 1873-yilda Londonda, 1874-yilda esa Peterburg va Moskvada Vereshchaginning “Turkiston turkumi” ham keng jamoatchilikka taqdim etilgan edi. Bu holat XIX asr oxirida kuchaygan imperiyalararo raqobat sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. O‘lka boyligini xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish etish orqali Rossiya o‘zining mustamlakachilik salohiyatini boshqa Yevropa davlatlariga ko‘rsatishga intilgan.

Kaufman davridagi ko‘rgazma tashabbuslarining talqini zamonaviy tarixshunoslikda bir qancha yondashuvlar doirasida munozara qilinadi. Sovet davri tarixshunosligida bu tadbirlar asosan o‘lkaning imperiya iqtisodiy tizimiga tortilishi nuqtai nazaridan baholangan bo‘lsa, g‘arb tadqiqotlarida ular o‘lka qiyofasining shakllanishi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Jumladan, S. Gorshenina va S.Abashin tadqiqotlarida ko‘tarilgan “Rossiya Turkistoni boshqa mustamlakalarga o‘xshash oddiy mustamlaka bo‘lganmi yoki o‘ziga xos hodisami?” degan savol bu munozaraning markazida turadi [9]. Turkiston misolida ko‘rgazma amaliyotining o‘ziga xosligi shundaki, u imperiya markazi bilan chekka o‘lka o‘rtasidagi murakkab munosabatni aks ettirgan. Rossiya imperiyasining hududiy tutashligi, harbiy boshqaruv tartibi va “ichki mustamlaka” xarakteri bu amaliyotga alohida tus bergan.

XULOSA

Mazkur maqolada Qo‘qon xonligida aholini ommaviy ishlarga jalb etilishi masalasining tarixshunoslikdagi yoritilishi tahlil etiladi. Maqolada xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, soliq tizimi va mehnat majburiyatlariga oid ilmiy adabiyotlar hamda tarixiy manbalar o‘rganilib, A. Juvonmardiyev, R. Nabiyev, H. Bobobekov va boshqa olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada aholini sug‘orish inshootlari qurilishi, obodonchilik, mudofaa va xo‘jalik ishlariga jalb etish shakllari, mehnat majburiyatlarining “hashar”, “mardikor solig‘i”, “jamarg‘ayi yurtiya” kabi ko‘rinishlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, tarixshunoslik, ommaviy mehnat, hashar, mehnat majburiyati, soliq tizimi, sug‘orish inshootlari, aholi safarbarligi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, obodonchilik ishlari.

KIRISH

Qo‘qon xonligida sug‘orish inshootlari, mudofaa obyektlari, yo‘llar va jamoat binolarini barpo etish hamda ta’mirlash ishlari ko‘pincha aholini ommaviy mehnatga safarbar etish orqali amalga oshirilgan. Bu jarayonlar xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va davlat boshqaruvi tizimi bilan chambarchas bog‘liq edi. Mavjud tadqiqotlarda yer-suv munosabatlari, soliq siyosati va sug‘orish tizimi masalalari yoritilgan bo‘lsa-da, aholini ommaviy ishlarga safarbar qilish amaliyotining tarixshunoslikdagi talqini alohida tadqiq etilmagan. Mazkur maqolada ushbu masalaning tarixshunoslikda yoritilishi tahlil qilinib, ilmiy adabiyotlar va manbalardagi yondashuvlar qiyosiy asosda baholanadi.

Aholini ommaviy mehnatga safarbar etish masalasi maxsus tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, uning ayrim jihatlari A.O‘rinboyev, A.Juvonmardiyev, R.N.Nabiyev va H.N. Bobobekov asarlarida uchraydi. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va tarixshunoslik tahlili metodlaridan foydalanildi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Qo‘qon xonligida davlat daromadlarining asosiy qismini turli soliqlar va majburiy yig‘imlar tashkil etgan. Soliq tizimi xonlikning iqtisodiy hayoti, davlat boshqaruvi va moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Mavjud soliqlar joriy etilish xususiyatiga koʻra shariat asosidagi soliqlar, rasmiy soliqlar, anʼanaviy soliqlar hamda favqulodda joriy etilgan soliqlarga boʻlingan. Shariat qonunlariga muvofiq undirilgan asosiy soliqlar xiroj, ushr va zakotdan iborat boʻlgan.

Soliqlardan tashqari aholi majburiy ravishda turli ishlarga – kanallar qazish, ariqlarni tozalash, obodonchilik ishlari, turli qurilishlarga, ayniqsa, hukmron tabaqalarning xizmatlariga jalb etilgan. Xonlikda mavjud boʻlgan mehnat majburiyatlari masalasini alohida oʻrganish Qoʻqon xonligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotining baʼzi jihatlarini tushunishga yordam beradi, deb hisoblaymiz. turli mehnat majburiyatlari ham mavjud boʻlib, ular koʻproq suv inshootlari qurilishida va bahor oylarida obodonchilik ishlarida keng qoʻllanilgan. Manbalarda mehnat majburiyatlari turli nomlar bilan atalganligini koʻrish mukin. Soliqlardan ozod etish haqidagi yorliqlarda «jamargʻayi yurtiya» nomi qayd etiladi. Sharqshunos A.Juvonmardiyev uni aynan ishlab berish majburiyati ekanligini koʻrsatib oʻtadi[1. – B. 65.].

Muarrix Muhammad Aziz Margʻiloniy esa Ulugʻnahr kanalini qazishdagi mehnat majburiyatini «mardikor soligʻi» deb yozadi[8. – B. 15-16.]. Boshqa maʼlumotlarga koʻra, aholi orasida bu majburiyat «hashar» deb ham yuritilgan. Bundan mehnat majburiyatini nomlashda davlat hujjatlari bilan aholi nutqida turlicha atamalar qoʻllanilganligini anglash mumkin.

Maʼlumki, Qoʻqon xonligi iqtisodiy hayotining asosini sugʻorma dehqonchilik tashkil etgan boʻlib, xonlarning iqtisodiy siyosatida sugʻorish tarmoqlarini qurish, ularni doimiy ravishda taʼmirlash alohida eʼtibor bilan qaralgan sohalardan hisoblanadi. Vodiyning turli yerlarida sugʻorish inshoatlarini qurish ishlari Umarxon va Madalixon davrida ayniqsa, keng yoyildi. Oʻrta Osiyoning sugʻorma dehqonchilik rivojlangan hududlari tarixiga ahamiyat berilsa, sugʻorish tarmoqlarini qurish ishlari keng xalq ishtirokida amalga oshirilganligini koʻramiz. Asrlardan buyon davom etib kelayotgan anʼananing oʻziga xosligi shunlaki, sugʻorish inshoatlarining barpo etilishidan hukmdorlar, yirik yer egalari, oddiy dehqonlar manfaatdor boʻlgan. Asosiy daromad manbai boʻlgan dehqonchilik yerlarni kengaytirishni talab qilganligi, yangi sugʻorish tarmoqlariga zhtiyojni keltirib chiqarganligi sir emas. Qoʻqon xonligida mehnat majburiyati oliy hukmdor yoki viloyat hokimining buyrugʻiga asosan amalga oshirilib, har bir xonadondan bir kishi ish asbobi bilan bir necha muddatga ishlab bergan. Hasharlar bir, ikki, uch va koʻp kunlik boʻlar edi [9. – C. 255.]. Shu bilan birga, bir necha kunlik hasharlar ham mavjud edi. Buni Umarxon tomonidan 1819-yilda Yangi ariqni qazish ishlarida qatnashish uchun Namangan viloyatidagi har bir oiladan bir kishi oʻz ovqati va ketmoni bilan 15 kun davomida hasharda boʻlishlari haqidagi buyrugʻi ham tasdiqlaydi.

Aholi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining boshqa sohalarida ham hashar ishlariga tortilgan. Ular nafaqat sunʼiy sugʻorish inshootlarini barpo etish, eskilarini taʼmirlash va tozalash, balki saroylar, madrasalar, masjidlar, harbiy istehkomlar va himoya vositalarini qurish ishlariga ham jalb qilingan. Ommaviy hashardan qishloq xoʻjaligidagi ishlarda, jumladan, sholi yetishtirish, qamish oʻrish, oʻtin va yantoq terish ishlarida keng foydalanilgan. 1866–1867 yillarda

G‘umayli, Dang‘ara, Oltiqush, Amirobod, Qirqlar, Qizilmusht, Eshon Bobo, Aravon qishloqlari oqsoqollari va fuqarolariga Yermasjid yaqinidagi botqoqli yerdan qamishni o‘rish uchun hasharga chiqish buyuriladi.

Mehnat majburiyati sovet davrida nashr qilingan adabiyotlarda aholiga yuklatilgan «og‘ir majburiyat»lardan deb e’tirof etiladi. To‘g‘ri, aholining zimmasiga yuklatilgan bu majburiyatlar og‘ir mehnatni talab qilardi. Bu mehnatning samarasidan turli hukmdorlar, amaldorlar, jamiyatning yuqori ijtimoiy tabaqasida turgan aholi foydalanar, uni bajaruvchi aholining ahvoli esa og‘irligicha qolib ketar edi. Shuning uchun bu ko‘p hollarda aholining noroziligiga sabab bo‘lardi. Bu masalaning bir tomoni. Uning ikkinchi tomoni bunday mehnat majburiyatlari zamirida faqat hukmdorlar manfaati emas, balki fuqarolar manfaati, yurt obodligi turadi. Bir necha asrlardan buyon davlatchilik tarixida obodonchilik ishlarini olib borishda hasharning mavqei nechog‘li yuqori ekanligi hozirgi kunda ham o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Xonlikning chorvador aholisi xo‘jalik va turmush tarzi xususiyatlaridan kelib chiqib ommaviy ishlarga ko‘p ham jalb qilinmagan. Chorvadorlardan zakot yig‘ish uchun devonbegi harbiy otryad yordamidan foydalangan. Birinchidan, soliq yig‘uvchilarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida, ikkinchidan, undirilgan chorva hayvonlarini markazga olib ketish uchun harbiylar xizmatidan foydalanilgan.

XULOSA

Qo‘qon xonligida aholini ommaviy ishlarga safarbar etish davlatning xo‘jalik va ma’muriy faoliyatida muhim o‘rin tutgan. Ushbu tizim sug‘orish inshootlari, mudofaa obyektlari va boshqa jamoat ahamiyatiga ega qurilishlarni amalga oshirishda asosiy mehnat manbai vazifasini bajargan. Tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar tahlili mehnat majburiyatlari qishloq xo‘jaligi hamda sug‘orish tizimining rivojlanishiga xizmat qilganini ko‘rsatsa-da, ayrim hollarda aholi zimmasiga qo‘shimcha yuk yuklab, ijtimoiy noroziliklarga ham sabab bo‘lganligini tasdiqlaydi. Shuning uchun Qo‘qon xonligidagi ommaviy mehnat safarbarligini uning tarixiy sharoiti va ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini hisobga olgan holda kompleks yondashuv asosida baholash zarur.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Жувонмардиев А. XVI–XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. – Тошкент: Фан, 1965.

2. Бобобеков Ҳ.Н. Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996.

4. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Тошкент: Шарқ, 1998.

5. Илҳомов З. Хотираларда жонланган сиймо // Жамият ва бошқарув. – 2000. – № 1.

6. Муҳаммад Яҳёхон. Туркистон хонлари тарихи // Ватан. – 1994. – № 28, 31, 35.

7. Муҳаммад Яҳёхон. Бўри баковул экан // Ватан. – 1995. – № 13, 14, 16, 20, 23, 27.

8. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. – Тошкент: Фан, 1999.
9. Набиев Р.Н. Из истории Кокандского ханства. – Ташкент: Фан, 1973.

Нуридинов Т. К.
PhD., доцент кафедры «История»
Кокандский государственный университет
turdalinuridinov835@gmail.com
Хайдаралиев Х. М.
Студент факультета «Гуманитарных наук и языков»
Кокандский государственный университет
xushnudbekhaydaraliyev611@gmail.com

ИСТОРИОГРАФИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ К ОБЩЕСТВЕННЫМ РАБОТАМ В КОКАНДСКОМ ХАНСТВЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится анализ историографии вопроса привлечения населения на общественные работы в Кокандском ханстве. В ходе исследования изучены научная литература и исторические источники, посвященные социально-экономической жизни ханства, налоговой системе и трудовым обязательствам, а также сравнительно проанализированы взгляды А. Джувонмардиева, Р. Набиева, Х. Бобобекова и других исследователей. В статье освещаются формы мобилизации населения на строительство ирригационных сооружений, благоустройство, оборонительные работы и хозяйственные работы, а также проявления трудовых обязательств, таких как «хашар», «мардикор солиги» и «джамаргай-юртия».

Ключевые слова: Кокандское ханство, историография, массовый труд, хашара, трудовая повинность, налоговая система, ирригационные сооружения, мобилизация населения, социально-экономическая жизнь, общественные работы.

Nuriddinov T. Q.
PhD., associate professor at the department of «History»
Kokand State University
turdalinuridinov835@gmail.com
Khaidaraliev Kh. M.
Student at the Faculty of Humanities and Languages
Kokand State University
xushnudbekhaydaraliyev611@gmail.com

HISTORIOGRAPHY OF THE POPULATION'S INVOLVEMENT IN PUBLIC LABOR IN THE KOKAND KHANATE

ABSTRACT

This article analyzes the historiography of the mobilization of the population for public works in the Kokand Khanate. The study examines scientific literature and historical sources on the khanate's socio-economic life, tax system, and labor obligations, as well as the views of A. Juvonmardiyev, The views of A. Juvonmardiyev, R. Nabiyev, H. Bobobekov, and other scholars are comparatively analyzed. The article sheds light on the forms of mobilizing the population for the construction of irrigation facilities, beautification, defense, and household work, as well as the manifestations of labor obligations such as "hashar," "mardikor solig'i," and "jamarg'ayi yurtiya".

Keywords: Kokand Khanate, historiography, mass labor, hashara, labor obligation, tax system, irrigation facilities, population mobilization, socio-economic life, public works.

Nuridinov T. Q.
«Tarix» kafedrasi dotsenti, PhD
Qo‘qon davlat universiteti
turdalinuridinov835@gmail.com
Haydaraliyev X. M.
«Gumanitar fanlar va tillar fakultet» talabasi
Qo‘qon davlat universiteti
xushnudbekhaydaraliyev611@gmail.com

QO‘QON XONLIGI–XITOY O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR XORIJIY TADQIQOTCHILAR TALQINIDA

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qo‘qon xonligining Xitoy bilan o‘zaro diplomatik aloqalari alohida tadqiqot sifatida yoritilgan. Mavzuga oid masalalar xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan ilmiy mulohazalarning o‘zaro qiyosiy tahlili asosida yoritilgan. Shu bilan birga, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar mazmun mohiyati xorijiy tadqiqotlar materiallariga tayanagan holda yoritishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, Xitoy, Sin imperiyasi, uyg‘urlar, Erdanobiy, Rossiya imperiyasi, Sharqiy Turkiston, Muhammad Alixon, Jahongir Xo‘ja.

KIRISH

Qo‘qon xonligining xalqaro munosabatlar tarixi XVIII–XIX asrlarda Markaziy Osiyodagi tashqi siyosat masalalarini o‘rganishda muhim masalalardan hisoblanadi. Qo‘qon xonligi va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarining ayrim jihatlarini yorituvchi turli davrda yaratilgan tadqiqotlar materiallarini tarixiylik tamoyillari asosida tahlil qilish tarixshunoslikdagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Qo‘qon xonligi va Xitoy o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar XVIII–XIX asrlarda Markaziy Osiyo xalqaro aloqalari tarixining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur masalaning tarixshunosligi Rossiya imperiyasi davri, sovet davri, mustaqillik yillari va zamonaviy xorijiy tadqiqotlar doirasida shakllangan. V.V. Velyaminov-Zernov, P.N. Nebolsin, A. Kun, V.V. Nalivkin, A.N. Kuropatkin, N.N. Petrovskiy, shuningdek R. Shou, Forsayt va Bellyu kabi mualliflarning asarlari Qo‘qon–Xitoy munosabatlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Xitoylik mansabdor Yan Chen tomonidan jamlangan ma’lumotlar esa XVIII–XIX asrlarda Qo‘qon va Xitoy o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning ko‘lami hamda elchilik almashinuvlarini yoritishda alohida ahamiyatga ega. Tarixiy manbalar tahlili ikki davlat o‘rtasidagi elchiliklar, siyosiy yozishmalar va savdo-diplomatik aloqalar muntazam tus olganligini ko‘rsatadi. Ushbu maqolada Qo‘qon–Xitoy diplomatik munosabatlarining tarixshunoslikda yoritilishi tahlil qilinib, mavjud ilmiy adabiyotlar va manbalardagi yondashuvlar baholanadi.

Qo‘qon hukmdori Erdonaxon 1759-yilda Erdona Xitoyga elchi tanlash maqsadida odamlarni mamlakatning turli hududlariga yuborib, eng jasur odamni topib kelishni buyuradi. Ma’lum vaqt o‘tgach, xon huzuriga mamlakatning eng bo‘yi uzun odamini olib kelishadi. Erdonaxon mazkur shaxsni maxsus tayyorgarlikdan so‘ng Xitoyga yuboriladigan elchilik guruhiga qo‘shadi. Ikki oydan so‘ng Erdonaning “daroz” elchisi Pekinga yetib keladi. Xitoy aholisi bunday ulkan odamni ko‘rib hayrat bilan tikilardi. Imperator uni huzuriga chaqirib, qayerdan kelgani bilan qiziqadi. Qo‘qon elchisi Xitoy hukmdoriga Erdonabiyning maktubini topshirib, yurti Qo‘qon xonligi, hukmdori esa Erdona ekanligini aytadi. Imperator “Bo‘ying shunchalik uzunki, senga biroz qaragan odamning bo‘yni ham og‘rib ketadi”, deydi. Bunga javoban Qo‘qon elchisi “Aslida oilamizda yetti farzandmiz, men kenjasiman, akalarim mendan ham novcharoq. Bizning yurtdagilar hammasi shunday qaddi-qomatli va tetik bo‘ladi”, deya javob beradi. Shu voqea sabab, bu voqeaga qadar garchi Xitoy hukmdori saroyida Qo‘qon davlati, uning aholisi haqida muayyan bir tasavvur bo‘lmasa-da, imperator va saroy a’yonlarini hayratga solgan elchi ularda katta taassurot qoldirdi[6, 88]. 1759-yilda amalga oshirilgan elchilik natijasida ikki davlat o‘rtasida iliq munosabatlar o‘rnatildi va Xitoy qo‘shini Qo‘qon hududiga bostirib kirishdan tiyildi. Ko‘rinadiki, Qo‘qon hukmdorlari xorijga yuboriladigan elchilarni tanlash masalasiga alohida ahamiyat qaratgan. Tanlangan elchilar jismonan sog‘lom, notiq, tashrif buyuradigan davlat tili va urf-odatlarini yaxshi bilishi, shuningdek, shu mamlakatda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday holatga tayyor bo‘lishi kerak bo‘lgan. Yuqoridagilarning iloji bo‘lmagan taqdirda elchi bilan birga tarjimon, xabarchilar, qorovullar hamroh sifatida jo‘natilar edi. Ba’zi hollarda elchilar savdo karvonlari bilan birgalikda yo‘lga chiqar yoki xonlikka kelgan ushbu davlat elchisi bilan birga yuborilardi [7, 95].

Sin imperiyasi 1759-yilda Sharqiy Turkistonni zabt etishi natijasida Qo‘qon xonligi sharqda Xitoyning chegaradosh davlatiga aylandi. Sharqiy Turkiston yerlari xitoyliklar tomonidan bosib olingach, mazkur hudud hukmdori yaqinlari Qo‘qon xonligi hududidan panoh topdilar. Xitoy hukumati ag‘darilgan hukmron sulola vakillari Sharqiy Turkiston yerlariga qaytmasligiga ikki o‘rtadagi munosabatlarning muhim masalalaridan biri sifatida qaradi. Buning evaziga esa Xitoy hukumati Qo‘qon xonligi tijorat vakillariga Sharqiy Turkiston bilan olib boriladigan savdo munosabatlarda bir qator imtiyozlar berdi. Xitoy imperatorining 1809-yilgi farmoni bilan Qo‘qon xonligidan Qoshg‘arga olib kelingan mollari bojxona to‘lovlaridan butunlay ozod etildi, kelgusida keltiriladigan mollardan esa bojlar ikki barobarga kamaytirildi [1, 75].

Xitoyliklar istibdodiga qarshi Sharqiy Turkiston hukmdorining o‘g‘li Jahongir Xo‘ja rahbarligida 1826–1827-yillarda qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Qo‘zg‘olonchilarga yordam berish maqsadida Qo‘qon xoni Muhammad Alixon 1826-yilda Qashg‘arga qo‘shin yubordi, ammo tezda orqaga chekinishga majbur bo‘ldi. Jahongir Xo‘janing Sharqiy Turkistondagi hukmronligi 9 oy davom etdi va Xitoy armiyasi tomonidan bostirildi. Xitoy hukumati Qo‘qon xonligini Jahongir Xo‘ja qo‘zg‘oloniga yordam ko‘rsatishda ayblab, Sharqiy Turkistonda faoliyat olib borayotgan Qo‘qon xonligi savdogarlarini ta’qib qila boshladi [2, 55]. Bunga

javoban Muhammad Alixon 1830-yilda Qashg‘arga Jahongir Xo‘janing ukasi Muhammad Yusufxo‘ja boshchiligidagi qo‘shinni yubordi. Ikki o‘rtadagi munosabatlar keskinlashganligiga qaramasdan davlatlar o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar uzilmadi. Qo‘qon xonligi va Xitoy o‘rtasida elchilik aloqalari davom etdi. Qo‘qon xonligi elchisi Olam Pochchoning elchilik faoliyatida Qo‘qon xonligi bilan Xitoy o‘rtasida 1832-yil 13-yanvarda tuzilgan shartnoma muhim ahamiyat kasb etadi. Olam Pochcho musulmonlarning muqaddas kitobi Qur’onga qasam ichib, Qo‘qon xoni Muhammad Alixon nomidan mazkur shartnomani imzoladi. Mazkur shartnoma tuzilishi bilan bog‘liq jarayonlar bir qator xorijiy tadqiqotchilar tomonidan tahlil etilganligini ta’kidlash lozim.

Amerikalik mashhur sharqshunos va tarixchi Jozef Fletcher 1832 yilda tuzilgan Qo‘qon-Xitoy shartnomasini Xitoy tarixidagi ilk “teng huquqli bo‘lmagan shartnoma”, deb ta’riflagan. Ushbu tadqiqotchi mazkur shartnomaning imzolanish sababini iqtisodiy va harbiy inqiroz, Xitoy hukumatining siyosiy chekinishi sifatida baholaydi [6].

Mazkur tadqiqotchi 1832-yilgi Pekin bitimining Qo‘qon xonligi uchun imtiyozlari sifatida Qo‘qonlik savdogarlar Oltishahar hududida boj to‘lovlaridan butunlay ozod etilishi, Qashqar, Yorkend, Xo‘tan, Oqsuda chet ellik va mahalliy musulmon savdogarlardan olinadigan bojxona soliqlarini yig‘ish huquqi Qo‘qon xonligi ixtiyoriga berilishi, xonligi Qashqariya shaharlarida o‘z oqsoqollarini tayinlash huquqini olishi, musodara qilingan qo‘qonlik savdogarlarning mulklari uchun katta miqdorda tovon to‘lash, xonlik esa Sharqiy Turkistonda Xitoy hukumatiga qarshi qurolli harakatlarni qo‘llab-quvvatlamaslik majburiyatini oldi.

Britaniyalik olim Lora Nyubi tadqiqotida yuqoridagi fikrlarga qat’iyan qarshi chiqib, Xitoy hujjatlarida Qo‘qonga imtiyoz yoki ekstraterritoriallik berilganini tasdiqlovchi dalillar yo‘qligini dalil keltiradi. Oksford universiteti olimasi Lora Nyubi esa ikki davlat ixtiloflarining tub mohiyati faqat diniy qarama-qarshilikda emas, balki mintaqaviy savdo, siyosiy va demografik manfaatlar to‘qnashuvida ekanligini ko‘rsatib o‘tgan [7]. Nyubi va boshqa zamonaviy tarixchilar Fletcher kabi mualliflarning imperiya va xonliklar o‘rtasidagi munosabatlarni Yevropacha standartlar bilan emas, balki Markaziy Osiyoning o‘sha davrdagi real siyosiy va madaniy manfaatlari asosida tushunish kerakligini ta’kidlashadi [6. 7]

Fletcherning arxiv hujjatlariga tayanib qilgan mehnati zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan tan olinsa-da, uning xulosalari bir tomonlama va Yevrosentrizmga moyil deb hisoblanadi.

XIX asr 40-yillaridan Qo‘qon xonligiga nisbatan Xitoy, Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi kabi qo‘shni davlatlarning kuchayib borayotgan bosimi sharoitida Qo‘qon xonligi moslashuvchan va amaliy jihatdan pragmatik diplomatik siyosat olib borishga harakat qildi. Bu borada xonlikning Xitoy bilan munosabatlarи hamkorlik va yashirin qarama-qarshilik davrlarini o‘z ichiga oladi.

Dastlabki davrda Qo‘qondan Xitoyga yuborilinadigan elchilar orasida savdogarlarning ko‘pligi minglar sulolasi vakillari ikki davlat o‘rtasidagi savdo-sotiq munosabatlariga ahamiyat qaratdi. Keyinchalik Qo‘qon hukmdorlari ko‘plab savdogarlar davlat manfaatlaridan ko‘ra o‘z manfaatlarini ko‘zlab, shaxsiy foyda ko‘rishga harakat qilishini oldini olish maqsadida davlat mulozimlarini Xitoyga

elchi sifatida yuborish amaliyotini joriy qildi. Xitoyga yuboriladigan davlat elchilarining yuz tuzilishi, xulq-atvori va kiyim-kechagiga alohida e’tibor qaratilib, elchilar bo‘yi uzun va ozg‘in bo‘lishi shart bo‘lgan. Xitoyliklarning bo‘yi past bo‘lganligi sababli, elchilarning ulardan uzun bo‘ylari bilan ajralib turishi muhim hisoblangan. Bu holat Qo‘qon davlatining obro‘sini oshirishi, elchining tashqi ko‘rinishi uning atrofdagilar uchun yorqin va e'tiborli bo‘lishiga xizmat qilishi kerak edi [5, 79].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Qo‘qon xonligi va Xitoy o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar siyosiy hamda savdo-iqtisodiy manfaatlar asosida shakllanganligini ko‘rsatadi. Qo‘qon xonligi Xitoy bilan aloqalardan o‘zining siyosiy mavqeini mustahkamlash va mintaqadagi ta’sirini kuchaytirish vositasi sifatida foydalangan. Xonlik diplomatiyasiga moslashuvchanlik, manfaatlar muvozanatini saqlash va o‘zgaruvchan xalqaro vaziyatga moslashish xos bo‘lgan. Ayniqsa, 1832-yilgi Qo‘qon–Xitoy tinchlik shartnomasi ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning barqarorlashuvi hamda savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Natijada Qo‘qon xonligi uzoq vaqt davomida Xitoy bilan barqaror munosabatlarni saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бейсембиев Т.К. “Тарихи Шахрухи” о Восточном Туркестане // Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана. XV–XIX вв. – Ташкент: Фан, 1987. – С. 162-174.

2. Кутлуков М. К истории экономических, политических и культурных связей народов Средней Азии и Китая (в древности и в период средневековья) // Научные работы и сообщения АН УзССР. – Ташкент: Издательство АН УзССР, 1961. Т. 4. – С. 340.

3. Кузнецов В.С. Цинская империя на рубежах Центральной Азии (вторая половина XVIII – первая половина XIX в.). – Новосибирск: Наука, 1983. –120 с.

4. Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины / перевод с немецкого В.И. Ковалевского. – СПб., 1882. – 604 с.

5. Levi, Scott. C. The rise and Khoqand Central Asia in the Global Age. 1709-1876. University of Pittsburg Press. 2017. – 258c.

6. Joseph Fletcher. Ching Inner Asia c. 1800 // The Cambridge History of China. Vol. 10. Cambridge: Cambridge University Press, 1978.

7. Newby, Laura J. The Empire and the Khanate: A Political History of Qing Relations with Khoqand c.1760–1860. Leiden–Boston: Brill, 2005. – 297 p.

Нуридинов Т. К.
PhD., доцент кафедры «История»
Кокандский государственный университет
turdalinuridinov835@gmail.com
Хайдаралиев Х. М.
Студент факультета «Гуманитарных наук и языков»
Кокандский государственный университет
xushnudbekhaydaraliyev611@gmail.com

ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ КОКАНДСКОМ ХАНСТВОМ И КИТАЕМ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЗАРУБЕЖНЫХ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье дипломатические отношения между Кокандским ханством и Китаем рассматриваются в качестве самостоятельного предмета исследования. Вопросы, связанные с данной темой, анализируются на основе сравнительного анализа научных аргументов, выдвинутых зарубежными исследователями. При этом была предпринята попытка пролить свет на сущность отношений между двумя государствами, опираясь на материалы зарубежных исследований.

Ключевые слова: Кокандское ханство, Китай, империя Цин, уйгуры, Эрданобий, Российская империя, Восточный Туркестан, Мухаммад Али-хан, Джахангир Ходжа.

Nuriddinov T. Q.
PhD., associate professor at the department of «History»
Kokand State University
turdalinuridinov835@gmail.com
Khaidaraliev Kh. M.
Student at the Faculty of Humanities and Languages
Kokand State University
xushnudbekhaydaraliyev611@gmail.com

DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN THE KOKAND KHANATE AND CHINA AS INTERPRETED BY FOREIGN RESEARCHERS

ABSTRACT

This article presents the diplomatic relations between the Kokand Khanate and China as a separate study. The issues related to the topic are examined based on a comparative analysis of the scientific arguments put forward by foreign researchers. At the same time, an effort was made to shed light on the substantive nature of the relations between the two states, relying on materials from foreign research.

Keywords: Kokand Khanate, China, Qing Empire, Uyghurs, Erdanobiy, Russian Empire, Eastern Turkestan, Muhammad Ali Khan, Jahangir Khoja.

Raxmankulova M. B.
Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi yetakchi ilmiy xodimi
O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi
rbmatluba@gmail.com

XX ASR BOSHLARIDA G‘ARBDA TEMURIYLAR KITOBAT SAN’ATINING O‘RGANILISHI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XX asr boshlarida G‘arb tadqiqotchilari tomonidan Amir Temur va Temuriylar davri kitobat san’ati, muqovasozlik, qog‘oz ishlab chiqarish va miniatyura maktablarining o‘rganilishi tarixi tahlil qilingan. Tadqiqotda P. Adam, T. Gottlib, J. Karabachyok, F.R. Martin va J. Luber kabi yevropalik olimlarning ilmiy izlanishlari hamda ularning soha rivojiga qo‘shgan hissalari yoritilgan. Shuningdek, 1910-yilda Berlin va Myunxen shaharlarida tashkil etilgan Sharq hamda musulmon san’ati ko‘rgazmalarining Temuriylar davri kitobat durdonalarini dunyoga tanitishdagi va keyingi davr tizimli tadqiqotlari uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qilgani ko‘rsatib o‘tilgan.

***Kalit so‘zlar*:** Temuriylar davri, kitobat san’ati, muqovasozlik, Samarqand qog‘ozi, miniatyura, Kamoliddin Behzod, F.R. Martin, J. Karabachyok, Myunxen ko‘rgazmasi (1910), Berlin ko‘rgazmasi.

KIRISH

Islom madaniyati va san’ati tarixida Amir Temur va Temuriylar davri (XIV–XVI asrlar) kitobat ishi, xattotlik, miniatyura hamda muqovasozlik san’atining eng yuksak rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Ushbu davrda yaratilgan qo‘lyozmalar va noyob san’at durdonalari vaqt o‘tishi bilan G‘arb ilmiy jamoatchiligining ham diqqat markaziga tushdi. XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, yevropalik sharqshunos va san’atshunos olimlar tomonidan islom kitobat san’atini tizimli tadqiq etish boshlandi. Bu jarayonning yuzaga kelishiga nemis tadqiqotchisi Pavel Adamning ilmiy ishlari turtki bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik J.Karabachyok, T.Gottlib, J.Luber va F.R.Martin kabi olimlar Temuriylar davri madaniyatini yangicha yondashuvlar asosida o‘rgandilar. Ular o‘z tadqiqotlarida Samarqand qog‘ozining ahamiyati, miniatyura maktablari, xususan, ustoz-shogirdlik an’analari va Kamoliddin Behzod ijodini G‘arb dunyosiga namoyish etdilar.

XX asr boshida Berlin va Myunxenda tashkil etilgan yirik ko‘rgazmalar esa ilgari faqat sanoqli kishilargagina ma’lum bo‘lgan san’at asarlarini keng ilmiy jamoatchilik uchun ochib berdi va Temuriylar kitobat san’ati tadqiqida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Mazkur maqola ushbu tadqiqotlarning xronologiyasini izchillik bilan ko‘rib chiqish va ularning Sharq san’ati tarixini baholashdagi ilmiy ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

G‘arb tarixshunosligida islom kitobat ishi, xususan, Amir Temur va Temuriylar davri (XIV–XVI asrlar) muqovasozlik mahoratini tizimli va texnik jihatdan

o‘rganish nemis olimi, kitob savdosi va muqova ishi mutaxassisi Pavel Adam (1849–1931) nomi bilan uzviy bog‘liqdir. Uning tadqiqotlari Yevropa ilmiy jamoatchiligi uchun Sharq kitob san’atining noyob texnologik xususiyatlarini kashf etib bergan dastlabki fundamental manbalardan hisoblanadi.

Muallifning 1890-yilda Leypsig shahrida chop etilgan “Kitob muqovasi: texnikasi va tarixi” (*Der Bucheinband: seine Technik und seine Geschichte*) [1] nomli asarida islom olami, xususan, Temuriylar madaniyati gullagan Samarqand, Hirot va Sheroz singari yirik markazlarda yaratilgan muqovalar alohida tarixiy-estetik boblarda tahlil qilingan. P.Adam yevropalik professional usta sifatida Temuriylar davri qo‘lyozmalari muqovasining nafaqat tashqi go‘zalligiga, balki ularni tayyorlashning murakkab texnik jarayonlariga e’tibor qaratdi. U kitobda Temuriylar davri kutubxonalarida shakllangan teri qoplamali muqovalarni o‘rganar ekan, teriga ishlov berish, unga oltin suvi yugurtirish, issiq bosim va zarb texnikasi hamda muqovaning ichki qismi – dublur ga yuksak mahorat bilan ishlangan nafis zanjirali naqshlar va chiy ipakdan qilingan bezaklar mahoratini yuqori baholagan.

Pavel Adamning Sharq kitobat san’atiga bag‘ishlangan izlanishlari keyinchalik yangi bosqichga ko‘tarildi. Olimning 1904–1905-yillarda nufuzli “Muqovasozlik arxivi” (*Archiv für Buchbinderei*) jurnalida ketma-ket nashr etilgan “Turk-arab-fors qo‘lyozmalari va ularning muqovalari” (*Über türkisch-arabisch-persische Manuskripte und deren Einbände*) nomli maqolalar turkumi [2] Temuriylar davri kitobat ishining konstruktiv detallarini ochib berdi.

Pavel Adamning ushbu ikki fundamental merosi G‘arb ilm-fanida Temuriylar davri kitobat san’atini shunchaki vizual san’at sifatida emas, balki yuksak muhandislik va texnologik mahorat mahsuli sifatida baholashga zamin yaratdi. Uning tadqiqotlari keyinchalik T.Gottlib, J.Luber va F.R.Martin kabi yirik olimlarning Temuriylar qo‘lyozma merosini yanada chuqurroq va kompleks o‘rganishi uchun o‘ziga xos metodologik poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Asr boshlarida nashr qilingan J.Karabachyok [4; 5; 6] , T.Gottlib [3] , J.Luber [9; 10] , F.R. Martin [11; 12; 13; 14; 15; 16] tadqiqotlarida Amir Temur va temuriylar davri kitobat ishining turli masalalari tadqiq qilingan.

XX asr boshlarida G‘arb sharqshunosligida Temuriylar davri kitobat san’ati va matnshunosligini moddiy madaniyat nuqtayi nazaridan o‘rganishda taniqli avstriyalik olim, Vena universiteti professori Jozef fon Karabachyok (1845–1918) izlanishlari alohida bosqichni tashkil etadi. Olimning tadqiqotlari Sharq qo‘lyozmalarini shunchaki matniy yoki badiiy jihatdan emas, balki fundamental materialshunoslik, paleografiya va arxeologik-antikvariat nuqtayi nazaridan izchil tahlil qilib bergani bilan qiymatlidir.

Muallifning 1887-yilda Venada chop etilgan “Arab qog‘ozi: tarixiy-antikvariat tadqiqoti” (*Das arabische Papier: Eine historisch-antiquarische Untersuchung*) [4] nomli fundamental monografiyasi islom dunyosida, xususan, Markaziy Osiyoda kitobat ishining eng asosiy moddiy poydevori bo‘lgan qog‘oz ishlab chiqarish tarixini ochib berdi. J.Karabachyok ersgersog Rayner papiruslari va Temuriylar davriga oid noyob qo‘lyozmalar matosini kimyoviy va mikroskopik tahlil qilish orqali Samarqand qog‘ozi fenomenini ilmiy muomalaga qildi.

Olim mazkur asarida 751-yildagi Talos jangidan so‘ng xitoylik ustalar orqali Samarqandda ipak va kanop chiqindilaridan qog‘oz tayyorlash texnologiyasining yo‘lga qo‘yilishi hamda bu inqilobiy jarayonning Temuriylar davrida (XIV–XV asrlar) o‘z cho‘qqisiga chiqqanini dalilladi. U Temuriylar davri kitobat san’atida ishlatilgan Samarqand qog‘ozining o‘ta silliqligi, uzoq muddat chidashi va xattotlik uchun qulayligi xususiyatlarini alohida qayd etdi. Kitobda Samarqand qog‘ozining Sharqda kutubxonachilik va noyob qo‘lyozmalar yaratish tizimi shakllanishidagi strategik o‘rni nazariy jihatdan asoslab berildi.

Bu mavzu olimning 1890-yilda «Sharq uchun Avstriya oylik jurnali»da chop etilgan “Qog‘oz va matbaachilik tarixiga oid yangi kashfiyotlar” (*Neue Entdeckungen zur Geschichte des Papieres und Druckes*) nomli ilmiy maqolasida [5] izchil davom ettirildi. Bu yerda J.Karabachyok Temuriylar davlatida qog‘ozga ishlov berish, oho rlash va shisha tosh bilan silliqlash usullarini bayon qildi. Olimning fikricha, Amir Temur va Shohrux Mirzo davrida Samarqand va Hirotda qo‘llanilgan qog‘oz tayyorlash texnologiyasi qo‘lyozmalarga asrlar davomida zarar yetkazmaydigan va miniatyura bo‘yoqlarining, ayniqsa, oltin va lajuvardning asl holida saqlanishini ta’minlaydigan kimyoviy barqarorlikka ega bo‘lgan.

J. Karabachyokning 1913-yilda Vena Fanlar akademiyasi axborotnomasida nashr etilgan “Sharq antikvariatshunosligi tadqiqotlari IV: Musulmon san’ati izlanishlari” (*Zur orientalischen Altertumskunde IV: Muhammedanischer Kunststudien*) nomli asari [6] bevosita Temuriylar davri saroy kutubxonalari va kitobat madaniyatini tahlil qilishga bag‘ishlandi. Ushbu tadqiqotda olim Vena saroy kutubxonasida saqlanayotgan va sultonlar kutubxonasiga tegishli bo‘lgan Temuriylar davriga oid noyob muqovalar va qo‘lyozmalarni snoskalar va paleografik belgilar orqali identifikatsiya qildi. Shuningdek, J.Karabachyok Shohrux Mirzo davrida (1405–1447) Hirot maktabida yaratilgan va Vena fondida saqlanayotgan "Nasoyihi Shohruxi" qo‘lyozmasini [Vienna, Österreichische Nationalbibliothek. A.F. 112] va undagi kutubxona muhrlarini chuqur o‘rgandi. U Temuriy hukmdorlarning shaxsiy imzolari va muhrlari tizimini tahlil qilib, davlatchilik va ilm-fan o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatib berdi. Muallif 1910-yilgi Myunxen ko‘rgazmasi natijalariga tayangan holda, Temuriylar davri kitobat san’atini shunchaki mahalliy hunarmandchilik emas, balki yuksak rivojlangan materialshunoslik va paleografik izchillikka ega bo‘lgan umumjahon san’at fenomeni sifatida baholadi.

XX asr boshlarida Yevropa sharqshunosligida Temuriylar davri kitobat san’atini o‘rganish nafaqat umumiy nazariy izlanishlar, balki Yevropaning yirik qirollik kutubxonalarida saqlanayotgan noyob qo‘lyozmalar fondlarini tizimli kataloglashtirish orqali ham amalga oshirildi. Bu borada avstriyalik taniqli olim va kutubxonashunos Teodor Gottlib (1860–1929) tomonidan Vena saroy kutubxonasi (hozirgi Avstriya milliy kutubxonasi) kolleksiyasi asosida tayyorlangan ilmiy kataloglar Sharq, xususan, Temuriylar davri muqovasozlik mahoratini o‘rganishda birlamchi manba bo‘lib xizmat qiladi.

T. Gottlib rahbarligida Venada chop etilgan “Muqovalar ko‘rgazmasi katalogi: Imperator va qirollik saroy kutubxonasi” (Katalog der Ausstellung von Einbänden: K.K. Hofbibliothek, 1900) nomli 197 sahifalik yirik nashr [7] G‘arb

san’atshunosligida Temuriylar davri kitobat durdonalarini birinchi marta rasmiy atributsiya qilgan kataloglardan biridir. Saroy kutubxonasida tashkil etilgan ushbu yirik ko‘rgazma katalogida dunyoning turli burchaklaridan to‘plangan noyob kitob muqovalari xronologik va geografik tartibda joylashtirilgan. Uning «Sharq muqovalari» bo‘limida Avstriya imperatorlari kolleksiyasidan joy olgan, XIV–XV asrlarda Samarqand va Hirot saroy kitobxonalarida yaratilgan bir qancha noyob teri muqovalar ilk bor ilmiy bayon etilgan. Katalog tuzuvchilari Temuriylar davri kitob ustalarining teri yuziga bo‘rtma naqsh berish va muqovaning ichki tomonini nafis ranglar hamda oltin naqshlar bilan bezash uslublarini g‘arb kitobxonlariga tanitdilar.

Bu sohadagi izchil ilmiy xulosalar T.Gottlibning 1910-yilda chop etilgan “Kitob muqovalari: Imperator va qirollik saroy kutubxonasi” (Bucheinbände: K. K. Hofbibliothek) nomli tadqiqotida [3] o‘z ifodasini topdi. Ushbu 84 sahifalik matn va unga ilova qilingan noyob foto-tasvirlar jamlanmasi Temuriylar kitobat san’ati tadqiqi uchun bir qator muhim ilmiy natijalarni berdi. Xususan, T.Gottlib Vena kutubxonasi fondlarida saqlanayotgan va bevosita Shohrux Mirzo, Boysung‘ur Mirzo va Husayn Boyqaro davrlariga tegishli deb topilgan 8 ta noyob Temuriylar davri muqovasini aniq tavsiflab berdi [3, №№29–35; 41]. Shuningdek, olim XV asr Yevropa, xususan, Uyg‘onish davri Italiya muqovasozlik san’ati rivojiga Sharq, xususan, Temuriylar muqova san’atining kuchli ta’sir ko‘rsatganini nazariy jihatdan ilgari surdi. U Temuriy ustalarning teriga oltin suvi yugurtirish va geometrik simmetriyani qo‘llash borasidagi mahorati Yevropa ustalaridan ancha oldin shakllanib, mukammallikka erishganini ta’kidladi. Muallif Vena kutubxonasining asosiy durdonalaridan biri bo‘lgan, Shohrux Mirzo uchun Hirotda maxsus ko‘chirilgan "Nasoyihi Shohruxi" (Shohrux nasihatlari) qo‘lyozmasining asl teri muqovasini san’atshunoslik nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qildi. U kitob muqovasidagi markaziy medalyon va hoshiyalardagi naqshlarning joylashuvini Sharq falsafasi va estetikasi bilan bog‘lab tushuntirdi.

XX asr boshida G‘arb dunyosida Temuriylar davri kitobat madaniyatini tizimli va solishtirma-tarixiy metodlar asosida tadqiq etishda nemis olimi Jan Luberning (1863–1934) ilmiy ishlari muhim burilish davrini boshlab berdi. Muallifning 1910-yilda nufuzli “Muqovasozlik arxivi” (*Archiv für Buchbinderei*) jurnalida chop etilgan tadqiqotlari Sharq kitob san’ati, xususan, XIV–XV asrlar Samarqand va Hirot maktablari merosini Yevropa klassik san’atshunosligi mezonlari asosida baholab berdi.

J. Luberning “Sharq muqovasozlik san’ati” (*Orientalische Einbandkunst*, 1910) nomli birinchi maqolasida [9] islom olami kutubxonalarida shakllangan muqova tizimlarining evolyutsiyasi batafsil ko‘rib chiqiladi. Muallif mazkur tadqiqotda Temuriylar davri muqovasozlik san’atini islom madaniyatining eng yuqori va mukammal bosqichi sifatida baholaydi. U Temuriy ustalarning teriga ishlov berishdagi virtuozligi, xususan, muqovaning ichki tomoniga qo‘llaniladigan va nafis o‘simliksimon naqshlardan iborat bo‘lgan o‘ymakorlik san’atini alohida tahlil qilgan. Maqolada Sharq kitobat san’ati ko‘rgazmasida namoyish qilingan temuriylar davriga oid muqovalar tadqiq qilingan [8, No. 137; 332; 209].

Olimning shu yili nashr etilgan ikkinchi fundamental ishi – “1910-yilgi Myunxen musulmon san’ati ko‘rgazmasida muqovasozlik san’ati” (*Die Einbandkunst in der muhammedanischen Ausstellung in München 1910*) maqolasi [10] 1910-yilda Myunxenda tashkil etilgan «Muhammadiy san’at durdonalari» (*Meisterwerken muhammedanischer Kunst*) xalqaro ko‘rgazmasi bevosita ishtirokchisi va ekspertlaridan biri sifatida eksponatlarni chuqur tahlil qildi. Xususan, muallif Myunxen ko‘rgazmasiga Turkiya Sultoni Abdulhamid II ning ruxsati bilan Istanbuldagi Yildiz va To‘pqopi saroyi kutubxonalaridan keltirilgan noyob Temuriylar davri qo‘lyozmalarini tavsif laydi.

XX asrning birinchi choragida G‘arb san’atshunosligida Temuriylar davri kitobat va tasviriy san’atini yangi metodologik asosda kompleks o‘rganish shinam va keng qamrovli izlanishlari bilan tanilgan F.R.Martin hamda u bilan hamkorlik qilgan ingliz olimi T.V.Arnold nomlari bilan bog‘liqdir. Ular ilk bor Sharq qo‘lyozmalari tarkibidagi miniatyuralarni alohida rassomlik maktablari – Samarqand, Hirot, Buxoro, Sheroz maktablari an’analari bo‘yicha tasnifladilar.

F.R. Martinning 1908-yilda Venada chop etilgan “1800-yilgacha bo‘lgan Sharq gilamlari tarixi” (*A history of oriental carpets before 1800*) nomli tadqiqoti [11] kitobat san’atini bevosita amaliy san’atning boshqa turlari bilan sintezda o‘rgangani bilan ahamiyatlidir. Muallif kitobning Temuriylar davriga bag‘ishlangan qismida XIV–XV asr qo‘lyozmalari muqovalaridagi bosma va naqshinkor naqshlar hamda miniatyuralarda tasvirlangan interer bezaklari, saroy gilamlari o‘rtasidagi uzviy kompozitsion bog‘liqlikni ko‘rsatib berdi. Olim Temuriylar kitobat ustaxonalaridagi naqqoshlar nafaqat qo‘lyozmalar bezagi, balki saroy gilamlari va me’morchilik frizlari uchun ham yagona andoza va ornamental tizimni ishlab chiqqanliklarini isbotladi.

Olimning 1912-yilda Londonda chop etilgan ikki jildlik **“**Fors, Hindiston va Turkiya miniatyura rangtasviri va rassomlari (VIII asrdan XVIII asrgacha)” (*The miniature painting and painters of Persia, India and Turkey*) nomli mashhur monografiyasi [13] Temuriylar miniatyura maktablarining jahon san’ati tarixidagi o‘rnini mustahkamladi. Muallif kirish qismida 1894-yil Buxoroga kelganda material yig‘ishni boshlaganini ta’kidlab o‘tadi. F.R.Martin ushbu asarida Yevropa da "fors uslubi" deb yuritilgan san’atning tub ildizlari Amir Temur va Temuriylar tomonidan Samarqand va Hirotda tashkil etilgan akademiyalarga borib taqalishini ilmiy asosladi. Tadqiqotda Amir Temur davriga oid bizgacha yetib kelgan eng eng muhim qo‘lyozma sifatida Xo‘ja Kirmoniyning 799/1396-yil Bag‘dodda ko‘chirilgan qo‘lyozmasini [British Museum, No. Ad. 18113] keltirib o‘tadi. Qo‘lyozma Samarqandda tayyorlanmagan bo‘lsa-da, undagi miniatyuralar dunyo hukmdor mos uslubda tasvirlangani tadqiqotda ta’kidlangan. Tadqiqotda Amir Temur saroyida qora qalamda chizish uslubi paydo bo‘lganligi o‘sha davrga oid tasviriy namunalari [Osiyo san’ati milliy muzeyi (AQSH), Friir galareyasi, №F1929.79] asosida ko‘rsatilgan. U Sharq manbalariga tayanib, Temuriylar miniatyura san’atining ibtidosida Ustod Gung va uning shogirdi buxorolik Ustoz Jahongir silsilasi turganini, ularning an’analari Iskandar Sulton, Shohrux Mirzo va Boysung‘ur Mirzo kutubxonalarida yuksak akademik darajaga ko‘tarilganini xronologik izchillikda bayon qildi.

Shu yili Myunxenda nashr etilgan “1485-yilga oid fors qo‘lyozmasidagi Behzod miniatyuralari” (*Les miniatures de Behzad dans un manuscrit persan daté 1485*) asari [12] esa ulug‘ musavvir Kamoliddin Behzod ijodini G‘arbga tanitishda inqilobiy qadam bo‘ldi. F.R.Martin 890/1485 yilda Muhammad Azhar tomonidan ko‘chirilgan Amir Xusrav Dehlaviyning «Xamsa» qo‘lyozmasi [The Chester Beatty Library, No. CBL Per 163] tarkibidagi 22 ta noyob miniatyura lavhasini tahlil qilar ekan, Behzodning chiziqlar plastikasi, ranglar koloriti va inson psixologik holatini tasvirlashdagi mahoratini Yevropa Uyg‘onish davri ustalari ijodi bilan teng qo‘ydi.

1920-yillarga kelib F.R. Martin va T.V. Arnoldning hamkorlikdagi tadqiqotlari Temuriylar va ularga zamondosh sulolalar qo‘lyozma merosini batafsil o‘rganishga qaratildi. “Sulton Ahmad Jaloir she’rlari qo‘lyozmasidagi Temur davri miniatyuralari” nomli tadqiqotda [14] mualliflar Amir Temur davri (XIV asr oxiri) kitobat san’atining o‘tish davri xususiyatlarini o‘rgandilar. Ular Jaloiriylar va Temuriylar san’ati orasidagi madaniy aloqalarni mazkur qo‘lyozma misolida tahlil qilib, Temuriylar saroyida “qora qalam” va nafis chiziqli marosim grafikasi uslubi qanday shakllanib borganini ko‘rsatdilar.

“Britaniya muzeyidagi Sulton Ali Mirzo Barlos uchun 1495-yilda yozilgan Nizomiy qo‘lyozmasi (Or. 6810)” nomli tadqiqot [15] Temuriylar kitobat san’atining eng oliy namunasini ochib beradi. Samarqand hukmdori Sulton Ali Mirzo Barlos buyurtmasiga ko‘ra tayyorlangan va keyinchalik Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh hamda Qosim Ali tomonidan bezatilgan Nizomiy Ganjaviyning «Xamsa» qo‘lyozmasi kitob bezash madaniyatining eng mukammal namunasi sifatida baholanadi. Mualliflar matn va tasvirning proporsional mutanosibligini, xattotlik , nasta’liq xati va miniatyura sintezini yuqori baholadilar.

“Nyu-York Metropoliten muzeyidagi Eron Shohi kutubxonasiga tegishli Nizomiy qo‘lyozmasi” nomli tadqiqotda [16] F.R.Martin va T.V.Arnold ushbu asarda Temuriylar davrida ko‘chirilgan va keyinchalik Safaviylar shoh kutubxonasiga o‘tgan noyob qo‘lyozmaning (Metropoliten muzeyi, 13.228.7.1) tarixiy taqdiri, uning varaqlanish va saqlanish tarixini paleografik jihatdan tadqiq etdilar.

XX asr boshida Ovro‘po sharqshunosligida Temuriylar davri qo‘lyozmalari va tasviriy san’atini mahalliy to‘plamlar doirasidan olib chiqib, keng qamrovli xalqaro ilmiy tahlil obyektiga aylantirishda 1910-yil fevral–mart oylarida Berlindagi Qirollik badiiy-sanoat muzeyida (*Königliche Museen Berlin.Kunstgewerbemuseum*) tashkil etilgan «Sharq kitob san’ati maxsus ko‘rgazmasi» va uning ilmiy katalogi [8] tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Mazkur ko‘rgazma o‘sha yilning may oyida o‘tkazilgan mashhur Myunxen xalqaro anjumani uchun o‘ziga xos “ilmiy muqaddima” vazifasini o‘tadi.

Berlin ko‘rgazmasining eng muhim jihati shundaki, unda islom dunyosi va Markaziy Osiyo qo‘lyozmalari, xususan, Samarqand va Hirot maktablari ilk bor Sharqiy Turkiston ekspeditsiyalari davomida topilgan qadimgi uyg‘ur, sog‘d va moniylik madaniyatiga oid san’at namunalari bilan yaxlitlikda namoyish etildi. Bu ilmiy yondashuv G‘arb olimlariga Temuriylar davri kitobat san’ati va miniatyura tasvirlarining genezisi va tarixiy ildizlarini yangicha talqin qilish imkonini berdi.

Ko‘rgazmada Maks fon Oppenxaym, Fridrix Sarre, Filipp Valter Shuls va K. Zander kabi XX asr boshining eng yirik kolleksionerlari tomonidan Sharqdan to‘plangan, ilgari fan olamiga noma’lum bo‘lgan 150 dan ortiq noyob qo‘lyozmalar, xattotlik qit’alari va miniatyura lavhalari birinchi marta tizimli atributsiya qilindi va bayon etildi.

Ko‘rgazma katalogida XV asr Temuriylar miniatyuralaridagi chiziqlar nafisligi (ayniqsa, “qora qalam” uslubi) hamda kitob muqovalaridagi afsonaviy jonzotlar (ajdarho, simurg‘, nafis kiyiklar) tasvirining kelib chiqishi Sharqiy Turkiston (Turfon, Dunxuan) va Xitoy san’ati bilan bo‘lgan madaniy aloqalar mahsuli ekanligi nazariy jihatdan ko‘rsatib o‘tildi. Bu Temuriylar kitobat san’atini lokal diniy qolipdan chiqarib, umummintaqaviy fenomen sifatida baholashga zamin yaratdi. Ko‘rgazma eksponatlari orasida Temuriy hukmdor va shahzodalari kitobat ustaxonalarida tayyorlangan nasta’liq va suls xatlari bilan bitilgan, varaqlari afshon va rangli qog‘ozlarda tayyorlangan qo‘lyozma parchalari Sharq xattotlik madaniyatining eng oliy cho‘qqisi sifatida qayd etildi. Berlindagi jamoat va shaxsiy kolleksiyalarida kitobat san’atining qancha ajoyib hujjatlari borligidan olimlar, tadqiqotchilar hayratga tushdi. Ilgari faqat sanoqli kishilarga ma’lum bo‘lgan, faqat sanoqli kishilargagina ko‘rish ruhsam etilgan san’at durdonalari ko‘rgazmada jamlanib, ilmiy tadqiqotlar uchun ochib berildi.

XX asr boshida G‘arb ilm-fanida Temuriylar davri qo‘lyozma madaniyati, xattotlik va muqovasozlik san’atini mahalliy, parchalangan tadqiqotlardan umumjahon san’at fenomeni darajasiga ko‘targan eng yirik voqelik – 1910-yilda Myunxen shahrida Myunxenda Bavariya valiahd shahzodasi Rupprext homiyligida tashkil etilgan «Musulmon san’ati durdonalari ko‘rgazmasi» (*Ausstellung von Meisterwerken muhammedanischer Kunst*) va uning rasmiy ilmiy katalogi [17] bo‘ldi. Bu anjuman jahon tarixida islom dunyosining moddiy va madaniy merosini bir joyga jamlagan eng miqyosli tadbir bo‘lib, unda dunyoning 260 dan ortiq yirik davlat va xususiy fondlaridan 3600 dan ziyod noyob eksponatlar namoyish etildi. Ko‘rgazma katalogini shakllantirishda davrning mashhur olimlari Fridrix Paul Teodor Sarre (1865–1945), Severin Shryodor (1880–1953), List Kamillo (1867–1924), Ernst Kyunel (1882–1964), Moris Dreger (1868–1939), Maks van Berxem (1863–1921), Fridrix Martin bevosita ishtirok etdilar.

Ko‘rgazmaning eng katta yutug‘i – Osmonli imperiyasi Sultoni Abdulhamid II ning maxsus ruxsati bilan Istanbuldagi Yildiz va To‘pqopi saroy kutubxonalaridan ilgari hech bir g‘arb olimining qo‘li tegmagan eng noyob Temuriylar davri sultonlik qo‘lyozmalarining Myunxenga olib kelinishi bo‘ldi. 1400-yillar boshiga (ilk Temuriylar davriga) oid mashhur she’riy antologiya qo‘lyozmasi [Topkapi saroy muzeyi, Xazina 2152; 17, No. 649, - p.78] va uning tabiat tasvirlari (jayronlar, qushlar va o‘simliklar) bilan bezatilgan noyob teri muqovasi shular jumlasidandir. Bu eksponat Sharq muqovasozligining eng oliy namunasi sifatida G‘arb olimlarini hayratga soldi.

Rasmiy katalog va unga ilova qilingan foto-suratlar orqali Temuriylar davri kitobxonalarida yaratilgan va bugungi kunda jahon tasviriy san’atining durdonalari hisoblangan bir qancha lavhalar ilk bor ilmiy bayon qilindi. Xususan, Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa” dostoniga ishlangan mashhur “Xumoy va Humoyun

bog‘da” miniatyurasi [Paris, Collection Musee des Arfs Decoratifs, inv. 3727; 17, No.666], “Shahzoda bog‘da” miniatyurasi [Boston, Museum of Fine Arts, Bartlett Fund and Special Contribution, 14.545; 17, No.667], temuriylar davri muqovalari [17, No. 834, 633, 631, 640], bezakli sahifalar [17, No. 852], Xalil Sulton davriga oid Samarqand mudofaasi tasvirlangan tarixiy mazmundagi miniatyuralar [Yildiz kutubxonasi, 1405-1409-yilga oid temuriylar davri hujjatlari jildidan; 17, no. 649] va boshqalar mavjud.

Bu asarlarning katalogda tizimlashtirilishi G‘arb san’atshunosligidagi hukmron “Yevrotsentrizm”, ya’ni, Yevropa Renessansini yagona yuksak madaniyat deb bilish ga oid qarashlariga chek qo‘ydi va Temuriylar Renessansi kitobat madaniyatini jahon madaniyatining eng yuqori cho‘qqilaridan biri sifatida tan olinishini ta’minladi.

Myunxen katalogida Temuriylar davri kitobat san’ati alohida ajratilgan holda emas, balki u bilan zamondosh bo‘lgan Temuriylar davri arxitektura siporishlari, koshinlari va metall kandakorligi (masalan, Amir Temur buyurtmasi bilan Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasi uchun quyilgan mashhur Tayqozon va shamdonlar) bilan solishtirma ravishda tahlil qilindi. Bu yondashuv Temuriylar davrida xattotlik (ayniqsa, suls, kufiy va nasta’liq xatlari) nafaqat kitob varaqlarida, balki me’morchilik va amaliy san’atda ham yagona estetik va kompozitsion tizimni tashkil etganini isbotlab berdi.

XULOSA

XX asr boshlarida G‘arbda Temuriylar davri kitob san’atiga bo‘lgan qiziqish P.Adam tadqiqotlari orqali shunchaki vizual kuzatuvdan yuksak muhandislik va texnologik mahorat mahsuli sifatida baholash bosqichiga o‘tdi. Uning izlanishlari keyingi davr tizimli tadqiqotlari uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. J.Karabachyokning fundamental izlanishlari islom dunyosida Samarqand qog‘ozi fenomenini ilmiy muomalaga kiritdi. Olim kimyoviy, mikroskopik va paleografik tahlillar yordamida Temuriy hukmdorlarning shaxsiy imzolari, kutubxona muhrlari va davlatchilik tizimi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni isbotladi. T.Gottlib, F.R.Martin va T.V.Arnold kabi olimlar Yevropa fondlaridagi noyob Temuriylar merosini ilk bor aniq rasmiy atributsiya qildilar. Ular miniatyuralarni alohida rassomlik maktablari va ustoz-shogirdlik (Ustod Gung va Ustoz Jahongir silsilasi) an’analari bo‘yicha tasniflab, Kamoliddin Behzod ijodini jahon madaniyatining yuksak cho‘qqisi sifatida Yevropaga tanitdilar. 1910-yilgi Berlin va Myunxen xalqaro ko‘rgazmalari ilgari yopiq bo‘lgan noyob sultonlik qo‘lyozmalari va san’at durdonalarini keng ilmiy jamoatchilik uchun ochib berdi. Ushbu anjumanlar katalogbuildlari Sharq san’atining nafis plastikasi va Buyuk Ipak yo‘li bo‘yidagi madaniy transformatsiyalar mahsuli ekanligini nazariy jihatdan asosladi. Myunxen ko‘rgazmasi katalogida Temuriylar kitobat madaniyatining xattotlik, me’morchilik va amaliy san’at bilan yagona estetik kompozitsion tizimni tashkil etgani ko‘rsatildi. Bu ilmiy xulosalar Yevropa san’atshunosligidagi hukmron "Yevrotsentrizm" qarashlariga chek qo‘yib, Temuriylar Renessansi maqomini xalqaro miqyosda rasman mustahkamladi. Umumiy aytganda, XX asr boshidagi G‘arb sharqshunoslari va katalog tuzuvchilari tomonidan yaratilgan ushbu

fundamental baza bugungi kunda ham Temuriylar davri kitobat san’ati va paleografiyasini zamonaviy metodlar asosida qayta tadqiq etishda eng ishonchli birlamchi manbaviy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Adam P. Der Bucheinband: seine Technik und seine Geschichte. – Leipzig: Seemann, 1890. – 280 p.

2. Adam P. Über türkisch-arabisch-persische Manuskripte und deren Einbände // Archiv für Buchbinderei. – 1904. – № 4. – P. 141-143; 1905. – № 4. – P. 145-152, 161-168, 177-185; 1905. – № 5. – P. 3-9.

3. Gottlieb T. Bucheinbände: K. K. Hofbibliothek. – Vienna: Schroll, 1910. – 84 p.

4. Karabaček J. von. Das arabische Papier: Eine historisch-antiquarische Untersuchung. – Wien: Hof- und Staatsdruckerei, 1887.

5. Karabaček J. von. Neue Entdeckungen zur Geschichte des Papieres und Druckes // Österreichische Monatsschrift für den Orient. – 1890. – № 16. – P. 161-170.

6. Karabacek J. von. Zur orientalischen Altertumskunde IV: Muhammedanischer Kunststudien // Kais. Akademie der Wissenschaften. Philosophische-historische Klasse. Sitzungsberichte. – Vienna, 1913. – № 172. – P. 33-60.

7. *Katalog der Ausstellung von Einbänden: K. K. Hofbibliothek.* – Wien: K. K. Hofbibliothek, 1900. – 197 p.

8. *Königliche Museen Berlin, Kunstgewerbemuseum.* Katalog der Sonderausstellung orientalischer Buchkunst: Handschriften und Miniaturen aus den Ländern des Islam und aus Ost-Turkestan (Februar – März 1910). – Berlin, 1910.

9. Loubier J. Orientalische Einbandkunst // Archiv für Buchbinderei. – 1910. – № 10 (X). – P. 33-43.

10. Loubier J. Die Einbandkunst in der muhammedanischen Ausstellung in München 1910 // Archiv für Buchbinderei. – 1910. – № 10. – P. 144-153.

11. Martin F. R. A history of oriental carpets before 1800. – Vienna: Court Printing Office, 1908. – P. 28–41.

12. Martin F. R. Les miniatures de Behzad dans un manuscrit persan daté 1485. – Munich: F. Bruckmann, 1912. – 22 plates on 20 leaves.

13. Martin F. R. The miniature painting and painters of Persia, India and Turkey, from the 8th to the 18th century. – London: B. Quaritch, 1912. – 160 p.

14. Martin F. R., Arnold T. W. Miniatures from the Period of Timur in a Ms. of the Poems of Sultan Ahmad Jalair. – Vienna: Adolf Holzhausen, 1926. – 28 p., 16 Plates.

15. Martin F. R., Arnold T. W. The Nizami ms: Illuminated by Bihzad, Mirak and Qasim Ali, written 1495 for Sultan Ali Mirza Barlās, ruler of Samarqand, in the British museum (Or. 6810). – Vienna: The author, 1926. – 9 p.

16. Martin F. R., Arnold T. W. The Nizāmī ms. from the library of the Shah of Persia: Now in the Metropolitan Museum at New York. – Vienna: F. R. Martin, 1927. – 18 p., 22 plates.

17. *München Ausstellung von Meisterwerken muhammedanischer Kunst 1910: Amtlicher Katalog.* – München: Die Ausstellung, 1910. – 1 volume.

Рахманкулова М. Б.
Ведущий научный сотрудник отдела научных исследований
Центр исламской цивилизации в Узбекистане
rbmatluba@gmail.com

ИЗУЧЕНИЕ КНИЖНОГО ИСКУССТВА ТИМУРИДОВ НА ЗАПАДЕ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется история изучения книжного искусства, переплетного дела, производства бумаги и миниатюрных школ эпохи Амира Тимура и Тимуридов западными исследователями в начале XX века. В исследовании освещаются научные изыскания таких европейских ученых, как П. Адам, Т. Готтлиб, Й. Карабачек, Ф.Р. Мартин и Й. Лубье, а также их вклад в развитие данной сферы. Также показано, что выставки восточного и мусульманского искусства, организованные в 1910 году в Берлине и Мюнхене, послужили важным фундаментом для ознакомления мировой общественности с шедеврами книжного искусства Тимуридов и для последующих систематических исследований.

Ключевые слова: эпоха Тимуридов, книжное искусство, переплетное дело, самаркандская бумага, миниатюра, Камолиддин Бехзод, Ф. Р. Мартин, Й. Карабачек, Мюнхенская выставка (1910), Берлинская выставка.

Rakhmankulova M. B.
Leading Researcher at the Scientific Research Department
Center of Islamic Civilization in Uzbekistan
rbmatluba@gmail.com

THE STUDY OF TIMURID BOOK ARTS IN THE WEST IN THE EARLY 20TH CENTURY

ABSTRACT

This article analyzes the history of Western research into Timurid book arts, bookbinding, paper production, and miniature schools during the early 20th century. The study highlights the scholarly contributions of European researchers such as P. Adam, T. Gottlieb, J. Karabacek, F. R. Martin, and J. Loubier, tracing their impact on the field. Furthermore, it demonstrates how the exhibitions of Oriental and Islamic art held in Berlin and Munich in 1910 served as a critical

foundation for introducing Timurid book masterpieces to the global scientific community and paving the way for subsequent systematic research.

***Keywords*:** Timurid period, book arts, bookbinding, Samarkand paper, miniature painting, Kamoliddin Behzod, F. R. Martin, J. Karabacek, Munich Exhibition (1910), Berlin Exhibition.

Razzokova N. O.
Faculty of Foreign Philology
National University of Uzbekistan
nigora.olimovnaa04@gmail.com

INCLUSIVE EDUCATION PRACTICES AND THEIR IMPACT ON LINGUISTICALLY DIVERSE LEARNERS IN MULTICULTURAL CLASSROOMS

ABSTRACT

This article examines the importance of inclusive education practices for linguistically diverse learners within multicultural classrooms. It also explores the implications of these practices on students from diverse linguistic and cultural backgrounds and discusses some of the challenges educators might face when implementing them in their classes. By analyzing both effective practices and existing challenges, the study highlights the importance of creating equitable learning environments where all students feel valued, respected, and provided with equal opportunities to succeed, regardless of their linguistic or cultural background.

Keywords: inclusive education, multicultural classroom, linguistic diversity, differentiated instruction, collaborative learning, translanguaging, culturally responsive teaching.

INTRODUCTION

Due to globalization and increased migration, educators now face linguistic diversity in classrooms and often there are students from diverse cultural backgrounds, resulting in a growing need for the use of inclusive education. According to the UNESCO Global Education Monitoring Report, 251 million children and young people remain out of school worldwide, highlighting that educational exclusion continues to be a global challenge of this time. [1] OECD data indicate that compared to 2018, the share of teachers who teach in schools with more than 10% of students who are non-native speakers increased by 7 percentage points. Ten education systems saw an increase of 25 percentage points or more in the proportion of schools where over 1 % of students are refugees [2]. These trends demonstrate the growing need for inclusive educational practices that support multilingual learners. Inclusive education is an educational approach that provides all students with equal access to quality education regardless of their abilities, backgrounds and gender [3].

Inclusion in education promotes equal access to quality education by removing barriers that students might face and providing study conditions to support diverse learning needs. Linguistic diversity in classroom is when students speak different native languages, dialects or language varieties, while multicultural classroom is an educational environment where students come from diversified cultural and linguistic backgrounds. The purpose of this article is to study educational practices

that can be used in inclusive classrooms and to see how they impact learners with different linguistic backgrounds.

MAIN RESULTS OF RESEARCH

Inclusive education practices

One of the most widely used inclusive education practices is differentiated instruction. It is a teaching approach that tailors instruction to all students' learning needs. All the students have the same learning goal. But the instruction varies based on students' interests, preferences, strengths, and struggles [4]. This way, teacher does not necessarily teach in one particular way, but can employ a variety of instructional methods according to learning abilities and needs of students. This can include teaching students in small groups, or one-to-one sessions if needed. As a result, students can have a variety of ways to learn, make sense of something or to express what they understood. However, critics claim that differentiated instruction may not work effectively in every classroom. If the teacher isn't experienced enough with the approach or if there are too many students in a class, the classroom is likely to become difficult to manage and unfocused.

Collaborative learning is another approach that can be used both inside and outside the classroom. Instead of learning individually, students actively work together in pairs or groups to discuss a topic, solve a problem or to complete a task. This approach emphasizes teamwork and student participation and engagement, moving away from traditional teacher-centered instruction to a more student-focused instruction, where teachers act as facilitators and coaches. They create interactive and effective tasks for students to work on and guide them through their exploration of those topics and application of that knowledge. Outside of class, learners collaborate on team projects or with tools, such as online discussion boards or social annotation software. With the use of collaborative learning, learners make sense of what they are learning, clarify misconceptions, and deepen their understanding of the course, as well as develop communication, leadership, and collaboration skills [5].

Translanguaging is an approach that allows learners to move fluidly between languages, think in multiple languages simultaneously and use their home language as a vehicle to learn academic content. According to Baker, translanguaging is the process of making meaning, shaping experiences, gaining understanding and knowledge through the use of two languages [6].

Natural translanguaging across writing and conversation:



The use of native language to learn offers deeper understanding of the subject than in a monolingual context where pupils can write on a topic without fully understanding it, since it is essential to process the information in order to present

it in another language. Furthermore, translanguaging means that it is possible to benefit from a wide range of learning resources, since resources from more than one language can be used in learning process. Despite its numerous pedagogical benefits, translanguaging also presents various challenges that might prevent its effective implementation in multilingual classrooms. These include insufficient teacher training, limited academic materials, challenges for the educators because of time constraints and use of many different languages and institutional resistance to the implementation of translanguaging practices. Addressing these challenges requires supportive educational policies, professional development, and assessment practices that recognize multilingual competence.

Culturally responsive teaching is a research-based approach that leverages students' assets – their cultures, languages, background knowledge and life experiences- to create rigorous, student-centered instruction. Zaretta Hammond defines Culturally Responsive Teaching as "an educator's ability to recognize students' cultural displays of learning and meaning making and respond positively and constructively with teaching moves that use cultural knowledge as a scaffold to connect what the students know to new concepts and content in order to promote effective information processing. All the while, the educator understands the importance of being in relationship and having a social-emotional connection to the student in order to create a safe space for learning" [7].

This method can reduce the gaps between the highest and lowest achievers while at the same time raising overall levels of student achievement. Research shows that culturally responsive pedagogies raise student achievement for all cultural groups, ensuring that all students are given the encouragement and support to realize their educational potential regardless of their social, economic or cultural background or individual needs.

Despite its benefits, culturally responsive teaching also faces some challenges such as limited teacher training, language barriers, insufficient culturally relevant resources, time and curriculum constraints and limited institutional support which might make its implementation in the classroom challenging or less effective.

Impact on Linguistically Diverse Learners

Inclusive education practices have a number of positive effects on learners. First of all, when methods such as differentiated instruction and culturally responsive teaching are used, students can understand the learning content better which leads to improved academic achievement. Collaborating with peers, discussing the topics, doing projects together, learners can improve their target language proficiency, learn from each other and at the same time develop a sense of belonging to that group of people. Inclusive education practices often lead to increased participation and confidence among linguistically diverse learners. When students feel supported and their languages and cultures are respected, they become more willing to engage in classroom activities and express their ideas. These practices also foster a stronger sense of belonging, helping learners feel accepted and valued within the school community. Furthermore, inclusive classrooms promote enhanced intercultural understanding by encouraging students from different cultural and linguistic backgrounds to interact, collaborate, and learn

from one another, thereby developing mutual respect and appreciation for diversity.

CONCLUSION

Inclusive education practices positively impact linguistically diverse learners by enhancing academic performance, supporting language development, promoting social inclusion, and fostering intercultural understanding in multicultural classrooms. I could say that rather than being applied separately, these inclusive practices are most effective when integrated into a comprehensive teaching approach that addresses students' academic, linguistic, and socio-cultural needs. However, successful implementation of practices we discussed depends on adequate teacher preparation, institutional support, and access to needed educational resources. As classrooms continue to become increasingly diverse with students from different linguistic and cultural backgrounds, educators should view this growing trend not as a challenge but as an asset that can make learners appreciate diversity and give them opportunity to learn in a multicultural environment. Creating inclusive learning environments will help ensure that every learner has equal opportunities to participate, succeed, and contribute to an equitable education system.

LIST OF USED SOURCES AND REFERENCES

1. UNESCO. (2024). Monitoring SDG 4: 2024/5 Global Education Monitoring Report

2. OECD. (2025). Results from TALIS 2024: Teaching for Today's World. OECD Publishing.

3. Ainscow, M. (2020). Promoting Inclusion and Equity in Education: Lessons from International Experiences. London: Routledge, p. 12.

4. Tucker, G. C. (n.d.). What Is Differentiated Instruction?

5. Johnson, David W. & Johnson, Roger T. (2009). An Educational Psychology Success Story: Social Interdependence Theory and Cooperative Learning. Educational Researcher, 38(5), p. 366

6. Baker, C. (2011). Foundations of Bilingual Education and Bilingualism (5th ed.). Bristol: Multilingual Matters, p. 288.

7. Hammond, Z. (2015). Culturally Responsive Teaching and the Brain: Promoting Authentic Engagement and Rigor Among Culturally and Linguistically Diverse Students. Thousand Oaks, CA: Corwin Press, p. 15.

8. https://www.unesco.org/reports/gem-report/en/2024-monitoringsdg4

9. https://www.oecd.org/en/publications/results-from-talis-2024_90df6235-en.html

10. https://www.unesco.org/en/inclusion-education/need-know?hub=70285

11. https://www.edglossary.org/collaborative-learning-community/

12. https://ready4rigor.com/

Razzoqova N. O.
Xorijiy filologiya fakulteti
O‘zbekiston Milliy universiteti
nigora.olimovnaa04@gmail.com

INKLYUZIV TA‘LIM AMALIYOTLARI VA ULARNING KO‘P MADANIYATLI SINFLARDA TURLI TILLI O'QUVCHILARGA TA‘SIRI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ko‘p madaniyatli sinflarda til jihatidan xilma-xil o‘quvchilar uchun inklyuziv ta’lim amaliyotlarining ahamiyatini tahlil qiladi. Shuningdek, ushbu amaliyotlarning turli til va madaniy kelib chiqishga ega o‘quvchilarga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganadi hamda ularni dars jarayonida amalga oshirishda pedagoglar duch kelishi mumkin bo‘lgan ayrim muammolarni muhokama qiladi. Samarali usullar va mavjud muammolarni tahlil qilish orqali maqola barcha o‘quvchilar o‘zini qadrlangan, hurmat qilingan va teng imkoniyatlarga ega deb his qiladigan adolatli ta’lim muhitini yaratish muhimligini ta’kidlaydi. Bu esa ularning tili yoki madaniy kelib chiqishidan qat’i nazar, muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur sharoitlarni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta‘lim, ko'p madaniyatli sinf, lingvistik xilma-xillik, differensiallashtirilgan ta'lim, hamkorlikda o'qitish, tillararo erkin til almashinuvi, madaniy jihatdan moslashuvchan ta‘lim.

Раззокова Н. О.
Факультет зарубежной филологии
Национальный университет Узбекистана
nigora.olimovnaa04@gmail.com

ПРАКТИКИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА УЧАЩИХСЯ С ЛИНГВИСТИЧЕСКИМ РАЗНООБРАЗИЕМ В ПОЛИКУЛЬТУРНЫХ КЛАССАХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается значение инклюзивных образовательных практик для учащихся с различным языковым опытом в условиях мультикультурных классов. Кроме того, анализируется влияние этих практик на учащихся с различным языковым и культурным происхождением, а также обсуждаются некоторые трудности, с которыми педагоги могут столкнуться при их внедрении в образовательный процесс. На основе анализа эффективных практик и существующих проблем в статье подчёркивается важность создания справедливой образовательной среды, в которой каждый учащийся чувствует себя ценным, уважаемым и имеет

равные возможности для достижения успеха независимо от своего языкового или культурного происхождения.

Ключевые слова: инклюзивное образование, поликультурный класс, лингвистическое разнообразие, дифференцированное обучение, совместное обучение, транслингвизм, культурно-ориентированное обучение.

Sadirov A. S.
«Ijtimoiy va gumanitar fanlar» kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
Qarshi davlat texnika universiteti
Sadirovaziz81@gmail.com

MUSTAQILLIK ARAFASIDA QASHQADARYO VILOYATIDA YO'L-TRANSPORT INFRATUZILMASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston mustaqilligi arafasida Qashqadaryo viloyatida yo‘l-transport infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari tarixiy jihatdan tahlil qilingan. Viloyatdagi avtomobil yo‘llari, temir yo‘l tarmoqlari, ko‘priklar va transport xizmatlarining holati, ularni barpo etish hamda rekonstruksiya qilish ishlari yoritilgan. Shuningdek, yo‘l-transport tizimining hudud iqtisodiyoti, sanoat korxonalari, qishloq xo‘jaligi va aholi punktlari o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Sovet davrining so‘nggi yillarida sohada mavjud bo‘lgan moddiy-texnik, tashkiliy va moliyaviy muammolar hamda ularning transport qatnoviga ta’siri ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijasida mustaqillik arafasida shakllangan yo‘l-transport infratuzilmasi viloyatning keyingi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilgani asoslangan.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo viloyati, yo‘l-transport infratuzilmasi, avtomobil yo‘llari, temir yo‘l, transport tizimi, ko‘priklar, hududiy rivojlanish, iqtisodiy aloqalar, mustaqillik arafasi, transport xizmatlari.

KIRISH

Mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy aloqalarning uzilishi, giperinflyatsiya va milliy valyutaning joriy etilishi jarayonidagi moliyaviy qiyinchiliklar yo‘l xo‘jaligini davlat tomonidan to‘liq moliyalashtirish imkonini cheklab qo‘ydi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning milliy yuk va yo‘lovchi tashish transportlari qo‘shni respublikalar (Tojikiston va Turkmaniston) hududi orqali o‘tishga majbur edi, bu esa iqtisodiy va siyosiy jihatdan tranzit qaramlikni keltirib chiqardi. Qashqadaryoni respublika markazi bilan bog‘lovchi yagona xavfsiz transport koridorini yaratish zarurati tug‘ildi.

1990-yil boshlariga kelib, Qashqadaryo viloyatida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarining uzunligi bor-yo‘g‘i 4200 km ni tashkil etar, shundan atigi 35 foizi qattiq qoplamali (asfaltlangan) yo‘llar toifasiga kirardi[1]. Ayniqsa, tumanlararo ahamiyatga ega bo‘lgan Qarshi–Kasbi, Kitob–Shahrisabz, G‘uzor–Qamashi yo‘nalishlaridagi yo‘l qoplamalarining 60 foizdan ortig‘i yaroqsiz holga kelib qolgan edi.

O‘zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish, undan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, transport kommunikatsiyalarini modernizatsiya

qilish hamda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tarixiga oid ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu masala tarixchi, iqtisodchi, geograf, huquqshunos va transport sohasi mutaxassislari tomonidan muayyan darajada o‘rganilganini ko‘rsatadi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Sovet davridan meros qolgan yo‘l infratuzilmasining nochorligi Qashqadaryo iqtisodiyotining xomashyo asoratidan chiqishini qiyinlashtirdi. Ichki yo‘llarning nosozligi oqibatida 1990–1991-yillarda viloyatda yetishtirilgan meva-sabzavot va poliz mahsulotlarining qariyb 30 foizi iste’molchiga yetib bormasdan, transport vositalarida nobud bo‘ldi [2]. Bu holat yangi tashkil etilayotgan mustaqil davlat boshqaruv organlari oldiga Qashqadaryoning yo‘l-transport tizimini tubdan isloh qilish va kommunikatsiya xavfsizligini ta’minlash masalasini eng ustuvor vazifa qilib qo‘ydi.

1992–1993-yillarda Qashqadaryo viloyatida yo‘l transporti sohasida xususiylashtirish jarayonlari boshlandi. Avtotransport korxonalari aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Biroq, dastlabki bosqichda tizimsiz yondashuv tufayli yuk tashish hajmi keskin kamaydi. Agar 1990-yilda viloyat avtotransport korxonalari tomonidan 24,5 million tonna yuk tashilgan bo‘lsa, 1993-yilga kelib bu ko‘rsatkich 11,2 million tonnaga tushib qoldi [3]. Ushbu yillar davomida Qashqadaryo viloyatida avtomobil yo‘llarining iqtisodiy funksiyasi kuchaygan davr bo‘ldi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tashishda avtomobil transporti asosiy yukni o‘z zimmasiga oldi, biroq texnik baza va moliyaviy imkoniyatlar cheklanganligi sababli yo‘l sifatida keskin o‘sish kuzatilmadi.

1993–1994-yillarda transport sohasida bozor mexanizmlarining joriy etilishi investitsiyalar tanqisligi sharoitida kechdi. Faqatgina 1994-yil iyun oyida milliy valyuta – so‘mning muomalaga kiritilishi va Respublika yo‘l jamg‘armasining tashkil etilishi sohaga maqsadli moliyaviy oqimlarni yo‘naltirish imkonini berdi”[4].

Mustaqillikning dastlabki yillarida Qashqadaryo viloyati transport tizimida eng katta muammo Tojikiston va Turkmaniston temir yo‘llariga qaramlik edi. Shu sababli, avtomobil yo‘llari, xususan, dovon yo‘llari respublika iqtisodiyoti uchun hayot-mamot masalasiga aylandi [5]. 1995-yil 17-avgustda G‘uzor–Boysun–Qumqo‘rg‘on temir yo‘l liniyasini loyihalashtirish va qurish masalalari bo‘yicha dastlabki hukumat qarori qabul qilingan. Keyinchalik 2003-yilgi hukumat qarorida ushbu 1995-yilgi qaror mazkur yirik infratuzilmaviy loyihaning huquqiy asosi sifatida eslatib o‘tilgan[6]. Bu qaror Qashqadaryo viloyatida temir yo‘l infratuzilmasini kengaytirish tarixida muhim bosqich bo‘ldi. G‘uzor–Toshguzar–Dehqonobod yo‘nalishining strategik ahamiyati oshdi.

1996–1998-yillarda Qashqadaryo viloyati hududidan o‘tuvchi A-380 “G‘uzor–Buxoro–Nukus–Deynov” xalqaro avtomagistralining boshlang‘ich nuqtasi bo‘lgan G‘uzor–Qarshi qismini xalqaro andozalar darajasida qayta qurish ishlari jadallashdi[7]. Ushbu yo‘nalish viloyat iqtisodiyoti uchun “hayot arteriyasi” hisoblanib, Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi (qurilishi 1998-yilda boshlangan) mahsulotlarini g‘arbiy yo‘nalishda eksport qilishning asosiy poydevori edi.

1996-yilda ushbu xalqaro ahamiyatdagi magistrallarning viloyat hududidan o‘tuvchi qismlarining umumiy texnik yaroqlilik darajasi 55 foizni tashkil etgan edi. Ushbu ko‘rsatkich sovet davridan qolgan yuk ko‘tarish quvvati pastligi va asfalt qoplamasining shiddatli og‘ir tonnali yuklar oqimiga bardosh bera olmaganidan dalolat beradi. Biroq 1996–2000-yillar oralig‘ida hukumat tomonidan yo‘naltirilgan maqsadli kapital mablag‘lar evaziga ushbu ko‘rsatkich 2000-yil yakuniga kelib 78 foizga yetkazildi. Bu davrda xalqaro va respublika ahamiyatidagi yo‘llarni ta’mirlash va saqlash uchun ajratilgan mablag‘lar ajratilgan smeta-loyiha rejalariga nisbatan 90-95 foizlik ko‘rsatkich bilan deyarli to‘liq moliyalashtirildi. Bunday yuqori moliyaviy barqarorlik Respublika yo‘l jamg‘armasining markazlashtirilgan fondlari hamda ilk bor jalb etilgan xorijiy investitsiya resurslari hisobidan ta’minlandi [8].

Aksincha, voha iqtisodiyotining ichki qon tomirlari hisoblangan mahalliy, tumanlararo va qishloqlararo avtomobil yo‘llarida butunlay teskari inqirozli manzara kuzatildi. 1996-yilda mahalliy ahamiyatdagi yo‘llarning texnik jihatdan qoniqarli va yaroqlilik darajasi 40 foizni tashkil etgan bo‘lsa, keyingi besh yillik turg‘unlik oqibatida, ya’ni 2000-yilga kelib bu ko‘rsatkich keskin ravishda 22 foizga tushib ketdi. Buning bosh iqtisodiy sababi – davlat byudjetidagi defitsit sharoitida mahalliy infratuzilmaga mablag‘ ajratishning "qoldiq prinsipi" asosida amalga oshirilgani bo‘ldi. Ushbu davrda mahalliy va qishloq yo‘llarining real ehtiyojlariga nisbatan moliyalashtirish darajasi bor-yo‘g‘i 10-12 foiz atrofida cheklandi.

Ushbu moliyaviy uzilish voha qishloqlarida jiddiy iqtisodiy asoratlarni keltirib chiqardi. Sobiq kolxoz va sovxozlar balansida bo‘lgan minglab kilometr ichki yo‘llar yangi tashkil etilgan shirkat xo‘jaliklarining moddiy imkoniyati yo‘qligi sababli mutlaqo qarovsiz qoldi. Yo‘llardagi bunday chuqur nomutanosiblik xalqaro magistrallar bo‘yida joylashgan yirik sanoat markazlarining (Qarshi, Muborak, G‘uzor) tez sur’atlar bilan rivojlanishiga, biroq agrar tumanlarning (Chiroqchi, Kasbi, Nishon, Yakkabog‘) ichki bozorlar bilan logistik aloqasi uzilib, iqtisodiy jihatdan oqsashiga olib keldi.

2001–2005-yillar Qashqadaryo transport infratuzilmasi tarixida “tub burilish davri” bo‘ldi. 2003-yil 24-yanvarda “Toshguzar–Boysun–Qumqo‘rg‘on” yangi temir yo‘l liniyasi qurilishini jadallashtirish to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi. Unda Toshguzar–Dehqonobod va Boysun–Qumqo‘rg‘on uchastkalari bo‘yicha loyihalash-qurilish ishlarini amalga oshirish vazifalari belgilandi[9]. Toshguzar–Boysun–Qumqo‘rg‘on temir yo‘li qurilishining boshlanishi munosabati bilan Dehqonobod tumanining eng chekka va borish qiyin bo‘lgan tog‘li hududlariga yirik yo‘l-qurilish texnikalari safarbar etildi. Temir yo‘l qurilishini moddiy-texnik resurslar bilan ta’minlash uchun parallel ravishda 110 km dan ortiq yangi texnik avtomobil yo‘llari qurildi va mavjudlari rekonstruksiya qilindi[10].

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2003-yilda Qashqadaryo viloyatida yo‘l qurilishi sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2000-yilga nisbatan 3,4 barobarga oshdi [11]. Davriy matbuot ushbu qurilishni “Asr voqeligi” sifatida baholadi. Toshguzar–Boysun–Qumqo‘rg‘on loyihasi nafaqat temir yo‘l, balki Qashqadaryoning janubiy darvozasi bo‘lgan

Dehqonobod tog‘li qishloqlariga zamonaviy asfalt yo‘llar, ko‘priklar va aloqa tizimlarini olib kirgan infratuzilmaviy inqilobdir [12].

2006-yilda Qashqadaryo viloyatida avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash ishlari uchun davlat va mahalliy jamg‘armalardan jami 12,4 milliard so‘m miqdorida mablag‘ yo‘naltirildi. Bu mablag‘ evaziga asosan mavjud yo‘llarning eskirgan qismlarini yamash va saqlash ishlari bajarilib, yil yakuniga ko‘ra xalqaro andozalar talablari asosida to‘liq rekonstruksiya qilingan yo‘llar hajmi atigi 18 kilometrni tashkil etdi [13]. Ushbu boshlang‘ich davr infratuzilmada yuk tashish xavfsizligi va tezligi bo‘yicha tub burilish yasashga ojizlik qilar edi va tarmoqdagi barcha ko‘rsatkichlar tahlili uchun boshlang‘ich (baza) nuqta bo‘lib xizmat qildi.

2007-yil 26-oktabrda Prezidentning PQ-717-sonli “Toshguzar–Boysun–Qumqo‘rg‘on yangi temir yo‘l liniyasidan foydalanishni tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorda ushbu liniya Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarini respublikaning boshqa hududlari bilan ishonchli bog‘lovchi yagona temir yo‘l kommunikatsiyalari tizimini shakllantirgani qayd etildi[14]. Qaror natijasida loyihaning temir yo‘l qismi 2007-yilda to‘liq bitkazildi. Qashqadaryoning janubiy tumanlari transport infratuzilmasini tubdan yaxshiladi. Bu esa Qashqadaryo viloyati janubiy O‘zbekistonning temir yo‘l-logistika tizimidagi tayanch hududga aylandi. Avtomobil transportiga tushadigan yuk bosimining bir qismi temir yo‘lga o‘tishiga sababchi bo’ldi.

2008-yilga kelib, viloyatning tranzit logistik salohiyatini oshirish maqsadida, Sho‘rtan va Muborak sanoat komplekslarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lovchi avtomagistral qismlarini modernizatsiya qilish boshlandi. Natijada sohaga ajratilgan yalpi mablag‘lar hajmi 2006-yilga nisbatan ikki barobarga oshib, 24,8 milliard so‘mga yetdi. Investitsiyalar oqimining bu tariqa kengayishi muhandislik ishlari hajmini ham oshirdi va kapital rekonstruksiya qilingan xalqaro ahamiyatdagi yo‘llar uzunligi yillik 35 kilometrga yetkazildi [15]. Yo‘l qoplamasining yaxshilanishi, ko‘rinish darajasining kengayishi va yo‘l belgilarining xalqaro standartlar asosida o‘rnatilishi natijasida, viloyat hududidan o‘tuvchi xalqaro magistrallarda sodir bo‘ladigan yo‘l-transport hodisalari (YTH) soni boshlang‘ich davrga nisbatan 4,2 foizga kamayishiga erishildi.

2006–2010-yillarda viloyatda yo‘l qurilishini moliyalashtirish manbalari diversifikatsiya qilindi. Respublika Yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari bilan bir qatorda, Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va Arab koordinatsiya guruhining xorijiy kreditlari jalb etila boshlandi. 2009–2010-yillarda M-39 xalqaro yo‘lining G‘uzor tumanidan o‘tuvchi 40 km lik qismi hamda A-380 yo‘lining Qarshi–Muborak yo‘nalishidagi parchalari tsement-beton va yangi turdagi asfalto-beton qoplamaga o‘tkazildi[16].

2010-yil yakunlariga kelib, Milliy avtomagistral dasturining viloyatdagi ijrosi o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Bu yilda Qashqadaryo yo‘l xo‘jaligiga ajratilgan yalpi mablag‘ miqdori reaktiv sur’atda o‘sib, 56,1 milliard so‘mni tashkil etdi (bu 2006-yildagiga nisbatan qariyb 4,5 barobar ko‘pdir). Bunday yirik moliyaviy inyeksiya tarkibida Osiyo taraqqiyot bankining uzoq muddatli kredit liniyalari va investitsiyalari salmoqli o‘rin tutdi [17]. Natijada bir yilning o‘zida 72 kilometrlik xalqaro magistral yo‘li (xususan, A-380 yo‘lining Qarshi–Muborak va

M-39 yo‘lining G‘uzor tumanidan o‘tuvchi qismlari) jahon andozalari darajasidagi birinchi texnik toifali, tsement-beton qoplamali tezyurar yo‘nalishga o‘tkazildi.

Ushbu keng ko‘lamli muhandislik ishlari nafaqat iqtisodiy, balki ulkan ijtimoiy samara berdi. Qarama-qarshi harakatlanish yo‘laklarining monolit beton to‘siqlar (Nyu-Jersi to‘siqlari) bilan taqsimlanishi, zamonaviy transport bog‘lamalari va tun osidagi yoritish tizimlarining joriy etilishi natijasida, viloyat bo‘yicha xalqaro va respublika ahamiyatidagi yo‘llarda sodir bo‘ladigan og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalari ko‘rsatkichining 11,5 foizga keskin kamayishi ta’minlandi [18]. Bu ko‘rsatkich yo‘l infratuzilmasiga kiritilgan har bir so‘m investitsiya nafaqat logistika tezligini oshirgani, balki voha hududida insonlar hayoti va xavfsizligini ta’minlashning eng muhim omili bo‘lib xizmat qilganini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

2011–2015-yillar oralig‘ida Qashqadaryoda "Qarshi aylanma avtomobil yo‘li" loyihasi amalga oshirildi. Bu loyihaning maqsadi – tranzit yuk transport vositalarini Qarshi shahar markaziga kiritmasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri Surxondaryo, Buxoro va Samarqand yo‘nalishlariga yo‘naltirish edi [19].

Shu bilan birga, 2012–2015-yillarda "Obod turmush yili" va "Farovonlik yili" dasturlari doirasida viloyatning 120 dan ortiq qishloq fuqarolar yig‘inlaridagi ichki yo‘llarga qum-shag‘al aralashmasi to‘shaldi va 450 km qishloq yo‘llari to‘liq asfaltlandi[20]. 2015-yil yakunlariga ko‘ra, viloyatda yuk aylanmasi tarkibida avtomobil transportining ulushi 84,5 foizni tashkil etib, yetakchi o‘ringa chiqdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, davlatning transport siyosati dastlab tranzit qaramlikdan chiqish (1990-yillar), so‘ngra ichki integratsiyani ta’minlash (2000-yillar) va yakunda xalqaro transport xabiga aylanish (2010-yillar) bosqichlaridan iborat bo‘lganini ko‘rsatadi. Viloyatda yo‘l infratuzilmasining yaxshilanishi Sho‘rtan GKM, Muborak GNEZ va Dehqonobod kaliy zavodi kabi sanoat gigantlarining barpo etilishi hamda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda multiplikativ samara berdi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Qashqadaryo viloyati davlat arxivi, 45-fond, 1-ro‘yxat, 12-ish, 4-b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 1991, 78-b.
3. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi joriy arxivi, 1994, 14-b.
4. Abdullayev X. O‘tish davrida O‘zbekiston transport tizimidagi tarkibiy islohotlar // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2014. – № 2. – B. 12.
5. Ergashev Sh. Mustaqil O‘zbekistonda transport kommunikatsiyalarining rivojlanishi: Tar. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2004. – B. 112.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 24-yanvardagi 43-son qarori
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 1998, 44-b.
8. To‘rayev A. Janubiy O‘zbekiston iqtisodiy infratuzilmasi. – Toshkent: Fan, 2002. – B. 89.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 24-yanvardagi 43-son qarori.
10. O‘zbekiston Milliy arxivi, M-9-fond, 2-ro‘yxat, 315-ish, 77-b.
11. O‘zbekiston iqtisodiy ko‘rsatkichlari to‘plami, 2004, 112-b.
12. Xalq so‘zi, 2004-yil, 18-sentyabr.
13. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari: yillik statistik to‘plam. – Qarshi, 2007. – B. 142-145.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 26-oktabrdagi PQ-717-son qarori.
15. O‘zMA,. M-9-fond, 4-ro‘yxat, 512-ish, 44-51-varaqlar.
16. Qashqadaryo viloyati yo‘llardan foydalanish boshqarmasi hisoboti, 2010, 41-b.
17. Qashqadaryo viloyati hokimligi joriy arxivi. 2010-yilda viloyatda O‘zbekiston Milliy avtomagistrali dasturining ijro etilishi va xorijiy moliya institutlari mablag‘larining o‘zlashtirilishi to‘g‘risidagi yakuniy tahliliy ma’lumotnoma. 56-fond, 1-ro‘yxat, 189-ish, 12-24-b.
18. Qashqadaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (YHXB) tahliliy materiallari. Viloyat hududidan o‘tuvchi xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash va avariyalarni kamaytirish dinamikasi (2006–2011-yy.). – Qarshi, 2011. – B. 4-9.
19. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 2013, 14-b.
20. Qashqadaryo viloyati hokimligi hisoboti, 2015, 19-b.

Садиров А. С.
Независимый научный сотрудник кафедры «Социально-гуманитарные науки»
Каршинский государственный технический университет
Sadirovaziz81@gmail.com

ПРОЦЕССЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ДОРОЖНО-ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ НАКАНУНЕ НЕЗАВИСИМОСТИ

АННОТАЦИЯ

В статье с исторической точки зрения анализируются процессы формирования и развития дорожно-транспортной инфраструктуры Кашкадарьинской области накануне обретения Узбекистаном государственной независимости. Рассматривается состояние автомобильных и железных дорог, мостов и транспортного обслуживания региона, а также работы по их строительству и реконструкции. Раскрывается роль дорожно-транспортной системы в развитии связей между промышленными предприятиями, сельскохозяйственными районами и населёнными пунктами области. Особое внимание уделяется материально-техническим, организационным и финансовым проблемам, существовавшим в транспортной сфере в последние годы советского периода, и их влиянию на

качество транспортного сообщения. Обосновано, что сформировавшаяся накануне независимости дорожно-транспортная инфраструктура стала важной основой последующего социально-экономического развития области.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, дорожно-транспортная инфраструктура, автомобильные дороги, железная дорога, транспортная система, мосты, региональное развитие, экономические связи, канун независимости, транспортное обслуживание.

Sadirov A. S.
Independent researcher at the Department of «Social Sciences and Humanities»
Karshi State Technical University
Sadirovaziz81@gmail.com

PROCESSES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF ROAD TRANSPORT INFRASTRUCTURE IN THE KASHKADARYA REGION ON THE EVE OF INDEPENDENCE

ABSTRACT

This article provides a historical analysis of the formation and development of road and transport infrastructure in the Kashkadarya region on the eve of Uzbekistan’s independence. It examines the condition of highways, railway networks, bridges and transport services, as well as their construction and reconstruction. The role of the road and transport system in strengthening connections between industrial enterprises, agricultural areas and settlements of the region is also discussed. Particular attention is paid to the technical, organizational and financial problems that existed in the transport sector during the final years of the Soviet period and their impact on the quality of transportation services. The study concludes that the road and transport infrastructure established on the eve of independence served as an important foundation for the subsequent socio-economic development of the region.

Keywords: Kashkadarya region, road and transport infrastructure, highways, railway, transport system, bridges, regional development, economic relations, eve of independence, transport services.

Сиддиков Р. Б.
«Ўзбекистон тарихи» кафедраси доценти., т.ф.н.
Ўзбекистон Миллий университети
ravsidd@mail.ru

ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ХАЛҚАРОЛАШУВИ ТАРИХИГА ДОИР (1997-2016)

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада Кадрлар тайёрлаш миллий дастури асосида Ўзбекистон олий таълим тизимида халқаро алоқаларни йўлга қўйилиши ва уни ривожланиб бориши жараёнлари таҳлил қилинган. Шунингдек олий таълим ва кадрлар тайёрлаш тизимини халқаролашувини ўзига хос жиҳатлари ва босқичлари кўрсатилган.Ўзбекистонда хорижий университетлар филиалларининг миллий кадрлар тайёрлашдаги иштироки ва халқаро ташкилотлар билан бу борадаги ҳамкорликни қиралари ёриталган.

Калит сўзлар: Кадрлар тайёрлаш миллий дастури, олий таълим, халқаро ҳамкорлик, «Умид» жамғармаси, «Устоз» жамғармаси, «Истеъдод» жамғармаси, глобаллашув, халқаролашув, интеграция, олий таълим сифати.

КИРИШ

Ўзбекистон таълим тизимини барча бўғинларини ислоҳ қилиш ва узлуксиз таълим тизимини шакллантиришга қаратилган Таълим тўғрисидаги Қонун ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини 1997 йилда қабул қилиниш олий таълим тизимида ҳалқаро алоқаларни ривожлантиришда ҳамда жаҳон стандартларига мос замонавий олий таълим тизимини шакллантиришда янги даврни бошлаб берди. Таълим ва кадрлар тайёрлаш соҳасидаги халқаро ҳамкорлик Кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг амалга оширишни муҳим йўналишларидан бири сифатида белгиланди. Аввалambор, дастурга асосан юқори малакали кадрлар тайёрлашда халқаро ҳамкорликни устивор йўналишларига эътибор қаратилди ва хорижий тажрибани ўрганиш, илмий-педагогик кадрлар, талабалар алмашувини кенгайтириш, Ўзбекистон таълим тизимига чет эл инвестицияларини бевосита ва билвосита кенг жалб қилиш борасидаги фаолиятни кучайтириш вазифаси қўйилди. Шунингдек, кадрлар тайёрлаш соҳасидаги ҳамкорликнинг халқаро-ҳуқуқий базасини яратишга киришилди [1].

ТАДҚИҚОТНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ

Ўзбекистонда узлуксиз таълим тизимини шакллантиришда ва юқори малакали кадрлар тайёрлашда хорижий илғор тажрибани аҳамиятини инобатга олиб ҳамда “халқ хўжалигининг устувор тармоқлари учун юксак малакали мутахассислар тайёрлаш мақсадида” 1997 йили 7 январда Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентиниг “Иқтидорли ёшларнинг чет элда таълим олишларини қўллаб-қувватлаш «Умид» жамғармасини тузиш тўғрисида” Фармони эълон қилинди [2]. Ушбу фармоннинг аҳамиятли жиҳати

шундан иборатки, давлат ва жамият эҳтиёжларидан келиб чиқиб иқтидорли ёшларнинг жаҳон андозалари талаблари даражасидаги илғор билимлар асосида таҳсил олишлари, юқори малакали мутахассис бўлиб етишишларига моддий-маънавий ҳомийлик қилишни давлат ўз зиммасига олди. Шунигдек фармонга биноан илк бор «Умид» жамғармаси томонидан дастлабки иқтидорли талабалар танлов асосида саралаб олиниб 1997-1998 ўқув йилида Ўзбекистон ижтимоий ва иқтисодий жабҳалари учун зарур бўлган, бозор иқтисодиёти талабларига жавоб берадиган устивор мутахасисликлар – иқтисодиёт, халқаро ҳуқуқ, ахборот ва компьтерлаштириш, табиий фанлар, қишлоқ хўжалиги, экология ва сув тизимлари, журналистика мутахасиссликлари бўйича хорижда нуфузли университетларда бакалавриат ва магистратурада ўқишга жунатилди. Танловда нафақат пойтахт ОЎЮлари шунингдек вилоят университетлари СамДу, ФарДу, НамДу ва бошқа олий ўқув юртлари ҳам фаол иштирок этдилар. Масалан 1997-1999 ўқув йилларида СамДу талабаларининг 11 нафари «Умид» жамғармаси танлови ғолиблари сифатида хорижга етакчи университетларга ўқишга юборилди. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки «Умид» жамғармаси танловларида Ўзбекистон Миллий университети талабалари ҳам фаол қатнашдилар.1999 йилда университетнинг 130 талабаси 8 йўналиш бўйича танловда иштирок этиб, 5 та йўналиш бўйича 14 та талаба АҚШ, Англия ва Германияни етакчи олийгоҳларида ўқиш имкониятига эга бўлдилар [3].

1998-1999 ўқув йилида «Умид» жамғармаси томонидан хорижда ўқиш учун олдинги йилга нисбатан анча кўп грант ўринлари ва маблағ, яъни квота бўйича 400 киши ва 12 млн 700 минг доллар ажратилди. Танловда қатнашган 1800 нафар талабгордан 317 нафари синовдан муваффақиятли ўтди ва 173 нафари дунёни етакчи университетларида бакалавриатда ҳамда 144 нафари магистратурада ўқишга тавсия этилди. Уларни 176 нафари АҚШга, 78 нафари Буюк Британияга, 32 нафари Германияга, 13 нафари Францияга, 11 нафари Японияга ва 7 нафари Италияга ўқишга тақсимланди [4].

Истеъдодли ёшларни излаб топиш, уларга кўмаклашиш, уларнинг қобилиятлари ва истеъдодларини ривожлантириш бўйича махсус жамғармаларнинг самарали фаолияти натижасида 1999 йилга келиб 643 нафар иқтидорли талабалар хорижга жўнатилди [5]. Мамлакатни олий малакали, жаҳон андозаларига жавоб берадиган мутахасиссларга бўлган эҳтиёжидан келиб чиқиб асосий эътибор ивестициялар ва қиммат баҳо қоғозлар, халқаро тижорат ва молия ҳуқуқи, қишлоқ хўжалигини ахборотлаштириш ва компьютерлаштириш, экология ва сув ресурсларини бошқариш, машинасозлик ҳамда қурилиш менежменти соҳаларига кадрлар тайёрлашга қаратилди. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, хорижда ўқишга саралаб олинган талабаларнинг 1997 йилда 60 фоизи вилоятлар вакилларидан иборат бўлган бўлса, 1998 йилда улар 69 фоизини ташкил қилди. Айни пайтда танлаб олинган талабаларнинг қарийб 10 фоизини қизлар, 96,8 фоизини махаллий миллат вакиллари (300 нафар ўзбеклар) ва (7 нафар қорақалпоқлар) қолган 3,2 фоизини давлат тилини мукаммал эгаллаган рус, татар ҳамда корейслар миллати вакиллари ташкил қилди [6].

Хорижга ўқишга жунатилган талабаларни дастлабки 73 нафари Ўзбекистон эҳтиёжлари учун зарур бўлган соҳаларни мукаммал эгаллаб 1999 йилда ватанга қайтдилар ва турли соҳаларда ўз фаолиятларини бошладилар [7].

Умуман олганда «Умид» жамғармаси кўмагида 1997-2003 йиллар давомида саралаб олинган 828 нафар йигит-қизлар дунёни тараққий этган давлатлари етакчи университетларида тахсил олдилар[8]. Шу жумладан, 363 (44%) нафар бакалавр ва 465 (56%) нафар магистр. Давлатлар кесимида хорижга ўқишга юборилган талабаларни тақсимланашига эътибор қаратсак , Америка Қўшма Штатларига 343, Буюк Британияга 329, Германияга 84, Францияга 33, Японияга 20, Канадага 11 ҳамда Италияга 8 нафар грант совриндорлари ОТМ ва илмий марказларга жўнатилди[9]. Юқорида таъкидлаганимиздек, танловда Жаҳон Иқтисодиёти ва дипломатия университети (242 нафар), Тошкент Давлат техника университети (127 нафар), Тошкент Давлат иқтисодиёт университети (84 нафар), вилоят ОЎЮларидан Фарғона Давлат университети (27 нафар), Андижон мухандислик-иқтисодиёт институти (18 нафар), Самарқанд Давлат университети (15 нафар) ва бошқа олийгохлар талабалари грант совриндорлари бўлдилар [10]. Келтирилган маълумотлардан кўриниб турибтики «Умид» жамғармаси танловида асосан Республикани етакчи университетлари талабалари грант соҳиби бўлдилар. Айни пайтда, Жанубий вилоятлар, Бухаро, Навоий, Жиззах, Сирдарё худудлари ОТМлари талабалари юқори натижа кўрсата олмадилар [11].

«Умид» жамғармаси фаолияти давомида маълум муаммолар ҳам юзага келди, хорижга жўнатилган талабаларни барчаси ҳам ўқишни тугатиб объектив ва субъектив сабабларга кўра ўз вақтида Ўзбекистонга қайтмади. Уларни баъзилари кейинги босқичда ўқишни давом этириш учун хорижда қолган бўлса бошқалари юқори маош ва ўз соҳалари бўйича яхши иш шароити таклиф қилингани учун хорижда қолишни афзал кўрдилар. «Умид» жамғармаси совриндори 1998-2000 йилларда АҚШнинг Йель университетида тахсил олган, Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазири Шерзод Шерматов ўзининг ўқув йилларидаги хотиралари ва жамғарма фаолияти ҳақидаги интервьюсида Ватанга қайтган баъзи грат соҳибларини ишга тўғри тақсимланмаганлиги оқибатлари тўғрисида шундай дейди “Кўплаб «Умид»чилар асосан хизматлари тақсимланган жойларида ўзларини намоён қилиш имкониятини топа олмаганликлари сабаб давлат хизматини тарк этишди. Ҳа, кейин давлат хизматидаги иш ҳақи жуда паст эди, иш тартиби жуда қийин эди, агар раҳбар билан муносабат яхши бўлиб, ривожланиш имконияти бўлганида эди кам ойлик ва оғир ишга ҳам чидаса бўларди…” [12]. Бундай аҳволдан хабар топган айрим бакалавр ва магистрлар ўз фаолиятларини хорижда қолиб давом этирдилар. 2003 йилда 560 дан зиёд грант совриндорларини аксарияти ўқишни муваффақиятли тамомлаб ватанга қайтилар ва махсус ишчи гуруҳининг қарорига биноан мамлакатнинг 80 дан ортиқ ташкилотларига ишга тақсимландилар [13].

Маълумки таълим тизимидаги ислоҳотларни самарали бўлиши ҳамда тайёрланаётган кадрларни салоҳияти, сифати ва компетентлик даражаси аввалambор илмий-педагогик кадрларни қай даражада замон талабларига мослиги билан белгиланади. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислом Каримов Олий Мажлисни 1997 йил 29 августда бўлиб ўтган IX сессиясида сўзлаган нутқида “Етук савияли домлаларни тайёрлаш бўйича махсус бир фонд ташкил этиш керак. Биз шу фонд орқали домлаларни, Ўзбекистон профессорларини чет мамлакатларга юбориб, малакасини ошириб келишига имконият яратишимиз керак” [14] деган таклифни берган эди. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури қабул қилингандан кейин биринчи навбатда, олий таълим муассасалари профессор-педагог ходимлари сафидан етук ўқитувчи кадрлар тайёрлаш, уларнинг ривожланган хорижий мамлакатлар таълимидаги ижобий тажрибаларни ўрганиши, ўқитишнинг янги педагогик технологиялари билан танишиши ва чет элларда тажриба орттиришини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Устоз» Республика жамғармаси фаолиятини таъминлаш тўғрисида Қарори қабул қилинда ва “Устоз” нотижорат хайрия жамғармаси ташкил этилди [15].

Ўзбекистон ОЎЮларида профессор-ўқитувчиларни танловлари «Устоз» республика жамғармаси низомига асосан, биринчи босқич Республика Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ва барча ҳокимликлари ҳамкорлигида ташкил этилган жойлардаги танлов комиссиялари томонидан ва иккинчи босқич «Устоз» жамғармаси ҳузуридаги марказий танлов комиссияси томонидан амалга оширилди ва соҳалар йўналишлари бўйича ҳамда чет тили бўйича синов-суҳбатлар шаклида ташкил этилди. Дастлабки 400 нафардан ортиқ грант совриндорлари 1998-2000 йилларда Англия, Германия, АҚШ, Канада, Франция, Жанубий Корея давлатларининг 25 етакчи университетлари ва илмий марказларида малака оширишга сазовор бўлди[16]. «Устоз» жамғармаси фаолияти даврида жами 935 нафар ўқитувчи ва тадқиқотчилар 29 та устивор йўналишлар бўйича хорижни нуфузли университетларида илғор тажрибани ўзлаштириб Ўзбекистонга қайтдилар[17].

Кейинги йилларда Ўзбекистон олий таълим тизимини халқаролашуви олдинги йиллардан фарқли ўлароқ, асосан хорижий олий ўқув юртларини филиалларини таъсис этиш ва таълим миграцияси оқимини ўсиб бориши билан боғлиқ бўлди. Талабаларни ва профессор ўқитувчиларни давлат томонидан хорижга марказлашган тарзда грант асосида ўқишга жунатиш 2003 -2016 йилларда анча камайди.

2003 йил 1 июлидаги Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг Фармонига мувофиқ “Умид” ва “Устоз” жамғармалари бирлаштирилиб, “Истеъдод жамғармаси ташкил этилди. Жамғармага ёш иқтидорли педагогик кадрларни танлов орқали аниқлаб, етакчи чет эл илмий марказлари билан ўзаро манфаатли ҳамкорлик асосида уларни интелектуал салоҳиятини янада юксалтириш вазифаси юкланди[18]. Жамғарма кўмагида республика таълим муассасаларига халқаро миқёсда тан олинган олий ўқув юртларининг етакчи профессорлари таклиф этилиб, таълимнинг устувор йўналишлари бўйича

маърузалар ўқилди, хорижда малака ошириш ва ҳамкорликда илмий изланишлар олиб бориш учун истиқболли ўқитувчиларни танлаб олинди. “Истеъдод” жамғармаси томонидан маҳаллий ва хорижий таълим муассасалари ҳамда ишлаб чиқариш корхоналари иштирокида ишлаб чиқаришга университет илм-фан ва таълимини интеграция лойиҳалари учун мўлжалланган умумий қиймати 1.5 млн. евро миқдорида хорижий инвестицияларни жалб қилинди [19]. Шунингдек, жамғарма гратлари асосида 800 нафардан ошиқ ёш педагог ва илмий ходимлар чет элда ўз малакаларини оширишга мувофақ бўлдилар [20]. “Истеъдод” жамғармасини 14 йиллик фаолияти даврида профессор – ўқитувчиларни қайта тайёрлаш ва малака оширишлари учун қарийб 12 млрд сум сарф харажат қилинди [21].

2003–2016 йиллар давомида Ўзбекистон олий таълим тизимида халқаро ҳамкорлик ва уни халқаролашуви Европа Иттифоқи дастурлари ҳамда бошқа ривожланган хорижий давлатлар хомийлигида қуйидаги йўналишларда ривожланди.

- Қўшма олий таълим муассасаларини ташкил этиш;
- Республика олий ўқув юртларида ўқув жараёнига хорижий ўқитувчи ва олимларни жалб этиш;
- Академик мобилликга (ҳаракатчанлик) кўмаклашиш;
- Қўшма илмий-тадқиқот фаолиятини олиб боришга кўмаклашиш;
- Олий таълим соҳасидаги таълим, инновацион технологиялар, ресурслар ва энергияни тежаш долзарб масалалари бўйича халқаро конференциялар ташкил этиш;
- Олий таълимга хорижий инвестицияларни жалб қилиш.

Шу давр мобайнида Ўзбекистон олий таълим тизимини халқаролашуви ҳамда профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг мобиллиги Европа Иттифоқи Tempus - Tacis, Erasmus Mundus, Erasmus + лойиҳалари, Fulbright Student АҚШ, (DAAD) Германия, Буюк Британияни Chievening Program дастури, ҳамда Япония (JICA), Жанубий Корея (KOIKA), Франция, Хитой, Испания, Россия Федерацияси ҳукуматлари томонидан молиялаштирилган дастурлар кўмагида амалга оширилди [22].

Европа Иттифоқи билан Ўзбекистон ўртасидаги олий таълимни ислоҳ қилишдаги ҳамкорлик дастлаб 1994 йилдан бошлаб TEMPUS/TACIS* лойиҳалари асосида йўлга қўйилган эди. Tempus дастури Ўзбекистонда ўтган давр мобайнидаи 80 дан ортиқ университетлараро ҳамкорлик лойиҳалари молиялаштирилди. Tempus дастури халқаро миқёсда уч йиллик интенсив университетлараро ҳамкорлик учун асос бўлган ягона дастур бўлиб, Ўзбекистонда олий таълимнинг умумий халқаролашувига сезиларли таъсир кўрсатди. Tempus дастури, айниқса, 1997 йилда “Таълим тўғрисида” ги янги қонун ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастури қабул қилинган пайтдан бошлаб, мамлакатда таълим ислоҳотларини қўллаб-қувватлашнинг кучли ва самарали воситаси бўлиб хизмат қилди. Дастур кейинги йилларда янада долзарб бўлиб қолди, чунки Tempus лойиҳалари 2011-2012 йилларда Ўзбекистон олий таълим тизимини модернизация қилиш бўйича қабул қилинган ҳукумат қарорларини амалга оширишга ёрдам берди [23].

Европа Иттифоқининг яна бир «Erasmus Mundus» дастури Ўзбекистон олий таълим тизимини янада ривожланишига ва уни дунё таълим маконига интеграциялашувига ўзини хиссасини қўшди. Ўзбекистон олий таълим муассасалари 2004 йилдан бошлаб «Erasmus Mundus» дастурида иштирок эта бошлади. «Erasmus Mundus» юқори даражадаги интеграциялашган қўшма магистрлик халқаро ўқув дастури бўлиб у олий таълим муассасаларида сифатни яхшилаш, инновацияларни жорий қилиш ва халқаролаштиришга кўмаклашиш мақсадида олий ўқув юртларининг халқаро консорциуми томонидан амалга оширилди. Ўзбекистон университетлари иштирокидаги 25 та «Erasmus Mundus» ҳамкор дастурлари доирасида 200 га яқин ўқитувчи ва ва магистрлар Европа ҳамкор университетларида ўқиш учун мобиллик грантларига эга бўлди [24].

2007 йилдан бошлаб Европа Иттифоқининг янги Erasmus + дастури доирасида Ўзбекистон олий ўқув юртларининг фаол иштироки давом этди. Erasmus + дастурининг (CBHE), Capacity Building in Higher Education - Олий таълимда салоҳиятни ошириш лойиҳа таклифларининг биринчи танлови натижаларига кўра, Ўзбекистон учун пойтахтдаги 12 та университет ва республиканинг барча ҳудудларидан 13 та университет иштирокида 14 та янги лойиҳа танлаб олинди. Лойиҳалар миллий малака асослари масалаларини ҳал қилиш, математик муҳандислик бўйича фанлараро магистрлик дастурини яратиш, АКТ асосида ядро физикаси бўйича магистрлик дастурини ишлаб чиқиш ва ОЎЮларда тиббий таълимни модернизация қилишга ёрдам берди. Шунингдек Erasmus + лойиҳалари олий таълим муассасаларини модернизация қилиш, халқаро миқёсда интеграциялашувни таъминлаш ва олий таълим билан қамровни кенгайтиришга қаратилди [25].

Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини амалга оширишда йигирмадан ортиқ халқаро ташкилотлар ва давлатлар Ўзбекистон таълим соҳасига ташқи ёрдам кўрсатди. Энг йирик донор Япония халқаро ҳамкорлик банки бўлиб, унинг ташқи ёрдам умумий ҳажмидаги улуши 61,6 фоизни ташкил этди. Иккинчи йирик донор Осиё тараққиёт банки (25.3%), ундан кейин Япония ҳукумати (3.2%), Ҳиндистон ҳукумати (2.1%), Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг болалар жамғармаси (UNISEF) (1.6%), Германия тараққиёт банки (KFW), Европа комиссияси дастури (TEMPUS) ва Япония халқаро ҳамкорлик агентлиги Ўзбекистон таълим тизимини қўллаб қувватлашга ўз ҳиссаларини қўшдилар [26]. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки 2000-2007 йилларда Ўзбекистон ўзлуксиз таълим тизимини ислоҳ қилишга қарийб бир миллиарддан кўпроқ ташқи ёрдам кўрсатилган бўлса, олий таълим тизимини ривожлантиришга сарфланган харажат 43 млн 738551 минг долларни ва умумий ёрдамни атиги 4,19 фоизи ташкил қилди [27].

Ўзбекистон юқори малакали кадрлар тайёрлашда дунёда нуфузи ва иқтисодий қудрати ошиб бораётган ҳамда мамлакат иқтисодиётига энг йирик инвеститциялар киритаётган Хитой Халқ Республикаси билан ўзаро манфаатли алоқаларни ривожлантиришга катта эътибор берди. ХХР Халқ таълими вазирлиги билан Ўзбекистон Республикаси Олий ва Ўрта махсус

таълим вазирлиги ўртасида 8 ноябр 1999 йилда имзоланган шартномага мувофиқ ҳар йили талабалар, аспирант ва ўқитувчилар Хитойнинг нуфузли университетларига стажировка ўташ учун юборилди. 2005 йилда Тошкент Давлат Шарқшунослик институти ҳамда Хитойнинг Ланьчжоу университети ҳамкорлигида ташкил қилинган Тошкентдаги Конфуций номидаги Хитой тили ва маданияти институтида ҳар йили 350 дан зиёд тингловчи тахсил олди. Институт ташкил қилинганидан буён курсларда 2,5 мингдан зиёд талаба ёшлар, илмий ходимлар ва тижоратчилар хитой тили ва маданиятини ўргандилар [28]. 2014 йилнинг декабрь ойида икки давлат томонидан 2013 йилда имзоланган шартномага биноан Самарқандда яна бир Конфуций институти ўз фаолиятини бошлади. Ушбу масканда юқори малакали педагоглар замонавий педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда дастлабки 400 га яқин ёшларга хитойлик мутахассислар билан ҳамкорликда хитой тилини ўргатишни бошладилар [29]. 2014 йил 3 сентябрь куни Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг Тошкент Давлат Шарқшунослик институти таркибида Хитойшунослик факультетини ташкил этиш тўғрисида Қарори қабул қилинди [30]. Қарорга биноан 2014-2015 ўқув йилида Хитойшунослик факультети бакалавриат йўналиши хитой филологиясига –34 нафар, жаҳон сиёсати – 25 нафар, мамлакатлар иқтисодиёти ва мамлакатшунослик – 25 нафар талаба қабул қилинди. Барча йўналишларда замонавий педагогик ва ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда илғор ўқитиш усулларини жорий этиш асосида Хитой тарихи, маданияти, сиёсати ва иқтисодиёти соҳасида чуқур билимларга эга бўлган ва хитой тилини эркин биладиган юқори малакали хитойшунос мутахассисларни тайёрлаш бошлаб юборилди. Юқори малакали кадрларни тайёрлашда факультетни ўқув жараёни ва илмий –методик ишларини ташкил қилиш унинг моддий – техника базасини мустаҳкамлаш, ўқитувчилар ва талабаларнинг чет эллардаги олий таълим муассасаларида стажировкадан ўтишлари учун Ўзбекистон Республикаси давлат бюджетидан маблағ ажратилди [31].

Ўзбекистонда олий таълимни халқаролашуви жараёнлари ва талабаларнинг мобиллиги 2003- 2016 йилларда юқорида таъкидланганидек турли сиёсий-мафкуравий ва иқтисодий омиллар таъсирида бўлганлиги натижасида анча сустлашди. Тошкентда 1999-йил 16 февралда ташқи кучлар томонидан амалга оширилган террорчилик харакати ва 2005 йил май ойидаги Андижон воқеалари ҳам озми - кўпми олий таълим соҳасида халқаро алоқаларни ривожланишига ўз салбий таъсирини кўрсатди [32]. Айнан шу даврда бир қатор халқаро ва хорижий донор ташкилотлар (Peace Corps, IREX, ACCELS, American Councils ва бош.) Ўзбекистондаги фаолиятини тўхтатди ёки лицензиялари муддати тугаганидан кейин мамлакатни тарк этди [33].

Маълум сабабларга кўра Ўзбекистон олий таълим соҳасидаги ташқи алоқалар анча қисқарган бўлишига қарамасдан тизимни халқаролашуви жараёнлари тўхтаб қолгани йўқ. Мамлакат иқтисодиётидаги ижобий ўзгаришлар ва ташқи маданий – маърифий алоқаларни нафақат МДҲ

давлатлари билан ривожланиб кенгайиб бориши ёшларни чет элда билим олишлари учун қулай имкониятларни яратди, натижада янги тенденция, таълим миграцияси йилдан-йилга ўсиб борди. Шуни айтиш керакки, 2000-йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси талабалари миграцияси йилдан йилга ўсиб борди. ЮНЕСКО статистика институти маълумотларига кўра, Олий таълим олиш учун хорижга кетаётган ўзбекистонлик талабалар сони 2000 йилдан 2016 йилгача бўлган даврда 3,5 баравар кўпайиб, 30 минга яқин кишига етди [34]. Ўзбекистонлик хорижда ўқиётган талабаларни қарийб учдан икки қисми Россия Федерациясида қолганлари Қозоғистон, Украина, Жанубий Корея, Латвия ва бошқа давлатларда таълим олди [35]. Шу даврда ҳукумат ва университетлар томонидан расмий марказлашган ҳолда талабаларни хорижга ўқишга жунатиш деярли тўхтаб қолган бўлсада, кўплаб ўзбекистонлик ёшлар мустақил равишда дунёни ривожланган давлатларида тахсил олдилар. Масалан Америка Қўшма Штатларининг Халқаро таълим институтини (Institute of International Education) маърузасига кўра 2007-2008 ўқув йилида 539 нафар ўзбекистонлик талаба АҚШнинг колледж ва университетларида тахсил олган бўлса, 2008 - 2009 ўқув йилида уларни сони 688 нафарни ташкил қилди. Бу барча Марказий Осиё мамлакатлари орасида ўша пайтдаги қайд этилган энг юқори кўрсатгич ҳисобланади [36].

Ўзбекистон олий таълим тизимининг глобаллашув талабларига мослаштириш, соҳани халқаролашуви имкониятлари чекланган бир пайтда мамлакатга хорижий университетларни жалб қилиш ва улар билан филиаллар, қўшма факультетлар ҳамда ўқув дастурлари шаклида ҳамкорликни ривожлантириш орқали давом этди. Даставвал 1995 йил 27 июлда Тошкентда Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Россия Федерацияси Ҳукумати ўртасида “Олий таълим соҳасида ҳамкорлик қилиш тўғрисида” тузилган битимга асосан [37] Ўзбекистонда Россиянинг бир қанча университетларининг филиаллари ташкил қилинди. 1995 йилда Г.В. Плеханов номидаги Россия иқтисодиёт академиясининг Тошкент давлат иқтисодиёт университети ҳузурида эксперимент тарзида ташкил этилган ўқув-илмий маркази расмий равишда дастлабки хориж олий ўқув юрти сифатида Ўзбекистонда ўз фаолиятини бошлади [38]. Ўзбекистон Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 5 сентябрдаги Қарорига биноан ўқув марказга Г.В.Плеханов номидаги Россия иқтисодиёт университетининг Тошкент шаҳридаги филиали мақоми берилди [39].

Филиал ўз йигирма йиллик фаолияти давомида жаҳон стандарларига мос келадиган юқори малакали уч мингдан ортиқ кадрларни, шу жумладан қарийб икки ярим минг нафар бакалавр ва саккиз юзга яқин магистрларни тайёрлади. Филиалда Ўзбекистон фуқаролари билан бир қаторда Россия Федерацияси, Хитой, Жанубий Корея, Қозоғистон, Озарбайжон, Арманистон, Афғонистон, Исроил, Тожикистон, Қирғизистон ҳамда Туркманистонлик талабалар ҳам таҳсил олдилар ва университет қисқа давр ичида халқаро ўқув марказига айланди ва Ўзбекистон олий таълим тизимини халқаролашувига ўз ҳиссасини қўшди [40].

Ўзбекистон ҳукумати хорижда юқори малакали кадрлар тайёрлашда ўтган давр мобайнида ортирилган тажрибадан келиб чиқиб олий маълумотли юқори малакали кадрлар тайёрлашни жаҳон таълим стандартлари талабларига мувофиқ ташкил этиш, валютани тежаш ҳамда илғор хорижий таълим стандартларини бевосита олий таълимга татбиқ қилиш, етакчи олий таълим муассасалари билан ҳамкорликни янада кенгайтириш мақсадида 2002 йил 16 январда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарорига биноан Тошкент шаҳридаги Халқаро Вестминстер университети (ТХВУ), Лондон шаҳридаги Вестминстер Университети ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Умид” жамғармаси билан ҳамкорликда ташкил қилинди. «Иқтисодиёт», «Менежмент», «Ахборот технологиялари» ва «Ҳуқуқ» йўналишлари бўйича бакалавриат ва магистратурада мутахассисларни тайёрлаш Халқаро Вестминстер университетининг асосий вазифаси этиб белгиланди [41]. ТХВУ нафақат Ўзбекистонда шунингдек, Марказий Осиёда ташкил қилинган, халқаро тоифадаги аккредитациядан ўтган ривожланган давлатларнинг дастлабки олийгохи бўлиб мамлакат олий таълим тизимини халқаролашувига, уни сифатини жаҳон андозалари даражасига кўтарилишига ва хорижий талабаларни жалб қилишга хизмат қилди [42]. Халқаро Вестминстер университети 2016 йилга қадар 1700 дан ортиқ юқори малакали кардлар тайёрлади ва ҳозирги кунда улар Ўзбекистоннинг ривожланишига ўз ҳиссаларини қўшмоқдалар [43].

2005 йил Андижон воқеалари Ўзбекистоннинг барча соҳалардаги халқаро алоқаларига шу жумладан олий таълимни халқаролашувига ўз салбий таъсирини кўрсатди. Натижада маълум даргача бу соҳадаги алоқаларнинг географияси торайиб асосан МДҲ ва Осиё давлатлари билан чекланди. Шу даврда Ўзбекистон ҳукумати Россия Федерациясининг етакчи олий ўқув юртлари филиалларини таъсис этишни давом эттирди. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг Қарорига биноан 2006 сентябр ойида М.В. Ломоносов номидаги Москва давлат университетининг Тошкент шаҳридаги филиали ўз фаолиятини бошлади [44]. МДУ филиалида икки йўналишда, яъни амалий математика ва информатика ҳамда психология соҳасида юқори малакали кадрлар тайёрланди [45].

Кейинги йилларда ҳам Россия Федерацияси ва Ўзбекистон ўртасидаги олий таълим соҳасидапги кўп қиррали ҳамкорлик янада кенгайди. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А. Каримовнинг 2007 йил 12 январдаги Қарорига биноан И. М. Губкин номидаги Россия давлат нефть ва газ университетининг Тошкент шахридаги филиали таъсис этилди. Филиалда ўқув жараёни И.М. Губкин номидаги РДНГУ томонидан тасдиқланган ўқув режалари ва дастурлари ҳамда илғор педагогик ва ахборот технологиялари, фан ва олий таълимнинг энг янги ютуқлари асосида ташкил қилинди [46].

Ўзбекистон ҳукумати глобаллашув даврида Осиёни ривожланган давлатлари Хитой, Жанубий Корея, ва Сингапур билан кўп қиррали алоқаларни жумладан олий таълим ва юқори малакали кадрлар тайёрлаш соҳасидаги ҳамкорликни ривожлантиришга катта эътибор берди. Дастлаб

Ўзбекистон биринчи Президенти Қарорига биноан Ўзбекистон пойтахти Тошкентда 2008 йил сентябр ойида Сингапур менежментни ривожлантириш институти филиали ташкил қилинди [47]. Қисқа давр ичида институт Марказий Осиёдаги нуфузли хусусий олий ўқув маскани сифатида танилди ва атрофдаги мамлакатлардан ҳам кўплаб талабалар ушбу филиалда таълим олдилар. Филиалнинг 2016 йилга қадар фаолияти даврида бизнес, банк иши ва молия, маркетинг соҳалари учун 1503 нафар юқори малакали кадрлар тайёрланди [48].

Ўзбекистон олий таълим тизимида ривожланган давлатларнинг тажрибасидан кенг фойдаланиш ҳамда жаҳон андозаларига жавоб берадиган, илғор таълим стандартлари даражасида олий маълумотли мутахассислар тайёрлашни янада ривожлантириш ва такомиллаштириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг Қарорига биноан 2009 йилда Турин политехника университети (Politecnico di Torino) филиали Тошкентда ташкил этилди. Қарорга асосан университетга 2009/2010 ўқув йили учун бакалаврлар тайёрлаш бўйича қабул квотаси 200 киши этиб белгиланди. Янги университетнинг таъсис этилиши маҳаллий профессор-ўқитувчиларни ўқув жараёнига жалб қилиш, улар учун малака ошириш дастури ва ТПУТ таркибида илмий-тадқиқот ва амалий тадқиқотлар олиб борадиган технопарк яратиш ҳамда автомобиллар, автомобил двигателлари, автомобил қисмлари, бутловчи қисмларини лойиҳалаш бўйича тадқиқот натижаларини тадбиқ қилиш, шунингдек архитектура ва саноат дизайнини, энергия тежайдиган технологияларни, маҳаллий хом ашё ва замонавий саноат автоматлаштирилган бошқарув тизимларига асосланган янги турдаги қурилиш материалларини ишлаб чиқиш имконини яратди [49]. Турин политехника университети филиали 2015-2016 ўқув йилида тўлов контракт асосида квота бўйича жами 275 нафар талабани ўқишга қабул қилди.

XXI аср жаҳонда барча соҳаларга жадал суратларда ахборот-коммуникация технологиялари ҳамда рақамли технологиялар ва сунъий интеллектни кенг тадбиқ этилиши билан характерланади. Ахборот технологияларини жаҳон таълим маконига таъсири ҳамда масофавий таълимни ривожланиши глобаллашув натижасида янада тезлашди. Ўзбекистонда бу соҳада ривожланган давлатларнинг бой тажрибасидан фойдаланиш, ахборот-коммуникация технологиялари соҳасида юқори малакали мутахассислар тайёрлашни халқаро стандартлар даражасида такомиллаштириш, шунингдек илғор хорижий олий таълим муассасалари билан ҳамкорликни кенгайтириш мақсадида 2014 йилда Республика Биринчи Президентининг қарорига асосан Тошкент шаҳрида Инха университети (Корея Республикаси) ташкил этилди [50]. Университетда талабаларни ўқитиш инглиз тилида кундузги шаклда, Ўзбекистон Республикаси давлат таълим стандартлари талабларини ҳисобга олган ҳолда, Инха университети ўқув режалари ва дастурларига мувофиқ, кредит тизими асосида ташкил қилинди. Шунингдек 2014–2015 ўқув йилида, университетнинг дастурий таъминотни ишлаб чиқиш, ахборот тизими ва компьютер тармоқларини

бошқариш мутахассисликларига 150 нафарга яқин талабани тайёрлаш вазифаси юкланди [51].

2015-2016 ўқув йилига келиб Ўзбекистонда 7 та хорижий университетлар филиаллари фаолият олиб борди ва улар мамлакат олий таълим тизимига жаҳон андозаларига мос илғор педагогик технологиялар ва инновацияларни жорий қилинишида ҳамда уни халқаролашувида муҳим рол ўйнади. Лекин шундай бўлсада, хорижий университетлар филиалларда мамлакатдаги барча талабаларнинг бор-йўғи 3 фоизигина таҳсил олди [52]. 1991-2016 йилларда олий таълим соҳасида халқаро ҳамкорлик ҳамда уни халқаролашуви чекланган ҳолда ривожланган булишига қарамасдан хорижий университетлари филиалларини ташкил қилиниши мамлакат иқтисодиёти учун зарур бўлган юқори малакали кадрларни тайёрлашга ўз ҳиссасини қўшди.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, 1991-2016 йилларда Ўзбекистонда олий таълим соҳасидаги халқаро алоқалар ва уни халқаролашуви жарёнлари бир маромда ривожланмади, ташқи ва ички омиллар таъсир натижасида ўзгариб турди. Бу ўз навбатида Ўзбекистонда олий таълимни халқаролашувига салбий таъсир кўрсатди. Соҳада амалга оширилган ислоҳотлар ва муайян натижаларга қарамасдан, олий таълим тизимида йўналишлар бўйича дунёнинг етакчи илмий-таълим муассасалари билан самарали ва тизимли ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйишда сезиларли натижага эришилмади. Хусусан таълим жараёнига илғор хорижий тажрибаларни интеграция қилиш жараёни секин суръатда кечди. Иқтидорли педагог ва илмий кадрларнинг нуфузли хорижий таълим ва илмий муассасаларда стажировка ўташи, малака ошириши бўйича ташкилий ва молиявий механизмлар етарлича ривожланмади. Олий таълим соҳасидаги халқаро ҳамкорликнинг институционал асослари, жумладан, икки томонлама шартномалар асосида қўшма дастурлар ва илмий лойиҳалар сони чекланган бўлганлиги натижасида Ўзбекистон олий таълим тизимини халқаролашув даражаси паст бўлиб, бу таълим сифатига ва тизимга инновацияларни жорий қилишга ҳамда уни жаҳон таълим маконига интеграциялашувига имкон бермади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Таълим фаолиятини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами:Т.,-- 2007.-32-бет

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “ Иқтидорли ёшларнинг чет элда таълим олишларини қўллаб-қувватлаш «Умид» жамғармасини тузиш тўғрисида”ги 1997 йил 7 январдаги ПФ-1694-сонли Фармони. https://lex.uz/docs/168039

3. Васиева Д. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда университет таълимининг шаклланиши ва ривожланиши: тажриба ва муаммолар (1991–2001 йй.): Тарих фан. ном. дис.. – Карши, 2008.-Б.149.

4. ЎзР ПАА.975-фонд, 26-рўйхат, 426- иш, 111-варақ..

5. “Национальная программа по подготовке кадров:результаты и перспективы реформ “материалы международной научно-практической конференции 15-16 декабря 1999 года.г.Ташкент-2000.,С.144.

6. ЎзР ПАА. 975-фонд, 26-рўйхат, 426- иш, 111-варақ..

7. “Национальная программа по подготовке кадров: результаты и перспективы реформ “Материалы международной научно-практической конференции 15-16 декабря 1999 года. г.Ташкент-2000.,С.144.

8. Нормуродова М. «Умид» - Ватан чироғи//Халқ сўзи.-.2003.-15 фев.

9. «Umid» jamg‘armasi bitiruvchilari anjumani o‘tkaziladi. https://www.gazeta.uz/oz/2019/12/04/fund-umid/

10. Нормуродова М. «Умид» - Ватан чироғи//Халқ сўзи.-.2003.-15 фев.

11. Нормуродова М. «Умид» - Ватан чироғи//Халқ сўзи.-.2003.-15 фев.

12. Шерзод Шерматов — «Умид» жамғармаси ва бошқалар хусусида.https://daryo.uz/k/2020/01/03/sherzod-shermatov-umid-jamgarmasi-va-boshqalar-xususida/

13. Нормуродова М. «Умид» - Ватан чироғи//Халқ сўзи.-.2003.-15 фев.

14. Баркамол авлод -Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. — Т.: Шарқ,1997.,Б.12

15. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Устоз” Республика жамғармаси фаолиятини таъминлаш тўғрисида. 1997 йил 30 декабрь, 576-сон қарори. https://lex.uz/ru/docs/589172?twolang=true

16. Имамов Э.З., Сафарова Ш.А., Бутаеров О.С. – «Республика Узбекистан: результаты реформ и дальнейшая стратегия развития высшего образования». Астана: ЮНЕСКО 16 с. Url:www.unesco.kz/ education/he/uzbek/uzbnat_ru.doc.

17. Брунер Х.Х., Тиллет Э. Высшее образование в Центральной Азии: задачи модернизации / Отчет Всемирного банка - №68926. Всемирный банк, 2007. С.213.

18. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2003 йил 1 июлдаги ПФ-3272-сонли “Истиқболли ёш педагог ва илмий кадрлар малакасини ошириш ва тажриба алмашув тизимини такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони / http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lactid=484629

19. Сиддиқов Р.Б. Ўзбекистон олий таълим тизимида халқаро ҳамкорликни йўлга қўйилиши ва ривожланиши.ЎзМУ хабарлари.Ижтимоий фанлар туркуми. 2022,№1/3.Б.32.

20. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Истеъдод” жамғармаси жорий архиви 2013 йил маълумотлари.

21. Руководство Фонда «Истеъдод» сообщило о небывалом росте расходов на проекты 2 августа 2017,https://podrobno.uz /cat/obchestvo/rukovodstvo-fonda-istedod-soobshchilo-o-nebyvalom-roste-svoikh-raskhodov-na-proekty/

22. Узбекистан. Обзор системы высшего образование. Февраль 2016 г. Erasmus+.http://eacea.ec.europa.eu/ education/ Eurydice/eurypedia_en..php.C.36

23. Узбекистан. Обзор системы высшего образование. Февраль 2016 г. Erasmus+.http://eacea.ec.europa.eu/ education/ Eurydice/eurypedia_en..php.C.37

24. Узбекистан. Обзор системы высшего образование. Февраль 2016 г. Erasmus+.http://eacea.ec.europa.eu/ education/ Eurydice/eurypedia_en..php.C.38

25. Узбекистан. Обзор системы высшего образование. Февраль 2016 г. Erasmus+.http://eacea.ec.europa.eu/ education/ Eurydice/eurypedia_en..php.C.38

26. Ўзбекистонда таълим: талаб ва таклиф мутаносиблиги. UNDP – Тошкент, 2007/2008. – Б.152.

27. Ўзбекистонда таълим: талаб ва таклиф мутаносиблиги. UNDP – Тошкент, 2007/2008. – Б.153.

28. Siddiqov R.B. O‘zbekiston – Xitoy madaniy-ma’rifiy aloqalariga oid//Samarqand Davlat universiteti ilmiy axborotnomasi.2016-№2(96) Б.13

29. В Самарканде открыли институт Конфуция.https://www.uzdaily.uz/ ru/v-samarkande-otkryli-institut-konfutsiia/ (Мурожаft этилган сана 03.08.2016)

30. Ўзбекистон Республикаси Президентининг”Тошкент давлат шарқшунослик институти таркибида хитойшунослик факультетини ташкил этиш тўғрисида” 2014 йил 3 сентябрь, ПҚ-2228-сон Қарори. https://lex.uz/ru/docs/2456008

31. Ўзбекистон Республикаси Президентининг”Тошкент давлат шарқшунослик институти таркибида хитойшунослик факультетини ташкил этиш тўғрисида” 2014 йил 3 сентябрь, ПҚ-2228-сон Қарори. https://lex.uz/ru/docs/2456008

32. Ubaydullaeva D. Ideological discourses in post-Soviet Uzbekistan: internationalization of higher education as a threat // Journal of Political Ideologies. 2022. P. 16-18. URL: https://doi.org/10.1080/13569317.2022.2104996

33. Турдикулов О. Т. Эволюция политики интернационализации высшего образования Республики Узбекистан (1991–2023 гг.) // Дисс.кан.ист.наук. - Томск, 2025. С. 133.

34. Голомидова П.С. Особенности международной студенческой миграции из Республики Узбекистан в Российскую Федерацию (на примере Северного (Арктического) федерального университета, 2009–2024 Вестник РУДН. Серия: Социология. 2025. Т. 25. № 1. С. 50

35. Кадирова.З. Миграция через образование ведет к “утечке мозгов” // Экономическое обозрение №11 (239) 2019.С.20.

36. Гули Юлдашева. США и Узбекистан – обзор пройденного пути и вопросы будущего 6 февраля, 2017.

37. https://www.caa-network.org/archives/8342

38. Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Россия Федерацияси Ҳукумати ўртасида Олий таълим соҳасида ҳамкорлик қилиш тўғрисида Битим 1995 йил 27 июл, Тошкент шаҳри. https://lex.uz/ru/docs/2470236

39. Абдурахманов.К. 30 лет лидерства в образовании и науке https://review.uz/post/30-let-liderstva-v-obrazovanii-i-nauke.

40. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Г.В. Плеханов номидаги Россия иқтисодиёт университети» олий касб таълими Федерал давлат бюджети таълим муассасасининг Тошкент шаҳридаги филиали фаолиятини ташкил этиш тўғрисида 2002 йил 5 сентябрь, 318-сон Қарори. https://lex.uz/docs/564330

41. Сиддиқов Р.Б. Ўзбекистон олий таълим тизимида халқаро ҳамкорликни йўлга қўйилиши ва ривожланиши.ЎзМУ хабарлари.Ижтимоий фанлар туркуми. 2022,№1/3.,32-33-бетлар

42. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Тошкент шаҳрида Халқаро Вестминстер университетини ташкил этиш тўғрисида 2002 йил 16 январь, 22-сон Қарори. https://lex.uz/docs/244795

43. Нормуродова М. «Умид» - Ватан чироғи//Халқ сўзи.-.2003.-15 фев.

44. Тошкент шаҳридаги Халқаро Вестминстер университети ташкил қилинган куни нишонланди. 06.02.2016. https://kun.uz/kr/news /2016/02/06/toshkent-shahridagi-xalqaro-vestminster-universiteti-tashkil-qilingan-kuni#! (мурожат қилинган сана 05.06.2025)

45. Ўзбекистон Республикаси Президентининг М.В. Ломоносов номидаги Москва давлат университетининг Тошкент шаҳридаги филиали фаолиятини ташкил этиш тўғрисида 2006 йил 24 февраль, ПҚ-290-сон Қарори https://lex.uz/docs/973643?ONDATE=04.07.2023%2000

46. Первый выпуск Филиала МГУ в г. Ташкенте 07.12.2010. https://msu.ru/news/novosti-mgu/pervyy_vypusk_filiala_mgu_v_g_tashkente.html (Мурожат этилган сана 14.08.2025)

47. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Тошкент шаҳрида И.М. Губкин номидаги Россия давлат нефть ва газ университети филиали фаолиятини ташкил этиш тўғрисида 2007 йил 12 январь, ПҚ-564-сон Қарори https://lex.uz/docs/1109075?ONDATE=04.07.2023

48. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Тошкент шаҳрида Сингапур менежментни ривожлантириш институти фаолиятини ташкил қилиш тўғрисида 2007 йил 5 сентябрь, ПҚ-691-сон Қарори https://lex.uz/ru/docs/1244063?ondate=09.11.2021%2000

49. Singapur menejmentni rivojlantirish institutida tantanali bitiruv marosimi o‘tkazildi. https://kun.uz/news/2016/10/26/singapur-menezmentni-rivozlantiris-institutida-tantanali-bitiruv-marosimi-utkazildi(мурожат этилган сана 19 08.2025)

50. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ”Тошкент шаҳрида Турин политехника университети фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги 2009 йил 27 апрель, ПҚ-1106-сон Қарори. https://lex.uz/docs/1476912

51. О Туринском политехническом университете в Ташкенте. https://turin.uz/ru/7617-2/ (мурожат этилган сана 20 08.2025)

52. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Тошкент шаҳрида Инха университетини ташкил этиш тўғрисида 2014 йил 24 март,ПҚ-2155-сон Қарори https://lex.uz/ru/docs/2440275?ONDATE=28.07.2023

Сиддиков Р. Б.
К.и.н., доцент кафедры «История Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
ravsidd@mail.ru

К ИСТОРИИ ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА (1997-2016)

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются процессы становления и развития международных связей в системе высшего образования Узбекистана на основе Национальной программы по подготовке кадров, а также специфические особенности и этапы интернационализации высшего образования и системы подготовки кадров. Освещается участие филиалов зарубежных университетов в подготовке отечественных кадров в Узбекистане, а также аспекты сотрудничества с международными организациями в этой области.

Ключевые слова: Национальная программа по подготовке кадров, высшее образование, международное сотрудничество, фонд «Умид», фонд «Устоз», фонд «Истедод», глобализация, интернационализация, интеграция, качество высшего образования.

Siddikov R. B.
PhD,. associate professor at the department of «History of Uzbekistan»
National University of Uzbekistan
ravsidd@mail.ru

TO THE HISTORY OF INTERNATIONALIZATION OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN (1997-2016)

ABSTRACT

This article analyzes the processes of formation and development of international relations in the higher education system of Uzbekistan on the basis of the National Training Program, as well as the specific features and stages of the internationalization of higher education and the personnel training system. The article highlights the participation of branches of foreign universities in the training of domestic personnel in Uzbekistan, as well as aspects of cooperation with international organizations in this field.

Keywords: National Training Program, higher education, international cooperation, “Umid” Foundation, “Ustoz” Foundation, “Istedod” Foundation, globalization, internationalization, integration, quality of higher education.